

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

SABITOVA TADJIXON

**OLIY TA'LIM TIZIMIDA FOLKLOR
ASARLARINI O'QITISHNING
METODOLOGIK ASOSLARI**

Monografiya

**«SARBON LLS»
TOSHKENT – 2025**

UO‘K:

KBK:

Sabitova T.

Oliy ta’lim tizimida folklor asarlarini o‘qitishning metodologik asoslarি [Matn] Monografiya. – T.: «SARBON LLS», 2025. – 128 bet.

Mas’ul muharrir:

Safo Matjonov – Pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Abdimurod Tilavov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Davlatova Adiba – Filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.

Mazkur monografiyada folklor asarlarini o‘qitishning nazariy metodologik va pedagogik xususiyatlari, folklor asarlarini o‘qitishda dasturiy ta’mintoning ahamiyati, o‘ziga xos jihatlari ilmiy tadqiq qilingan. Faolklor asarlarini o‘qitishdagi tahlillar muallifning ilmiy kuzatishlari, metodik-nazariy qarashlari va 50yildan ortiq pedagogik tajribalarga tayangan holda va ta’limga nisbatan innovatsion metodik yondashuv sifatida e’tirof etilayotgan yangiliklarni folklor asarlarini o‘qitishdagi bir necha raqamli texmologiyalardan foydalanish mumkinligi jihatlari ko’rsatib berilgan. Folklor asarlarini o‘qitishda metodik tamoyillar, dasturiy ta’mnot va uning folklor asarlarini o‘qitishdagi roli va imkoniyatlari tahlil va tadqiq etish Yangi O‘zbekistonni barpo etishda dolzarb va muhim masalalardandir.

Monografiya pedagogik oliy ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor – o‘qituvchilar, bakalavriat, magistratura talabalari, filolog mutaxassislar, yosh ilmiy tadqiqotchilar va keng kitobxonlar uchun mo‘ljallangan.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy texnik kengashining
2024 yil ____ dekabrdagi ____ sonli bayonnomasiga asosan nashrga
tavsiya etilgan.*

ISBN

MUNDARIJA

KIRISH	4
TA'LIM BOSQICHLARIDA FOLKLOR ASARLARINI O'RGANISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI	6
Ta'lrim bosqichlarida folklor asarlarini o'qitilishi pedagogik muammo sifatida	6
Folklor asarlarini o'qitishning pedagogik-psixologik va janriy xususiyatlari	19
FOLKLOR ASARLARINI O'QITISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	33
Go'ro'g'li turkumidagi dostonlarni qiyosiy o'qitishning innovation texnologiyalari	33
Romantik dostonlarni gender texnologiyasi asosida o'qitish usullari.....	46
Xalq ertaklari va bolalar folklorini janriy xususiyatlar asosida o'qitish	56
FOLKLOR ASARLARINI O'QITISHNING DASTURIY TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI	76
Folklor asarlarini o'qitishning dasturiy ta'minotini loyihalash	76
Mustaqil o'qish uchun material so'rovga asoslangan ta'lim	88
Folklor asarlarini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish.....	89
Folklor asarlarni o'qitish samaradorligini oshirish modeli	103
XULOSA.....	121
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	123

KIRISH

Bugun globallashuv, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tizimlarning raqamli transformatsiyasi sharoitida ta’lim sohasi ham o‘zgartirilmoqda. Ta’lim jarayonlarini tashkil etish va yondashuvlar zamon talablari doirasida o‘zgarmoqda. Ta’lim va tarbiya standartlari takomillashtirilmoqda. Davlat siyosati yangilanmoqda bu esa dunyahamjamiyati va O‘zbekiston ta’lim tizimida zamonaviy innovatsion yondashuvlarni talab etmoqda.

Madaniy merosning barqarorligi har qanday jamiyatda donolik, bilim, urf-odat, an’analarni keyinga avlodga yetkazib berish hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ko‘plab mamlakatlarda xalq og‘zaki ijodi texnologiyaning rivojlanishi va qiziqishlarning o‘zgarishi sababli yo‘q bo‘lib ketmoqda. Bu esa kelajak avlodning aynan mana shu bo‘g‘inida bo‘shliq paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Folklor asarlari esa xalq og‘zaki ijodi an’alarini o‘zida saqlaydi, lingvistik va madaniy jihatlar haqida tushunchalar berib boradi. 2022 yildan boshlab jahon folklorshunosligi doirasida rivojlangan mamlakatning folklor analogi va raqamli o‘qitilishi bo‘yicha tipologik o‘rganishlar bo‘yicha loyiha tadqiqotlari olib borilmoqda. Bu esa dunyo mamlakatlarida ham folklor asarlarini o‘qitishi va uni saqlab qolish borasida katta xarakatlar amalga oshirilayotgani ko‘rsatib beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ham bu sohani rivojlantirish borasida quyidagi fikrlarni bildirgan. “Ayni vaqtda hozirgi globallashuv davrida, tijorat vositasiga aylangan “ommaviy madaniyat”, shou-biznesning salbiy ta’siri tobora kuchay i b borayotgan murakkab zamonda har qanday milliy madaniyatning bulog‘i bo‘lgan folklor san’atiga e’tibor va qiziqish, afsuski, susayib borayotgani ham sir emas. Xolbuki, folklor san’ati, ta’bir joiz bo‘lsa bu – insoniyatning bolalik qo‘shib idir”¹.

Bugungi kunda dunyo hamjamiyatida ta’lim tizimi va uni isloh qilish, zamonaviy ta’lim texnologiyalarning joriy etishi borasida ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, folklor asarlarining o‘qitilishi bo‘yicha zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda

¹ Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. –Т.:, Ўзбекистон 2019. 134-135-б.

ta’lim berish borasida ham yuksalishlar talaygina.

Jahon folklorshunosligidagi asarlarning nazariyasi, poetikasi va metodikasini tadqiq etish dolzarb ilmiy muammolardan hisoblanadi. Jahon folklorshunosligida o‘zbek folklor asarlarining ahamiyati katta. Rivojlangan mamlakatlar tomonidan ta’lim tizimiga innovation texnologiyalarning joriy etilishi orqali yuksak ma’naviyatli barkamol shaxsni kamol toptirish borasida folklor asarlarini ilg‘or pedagogik va axborot - kommunikasion texnologiyalar yordamida o‘qitish folklor asarlarining o‘ziga xos adabiy-estetik tamoyillarning mazmun va mohiyatini yosh avlodga yetkazish metodikasini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda folklor asarlarini o‘qitish va yosh avlodga tushunarli tarzda yetkazib berishda zamonaviy texnologiyalarning roli va ahamiyati sezilarli darajada ko‘rinadi. Folklor asarlarini o‘qitishda dasturiy ta’mintoni takomillashtirish va raqamli texnologiyalardan foydalanish hal hanuz yetarli darajada o‘rganilmagandir. Bu esa ilmiy tadqiqtizning dolzar ekanligini ko‘rsatib beradi.

TA'LIM BOSQICHLARIDA FOLKLOR ASARLARINI O'RGANISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

Ta'lrim bosqichlarida folklor asarlarini o'qitilishi pedagogik muammo sifatida

So'z san'atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo'lishi bilan yuzaga kela boshladi. Xalq og'zaki poyetik ijodi – o'zbek folklori mehnatkash omma ijodi, xalq badiiy faoliyatining tarkibiy qismi, xalq san'atining boshqa turlaridan (musiqa, teatr, raqs, o'yin, tasviriy va amaliy san'at hamda boshqalardan) o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og'zaki so'z san'atidir. Har bir xalqning asrlar orzusini aks ettirgan boy og'zaki so'z san'ati bo'lganidek, o'zbek xalqining ham og'zaki adabiyoti durdonalari mavjud. Mehnatkash omma tomonidan og'zaki tarzda yaratilib, xalqning iste'dodli vakillari ijrosida sayqal topib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan badiiy asarlar o'zbek xalq poyetik ijodini tashkil etadi.

So'z san'ati bilan xalq og'zaki ijodining o'zaro ta'siri va munosabati xususida so'z borganda, san'atkorning folklor asarlariga ko'r-ko'rona ergashmasligi, ularga taqlid qilmay, o'z ijodiy niyati, uslubi, qarashi jihatidan yondashishi ko'zda tutiladi. Folklor haqidagi fan – **folklorshunoslik** bo'lib, og'zaki so'z san'atining o'ziga xos xususiyatlari, folkloarning paydo bo'lishi, shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari, ijtimoiy tabiatni va g'oyaviy mohiyati, shuningdek, janrlar spesifikasi kabi masalalaridan bahs yuritadi. Folklorshunoslik sosiologiya, etnografiya, til, tarix, arxeologiya, san'atshunoslik, musiqashunoslik va boshqa fanlar bilan aloqadorlikda ish ko'radi.

Chunki folklor sinkretik so'z san'ati sifatida san'atning barcha turlari bilan chambarchas bog'langan.

Folklorshunoslik fani uch tarmoqdan tarkib topgan holda shakllangan:

xalq ijodiyoti namunalarini to'plash;

xalq og'zaki ijodiyoti bo'yicha to'plangan namunalarini nashr etish;

xalq og'zaki badiiy ijodini tadqiq qilish.

Folklor asarlari xalq urf-odatlari, rasm-rusumlarini chuqur aks ettiradi. Bu jihatdan, ayniqsa, marosim folklori namunalari alohida ajralib turadi. Ana shu jarayonlarni tadqiq etishda folklorshunos etnografiyaga tayanadi. Aks holda, uning tadqiqoti biryoqlama bo‘lib qoladi.

Bundan ma’lum bo‘ladiki, ilmiy jamoatchilik tomonidan folklor maktabi rivojlanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Folkloرنi o‘rganish tarixi unga nisbatan faqat ilmiy maqsadlarda yondashilganlikni kuzatish bilan cheklanmaydi, balki insoniyat tafakkuri taraqqiyotida unga turlicha munosabatda bo‘lgan ilm-fan va madaniyat arboblarining adabiy qiziqishlarini ham hisobga olishni taqozo etadi. Shu ma’noda, folklorshunoslik asoslari qadimgi dunyo estetik tafakkuriga borib taqaladi.

Folklor namunalarini yozib olishdagi dastlabki tajribalar XI asrdan boshlab ko‘zga tashlanadi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” asaridagi xalq og‘zaki ijodi namunalari buning yorqin misolidir. XI asrning mashhur tilshunos olimi Mahmud Koshg‘ariy turkiy so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini izohlash maqsadida qo‘shiq, maqol, afsona kabi folklor namunalaridan ham foydalangan. Unda XI asr og‘zaki adabiyoti namunalari bilan birga eng qadimgi davrlarda, hatto, eramizdan oldingi zamonlarda yaratilgan, asrdan asrga, avloddan avlodga ko‘chib yurgan ko‘plab xalq maqollari, rang-barang qo‘shiqlar, afsona va naqllar to‘planib izohlanganki, bu asar muallifining faqat tilshunos olim bo‘lib qolmasdan, balki o‘z davrining adabiyotshunosi, etnografi va folklorshunosi bo‘lganligidan ham dalolat beradi.

O‘zbek folkloridan ayrim namunalarini dastlab yozib oluvchi, tekshiruvchi va nashr etuvchilar XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning bosqlarida yashagan Yevropa sayyohlari, elchilar va olimlari bo‘ldilar. A.A.Kushakevich, N.Lyapunova, A.Vasilev, A.N.Samoylovich kabi olimlarning kundaliklari va asarlarida o‘zbek xalqining maishiy turmushi, urf-odatlari, og‘zaki ijodi bo‘yicha muhim qaydlar uchraydi. Chunonchi, xalq qo‘shiqlari, masxarabozlik, qiziqchilik san’ati, xalq sayillari haqidagi taassurotlari bayon qilingan, ba’zi og‘zaki drama, ayrim ertaklarning tafsilotlari berilgan.

O‘zbek xalq ertaklari, topishmoqlari, maqol va matallari

hamda og‘zaki teatr namunalarini to‘plash va nashr etishda N.P.Ostromovning faoliyati salmoqlidir. U aslida missionerlik maqsadlarini ko‘zlagan bo‘lsa-da, bu sohadagi ishlari obektiv ravishda o‘zbek folklorini o‘rganishga muhim hissa bo‘lib qo‘sildi. Xuddi shu davrlardan boshlab o‘zbek folklorining ayrim namunalari dunyo miqyosida ham tanila boshladи. Bunda mojar (venger) olimi va sayyohi H.Vamberining xizmatlari kattadir.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plash va tadqiq qilish ishlari, asosan, XX asrning 20-yillardan boshlab jonlandi.

O‘zbek bilim hay’atining topshirig‘i bilan Toshkent, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida xalq ijodi yuzasidan kuzatishlar olib borgan G‘ozi Olim Yunusov 1922-yillarda shu joyda tarqalgan ko‘plab ertak, qo‘sish, topishmoq va maqollarni to‘pladi. Eposshunoslik tarixida birinchi marta Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li Hamroqul baxshidan “Alpomish” dostonining bir qismini yozib oldi. Olim o‘z kuzatishlarining natijasini umumlashtirib maqola yozdi va unda o‘zbek eposining yuksak namunalari: “Alpomish” “Go‘ro‘g‘li”, “Yusuf va Axmad” kabi dostonlar haqida ilk bor fikr yuritildi. Shu narsa diqqatga sazovorki, tadqiqotchi “Alpomish” dostonini jahon adabiyotida muhim o‘rin tutgan mashhur “Odisseya”, “Iliada” kabi eoslarga qiyoslab o‘rganadi.

Yigirmanchi yillarning oxiriga kelib xalq san’atining turli tomonlarini tekshiruvchi tadqiqotlar yuzaga kela boshladiki, bu o‘zbek folklorshunosligi o‘z ilmiy yo‘nalishiga ega bo‘lib, uning asosi yaratilganligidan dalolat berardi. Bu asosning yaratilishida, ayniqsa, taniqli folklorshunos Hodi Zarifovning xizmatlari salmoqli bo‘ldi.

O‘ttizinchi yillargacha qator maqolalari bilan tanilgan H.Zarifov 1939-yilda oliy o‘quv yurtlari uchun “O‘zbek folklori” qo‘llanmasini yaratdi. Mazkur o‘quv majmuasi olimning chuqur izlanishlari, muhim ilmiy xulosalari natijasida yuzaga keldi. O‘ttizinchi yillarda o‘zbek folklorshunosligiga Mansur Afzalov, Sharifa Abdullayeva, Miyonbuzruk Solihov, Yusuf Sultonovlar kirib kelishdi. G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Shokir Sulaymon, Sharif Rizo kabi yozuvchi va shoirlar ham folklor bilan shug‘llandilar. Mansur Afzalov (1910-1973) atoqli o‘zbek shoiri Islom Nazar o‘g‘li repertuarini, ijodini qunt bilan o‘rgandi.

Dostonchi ijodi haqida ko‘plab maqolalar e’lon qildi. Undan “Orzигul” dostonini yozib olib, uni 1941-yilda nashr ettirdi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodini to‘plash va o‘rganishda sezilarli yutuqlar qo‘lga kirtilgan bo‘lsa-da, bu yutuqlarni umumlashtiruvchi monografik tadqiqotlar yaratilmagan edi. 1947-yilda akademik V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar hamkorligida yaratilgan “O‘zbek xalq qahramonlik eposi” kitobi mana shu ehtiyojlar tufayli yuzaga keldi. Ushbu monumental tadqiqotda birinchi marta o‘zbek xalq dostonlari ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil qilindi. Bu kitobning yaratilishi o‘zbek folklorshunosligida muhim voqyea bo‘ldi. Keyinchalik mazkur kitob o‘zbek xalq dostonlari haqida yangi-yangi tadqiqotlarning yuzaga kelishida asosiy manba bo‘lib xizmat qildi.

“O‘zbek xalq qahramonlik eposi” kitobining birinchi bobida o‘zbek xalq dostonlari va baxshichilik san’atining o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot berilgan. Asarning ikkinchi bobida o‘zbek xalq dostonlari janr xususiyatiga ko‘ra qahramonlik, romanik, jangnoma, tarixiy va kitobiy kabi turlarga ajratib tasnif qilingan. Uchinchi bobda esa xalq dostonlarining g‘oyaviy mazmuni, obrazlari, poyetik xususiyatlari tahlil etilgan. Dostonlarning yaratilish davri haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

Kitobning so‘nggi bobi keyingi davrlarda yaratilgan yangi dostonlar tahliliga qaratilgan. “O‘zbek xalq qahramonlik eposi” kitobi 1958-yilda Germaniyada nemis tilida nashr etildi. Bu monumental tadqiqotning yaratilishi bilan o‘zbek folklorshunosligida, xususan, xalq dostonlarini o‘rganishda yangi bosqich boshlandi.

O‘zbek folklorshunosligi taraqqiyotidagi muhim yutuqlardan biri shundaki, folklor asarlarini ilmiy tadqiq qilish va nashr etishda samarali natijalarga erishildi. 1964-yildan boshlab “O‘zbek xalq ijodi” ko‘p tomligini nashr etishga kirishildi. Hozirgacha xalq og‘zaki ijodining doston, ertak, qo‘sniq, maqol va boshqa janrlariga kiruvchi ko‘plab to‘plamlar bosilib chiqdi.

Ajdodlarimiz og‘zaki ijodini o‘rganishdagi zarur ishlardan biri “O‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar” seriyasining yuzaga kelishi bo‘ldi. “Ergash shoир va uning dostonchilikda tutgan o‘rni” (1971), “Fozil shoир” (1973), “Po‘lkan shoир” (1976), “Islom shoир va uning xalq poyeziyasida tutgan o‘rni” (1978) kabi davomli tadqiqotlarda xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlari,

atoqli baxshi-shoirlarning hayoti va ijodi, repertuari kabi masalalar o‘rganildi. Shuningdek, “O‘zbek folklorining epik janrlari” (1981), “O‘zbek folklori ocherklari” (1988-1990) uch tomligi yaratildiki, umumlashtiruvchi xarakterdagi ushbu tadqiqotlarda xalq og‘zaki ijodi janrlariga xos xususiyatlar, ularning taraqqiyot bosqichlari kabi masalalar chuqur ilmiy asosda yoritildi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda xalqning azaliy orzusi bo‘lgan mustaqillikka erishilgach, turli sohalarda bo‘lganidek folklorshunoslikda ham yangi davr boshlandi.

Ma’naviyatimiz va madaniyatimiz tarixini chuqur o‘rganib, targ‘ib qilish, kishilarni xalqparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida ulardan foydalanish, madaniy yodgorliklarni tiklash, tarixiy obidalarni asrash, milliy urf-odatlarni, xalq og‘zaki ijodini keng miqyosda obektiv o‘rganish va ularning namunalarini to‘plash, hozirgi kunda yaratilayotgan moddiy va ma’naviy mulkni kelajak avlodlarga to‘la etkazish uchun barcha zarur choralarни ko‘rish, yosh iste’dodlarning kamol topishiga har tomonlama ko‘maklashish ana shu vazifalar sirasiga kiradi. Mana shu nuqtayi nazardan qaraganda, istiqlol yillarida milliy qadriyatlarimizning ajralmas bir qismi bo‘lgan xalq ijodini o‘rganish va targ‘ib qilish uchun ham keng imkoniyatlar yaratildi.

Og‘zaki adabiyot xalq og‘zaki badiiy ijodi yoki “folklor” deb yuritiladi. “Folklo” termini birinchi marta XIX asr tadqiqotchisi

Vilyam Toms tomonidan 1846-yilda qo‘llangan. Inglizcha *folk – xalq, lore – bilim, donolik donishmandlik*, ya’ni “xalq bilimi”, “xalq donoligi”, “xalq donishmandligi” demakdir. Folklor – **sinkretik** xususiyatga ega bo‘lib, xilma-xil san’at turlariga xos elementlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Uning ba’zi namunalari so‘z va kuy uyg‘unligida ijro etiladi. Doston va termalarni do‘mbira jo‘rligida kuylash an’anaviy bo‘lsa, qo‘shiq dutor va childirma jo‘rligida kuylanadi.

O‘lkamiz mustaqillikka erishganidan keyin xalq og‘zaki ijodiyotiga bo‘lgan qiziqish kuchaydi va bu narsa folklorni o‘rgatuvchi, xalq og‘zaki badiiy ijodi bo‘yicha dars beruvchi, folklor san’ati bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar oldiga ham dolzarb vazifalarni qo‘ydi. Ayniqsa, an’anaviy folklorni tadqiq yetish, uning qadimiy uzvlarini tiklash, nodir ijro yo‘llari, folklor janrlari va ularning badiiyati haqida

darslik, o‘quv qo‘llanmalari va dasturlar yaratish folklorshunoslikning kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalaridan biriga aylandi.

Ajdodlarimizning ko‘p asrlik badiiy tafakkur durdonalarini beba ho milliy qadriyatlar tizimi sifatida saqlab qolish, targ‘ib va tadqiq etish, uning eng nodir namunalarini keng ommalashtirishda folklorshunoslik fanining xizmatlari benihoya kattadir. Asrlar davomida xalqimizni yuksak ma’naviy komillik ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadga xizmat qilib kelgan ana shu badiiy qadriyatlarni to‘plash, folklor asarlarini arxivlashtirish, uning eng yaxshi namunalarini nashr etish, ilmiy o‘rganish va ommalashtirish folklorshunoslikning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Folklor asarlarida musiqa, raqs, teatr san’ati elementlari qo‘silib ketadi, shu sababdan folklor sinkretik san’at deyiladi. Ayni vaqtida, folklor asarlari san’atning boshqa turlaridan o‘ziga xos tomonlari bilan farq qiladi. Folkorda so‘z, kuy va ijro birligi doimo saqlanadi. Xalq og‘zaki ijodi uzoq davrlardan beri tarixning yo‘ldoshi, uning chinakam aks sadosi bo‘lib kelgan.

O‘zbek folklorshunosligining yetakchi ilmiy maktablari va ularning asosiy nazariyalari, folklorni o‘rganishning asosiy metodlari to‘g‘risida ham mufassal ma’lumot beriladi. Chunki o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodini o‘rganuvchi mutaxassis folklorshunoslik tarixida “Fin maktabi”, “Mifologik maktab”, “Tarixiy maktab”, “Antropologik maktab”, “Ritual-mifologik maktab” kabi nomlar bilan atalgan ilmiy maktablarning izlanishlari va ular tomonidan yaratilgan ilmiy-nazariy konsepsiyalarning xalq ijodini tadqiq etishdagi ahamiyatini yaxshi bilishi, ularning filologik tadqiqotlar tizimida tutgan o‘rniga to‘g‘ri baho bera bilishi lozim.

O‘zbek folklori xilma-xil janrlardan tarkib topgan behad qadimiy so‘z san’ati bo‘lib, unda o‘tmishda yashagan ajdodlarimizning turish-turmushi, dunyoqarashi va e’tiqodi, kurash va mag‘lubiyatlari ifodalangan. V.M.Miller xalq ijodiyotiga “xalqshunoslikning tarkibiy qismi”² sifatida qarab, uning xalq rasm-rusumlarini ifodalagan etnografik mohiyatini ta’kidlaydi. Folkloarning betakror so‘z san’ati sifatidagi mohiyati xalq turmushini ifodalaganligi tufayli etnografiya

² Миллер В.Ф. Лекции по истории русской народной словесности. М., –1911.

bilan, xalq ruhiyati va e'tiqodiy qarashlarini aks ettirib ruhshunoslik va din tarixi bilan, xalq axloqiy qarashlarini ifodalab tarbiyashunoslik bilan, musiqa, raqs va harakatlarga omuxtaligi bois san'atshunoslik bilan va, nihoyat, jonli so'zlashuv tilida yaratilganligi sababli tilshunoslik fanlari bilan singishganligida namoyon bo'ladi.

Folkorda an'anaviylik o'ziga xos xususiyatlardan bo'lib, uning g'oyaviy – estetik mohiyatini belgilaydi. An'anaviylik xalq ijodida u yoki bu asar matnining og'izdan og'izga o'tishi jarayonida nisbatan barqarorliknigina anglatib qolmay, balki o'sha asarning avloddan avlodga o'tish jarayonida dastlabki ijrosiga xos xususiyatlarni, quyi va shaklini, ifodaviy vositalari va qahramonlarini nisbatan o'zgarmagan holda saqlab qolganligini ham anglatadi.

Xalq ijodiyotida an'anaviylik g'oyaviy-badiiy mazmunda keng ko'lamga ega. Zero, mavzu mohiyatiga ko'ra uning barcha tur va janrlaridagi namunalarida Vatan, xalq va mehnatni ulug'lash, adolasizlikka nafrat bilan qarash, do'stlik va birodarlikni qadrlash, chin insoniy muhabbatni sharaflash mushtarak an'anaviy motivlardir. Shuningdek, an'anaviylik folklorning har bir turi va janrining kompozision tarkibiga xos unsurlar umumiyligini ham namoyon etadi. Aytaylik, qo'shiq janri tabiatiga daxldor an'anaviy unsurlarning hammasi ham doston janri tabiatiga to'g'ri kelavermaydi. Dostonlargagina xos an'anaviy epik ko'lamdorlik, epik qoliplar, umumiy tipik o'rinalar va boshqalar qo'shiqlarda uchramaydi. Lekin bular xalq eposi uchun an'anaviy unsurlar sanaladi. Yoki xalq eposini an'anaviy boshlanma va tugallanma, otni egarlash va ta'riflash, otda bahodirona chopish, janglar tasviri, safarga otlangan qahramonga nasihat qilish, jangga kirish oldidan o'zini maqtashi, sevishganlar uchrashadigan chorborg'lar tavsifi, malikalar, kanizaklar, ko'sa va maston kampirlar tasvirisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bularsiz dostonlarda an'anaviy sujet qurilmasini tasavvur qilish qiyin.

An'anaviylik folklorninggina emas, balki xalq musiqasi, raqsi va amaliy san'atining ham o'ziga hos belgisi sanaladi.

An'anaviylik o'zining ijtimoiy-tarixiy manbalariga ega. Chunonchi, folkoring ilk namunalari ibridoiy jamiyatda yaratilgan, ularda o'sha zamon kishilarining nisbatan qaror topgan urf-odatlari va hayotga oid qarashlari aks etgan. Bu hol folklor asarlari shakli, obrazlari va motivlari muayyan barqarorlik kasb yetishini

ta'minlagan. Folklor asarlari jonli ijro jarayonidagina yashaydi. Uning ayrim janrlarida so'z va kuy omuxtaligi yetakchi bo'lsa, ayrimlarida sahna san'ati unsurlari ustun turadi. Bu hol folklor asarlariga qorishiqlik (sinkretiklik) xususiyatini baxsh etgan. Folklor namunalari ijrosi xilma-xil san'at turlariga xos unsurlarni o'zida mujassamlashtirgan. Uning talay namunalari so'z va kuy uyg'unligida ijro etiladi. Chunonchi, doston va termalarni do'mbira jo'rлигida kuylash an'anaviy bo'lsa, qo'shiq dutor, chidirma jo'rлигida kuylanadi. Aksariyat folklor asarlarida so'z yetakchi o'rinni ega llaydi. Ertak, afsona, naql, rivoyat, latifa, maqol va topishmoq janrlari shunday xarakterga ega. Xalq ertak larida, xalq dramasida harakat va mimika muhim qiymat kasb etadi. Biroq ko'pgina asarlar ijrosida kuy g'oyaviy-badiiy mazmunni ifodalashda bir qadar qiymat kasb yesa-da, baribir so'z mazmunini ochuvchi asosiy vosita bo'lib qolaveradi. Bu folkloarning so'z san'ati sifatidagi mohiyatini to'la-to'kis tasdiqlaydi.

Xalq – folkloarning ijodkori. Folklor qabila, urug‘, elat, xalq yoki millatning masifikasi va ruhiyatini aks ettiradi. Uning paydo bo'lishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ibtidoiy jamiyatda folklor hayot bilan mustaqil kurash vositasiga aylanib shakllandi. Qoyalardagi tasvirlar, bolta va boshqa mehnat qurollari qadimiy ajdodlarimizning tabiiy tuyg‘ularini shakllantira bordi, hayvonlardan farqli o'laroq, badiiy ijod qilish iqtidorini uyg‘ota boshladi, ulardagи ma'naviy kuchning qo'pol amaliy ehtiyojlar asirligidan qutulishiga ko'maklashdi. Xayolga erk berish zamirida ibtidoiy odamda estetik tuyg‘u shakllana bordi, go'zallikni tushunish va anglash teranlashdi va shular zaminida xalq og'zaki ijodiyotining dastlabki namunalari yuzaga keldi. Mehnat jarayoni, ijtimoiy taraqqiyot tufayli mehnatning turli tarmoqlarga taqsimlanishi esa, o'z navbatida, so'z san'atini ham shaklan, ham mazmunan xilma-xil xarakter kasb etishini ta'minladi.

Jamiyat taraqqiyoti o'zgargan sari ijtimoiy tabaqlanish churqlasha bordi: xalq ikki ijtimoiy guruhgа hukmronlik mavqyeyidagi xo'jayinlar va ularga itoat qilishga mahkum qilingan mehnatkashlar toifalariga bo'lindi. Bu hol manfaatdorlik nuqtayi nazaridan ular o'rtasida ma'lum ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Natijada, folklorda zolimlardan norozilik, zolim kuchlarga nafrat motivlari paydo bo'la boshladi. Mazlum omma hayot haqidagi tushunchalarini, ijtimoiy-

siyosiy, tarixiy-falsafiy, badiiy-estetik, diniy-axloqiy qarashlarini ifoda etish bilan folklor asarlarining g‘oyaviy mazmundorlik jihatidan xalqchilligini ta’minladi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarida aks etgan ijtimoiy-tarixiy voqyealar hamisha oddiy mehnat kishilari – umumxalq manfaatlari nuqtayi nazaridan baholanadi. Folklorda xalq optimizmi yengilmas qudratga ega pafos darajasiga ko‘tarilgan.

Folklor qadimiyligi so‘z san’ati sifatida nafaqat chuqur g‘oyaviyligi, balki yuksak badiiyligi bilan ham ajralib turadi. Unda voqyelikni ifodalashning doston, ertak, maqol qo‘sishiq, topishmoq, afsona, rivoyat va askiya singari xilma-xil janrlari shakllangan.

Folklor asarlari tili – jonli so‘zlashuv tili, shu bilan birga, arxaik ifodalar va dealektizmlar ular uchun norma sanaladi. Bu xususiyati bilan folklor tili adabiy jihatdan sayqallangan badiiy adabiyot tilidan farq qiladi. Folklor tili – muttasil harakatdagi jonli so‘zlashuv tili bo‘lib, hamma zamonlarda ham adabiy tilning boyish manbayi bo‘lib keldi va shunday bo‘lib qoladi.

O‘zbek xalq ijodiyotida ifodaviy-tasviriy vositalarning badiiy adabiyotdan farq qiluvchi o‘ziga xos butun bir tizimi ishlangan. Bu xalq qo‘sishqlaridagi ramziy obrazlar, doimiy sifatlashlar, an‘anaviy qoliplar (klishelar), turg‘un iboralarning farovonligida, folklor asarlari tilida erkalovchi, kichraytiruvchi qo‘sishimchalarning serobligida, ayniqsa, muvoziylik (parallelizm), mubolag‘a va saj’ning behad faol va o‘ziga xos qo‘llanilishida yorqin ko‘rinadi.

Folklor asarini aniq ijodkorga nisbat berib bo‘lmaydi. Ularning yaratilishi paytini ham aniq ko‘rsatishning imkonini yo‘q. Chunki folklor asari uzoq muddatli ijodiy jarayonda og‘izdan og‘izga, avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o‘tib yuzaga keladi va yashaydi. Badiiy adabiyot namunasining muallifi ham, yozilgan vaqtli ham ma’lum bo‘ladi. Folklor asarlari muallifining noaniqligi – anonimligi (grek. anonomis-noma’lum) o‘sha asarning qachonlardir individual ijodkor tomonidan yaratilganligini inkor etmaydi. V.G.Belinskiy aytganidek, folklorda “mashhur nomlar yo‘q, uning muallifi hamisha xalqdir. Uning navqiron xalq yoki qabila ichki va tashqi hayotining jimjimalarsiz va aniq tasvirlangan oddiy va soddagina qo‘sishqlarini kim to‘qiganini hyech kim bilmaydi. Bu qo‘sishiq urug‘dan urug‘ga, avloddan avlodga o‘tadi va vaqtlar o‘tishi

bilan o‘zgarib boradi. Goh uni qisqartirishsa, goh uzaytirishadi, goh yangidan to‘qishadi, goh unga boshqa qo‘sinqni ulashsa, goh unga qo‘sinchcha qilib boshqa bir qo‘sinqni to‘qishadi – shunda qo‘sinqdan doston chiqadi. Faqt xalq unga o‘zini muallif sanay oladi. Adabiyot – boshqa ish, endi xalq emas, balki xalq hayotining turli tomonlarini o‘z aqliy faoliyatlarida aks ettiruvchi alohida shaxslar uning arbobi. Adabiyotda shaxs to‘la huquq bilan maydonga chiqadi va adabiy bosqich hamisha shaxslarning nomi bilan ajralib turadi”.³ Ko‘rinayotirki, folklor asarlari qachonlardir noma’lum shaxs (individ) tomonidan to‘qilsa-da, og‘izdan og‘izga, avloddan avlodga o‘tish jarayonida jamoa (kollektiv) ijodkorligi namunasiga aylanadi, jamoa ijodiy salohiyatidan to‘lishib, mukammallahib, g‘oyaviy-badiiy kamolot kasb eta boradi.

Abdurauf Fitrat bu masalaga o‘z munosabatini bildira turib, og‘zaki va yozma adabiyotlarning o‘zaro tafovutli xususiyatlariga to‘xtalarkan, “buning ayirmasi yozma bo‘lmasligida, yo ega sining ma’lum emasligini”ni ta’kidlab, “har bir doston, maqol, topishmoq, ashula, asosan, bir kishi tomonidan chiqoriladir-da, so‘ngra umumiylashib ketadir”, - deya folklor asari ham individual ijoddan boshlanajagiga, so‘ngra “umumiylashib” jamoa ijodi mahsuliga aylanishiga ishora qiladi. Shu bilan birga, u folkloarning asl mohiyatini xalqona ruhga sug‘orilganligida ko‘radi. Shu ma’noda, folklor betimsol og‘zaki badiiy-ma’naviy boylik ijodkori bo‘lgan xalqning o‘zi haqidagi fandir.

Shuni aytish o‘rinlikni, folklor qadim zamonlarda jamoaning ommaviy ijodi sifatida yuzaga kelgan edi. Ilk namunalarivoq hammabop va ommabop to‘qilgan bo‘lib, uning ijrosiga mo‘ljallangan. O‘sha zamonlarda shaxsiy ijodkor jamoadan hali to‘la-to‘kis ajralib chiqmagan edi. Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarining takomillasha borishi, xalq estetik tafakkurining o‘sishi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi jarayonida davrlar o‘tishi bilan alohida ijrochilar – qo‘sinqchilar, ertakchilar, baxshilar, qissasoz-u qissaxonlar, latifago‘ylar (bazlago‘ylar), hazzollar (hazilkashlar), qiziqchilar, xalfalar o‘z mahoratlari bilan yarqirab ko‘rina boshladilar. Ammo bu talantlar ham jamoa dahosi bilan to‘qilib, og‘izdan og‘izga, avloddan

³ Белинский В.Г. Полн. Собр. Соч. В. 13 томах. – Т. 5, М., 1954. с. – 625

avlodga, ustozdan shogirdga o‘tib kelgan asarlarni kuylar, ijro etar va, albatta, shu jarayonda o‘zidan ham nimanidir qo‘sib, individual mahoratlarini namoyon etar edi. Tilla kampir, Sulton kampir, Jolmon baxshi, Bo‘ron shoир, Jumanbulbul, Josoq, Xonimjon xalfa, Bibi shoira, Ernazar baxshi, Riza baxshi, Suyar baxshi, Amin baxshi, Yo‘ldoshbulbul, Sultonmurod, Qurbonbek, Xidir shoир, Yo‘ldosh shoир, Suyar shoир, Sherna yuzboshi, Mulla Xolnazар, Haybat soqi, Qunduz soqi, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Yergash Jumanbulbul o‘g‘li, Po‘lkan Jonmurod o‘g‘li, Islom Nazar o‘g‘li, Saidmurod Panoh o‘g‘li, Abdulla shoир, Umir Safar o‘g‘li, Nurmon Abduvoy o‘g‘li, Xolyor Abdukarim o‘g‘li, Bola baxshi, Bolta baxshi, Qodir baxshi Rahim o‘g‘li va boshqalar o‘z individual ijrochiliklari tufayli jamoa dahosi bilan yaratilgan asarlarni avloddan avlodga yetkazib keldilar. Ularning ba’zilari esa shu jamoa ijodkorligiga xos an’analarga mustahkam tayangan holda o‘zlari ham ijod eta boshladilar, aniqrog‘i, an’anaviy dostonlar kuychisi darajasida qolib ketmay, baxshilikdan shoirlilik darajasigacha ko‘tarildilar. Folklor – og‘zaki ijod. Og‘zakilik – xalq ijodining yashash va yaratilish tarzi. Chunki u hali yozuv kashf qilinmagan uzoq o‘tmishdagи ajdodlarimiz turish-turmushining, dunyoqarashi va ye’tiqodining, kurashlardagi safari va mag‘lubiyatlarining ifodachisi sifatida yuzaga kelgan. Folklor og‘izdan og‘izga o‘tib yashasa, badiiy adabiyot yozuv vositasida yashaydi. Folklor asari og‘zaki aytiladi (ertak, maqol, topishmoq, rivoyat, afsona, latifa, naql va boshqalar), ijro etiladi (doston, og‘zaki drama, lof, askiya va boshqalar), kuylanadi (qo‘sinq). Badiiy adabiyot esa faqat o‘qiladi, ijrosiga xos xususiyatlar esa folklordan ijodiy o‘zlashtirilgan. Og‘zakilik folkloрning o‘zgarmas shakli bo‘lib, o‘z navbatida, xotirada saqlamoqni, yodlab eslamoqni taqozo etadi. Buning uchun esa kuchli hofiza zaruriyatga aylanadi. O‘zbek baxshi va shoirlari orasida qirqdan ziyod an’anaviy dostonlarni, tag‘in qanchadan qancha termalarni bilgan, kuylagan, yana o‘zi to‘qiganlarning borligi shu an’anaviy ehtiyojning hosilasidir.

Folklor asari og‘izdan og‘izga o‘tishi tufayli shaklan va mazmunan qanaqa o‘zgarishga uchramasin, bu hol uning g‘oyaviy-badiiy, ijtimoiy-estetik qimmatini tushirmaydi. Chunki unda ijodkor xalqning voqyelikka munosabati aks etgan. Folklor asarlarining og‘izdan og‘izga o‘tib, uzoq asrlar davomida yashab kelayotganining

asosiy sababi shunda.

Davrlar o‘tishi bilan ayrim folklor janrlari badiiy tizimida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Jumladan, yangi dostonlarda, garchi an’anaviy dostonchilikka xos, epiklikka, tayyor qoliplarga, motivlarga suyanilsa-da, biroq bular endi an’anaviy dostonlardagidek g‘ayritabiylilik asosida emas, balki hayotiy reallikka, obektivlikka asoslangan holda ifodalanadigan bo‘ldi. An’anaviy dostonlarning ideal qahramonlari g‘ayritabiyy kuchlar madadkorligida harakat qilib g‘alaba qozonsa, yangi dostonlarning qahramonlari real tarixiy shaxslar bo‘lib, ular yangi voqyelikka suyanib harakat qiladi va o‘z maqsadiga erishadi. Bunday farqni an’anaviy dostonlar bilan yangi dostonlar konflikti misolida ham ko‘rish mumkin. Konflikt an’anaviy dostonlarda yakka shaxs manfaati taqozosi, yangi dostonlarda esa omma manfaatlari taqozosi hosilasidir. Binobarin, yangi dostonlar konflikti hayotiy zaminga ega va uning yechimi ham realdir.

Xalq og‘zaki ijodi asarlari sayqal topishida, ko‘pincha yangi namunalar bilan to‘lib borishida oddiy tinglovchilar jamoasining bilvosita ishtirok etishini ham aytib o‘tish foydadan xoli emas. Biz ertakchi, qo‘shiqchi, doston aytuvchi baxshi, askiyachi va boshqa janr ijrochilarining tabiatan nozik hissiyotga beriluvchi odam bo‘lishlarini unutmasligimiz lozim.

Asarni ijro etish paytida tinglovchilar eshitayotgan san’at namunasiga nihoyatda qiziqish bilan munosabatda bo‘lsalar, ijrochi o‘zi aytayotgan asarga yo‘l-yo‘lakay yangi obrazlarni, yangi lavhalarni kiritib yuboradi. Bunday ehtirosli damlarda yangi asar namunasining rejasi tuziladi. Natijada, oddiy tinglovchi bo‘lib o‘tirgan xalq o‘zi bilmagan holda yangi asarning paydo bo‘lishiga yoki juda bo‘limganda, avvaldan an’anaviy tarzda aytib kelingan asarga muhim o‘zgarishlar kiritilishiga hissa qo‘shadi. Shunday qilib, xalq og‘zaki ijodining paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishida umumxalq vakillari ijodkor yoki ehtirosli tinglovchi sifatida jamoa bo‘lib ishtirok etadilar. Demak, xalq og‘zaki ijodidagi jamoalik xususiyati deganda, asar yaratilishida jamoaning ishtirokini aynan sodda tarzda emas, nisbiy tushunmog‘imiz ma’qul bo‘ladi.

Variantlilik va versiyalilik. Bir asarning sujet va kompo-zisiyasida muhim o‘zgarishlar bilan bir necha nusxalarga ega bo‘lishi xalq og‘zaki ijodidagi variantlilik xususiyatini hosil qiladi. Avvalgi

mavvzularni bayon qilishda biz og‘zaki ijod namunasiga ijrochi o‘z dunyoqarashini, ijod usulini, kasb-kori xususiyatlarini singdirishi haqida ma’lumot bergen edik. Bir asarni yoshi, yashash sharoiti, kasbi, tabiat, fe’l-atvori turlichcha bo‘lgan odam ijro qilganida, shubhasiz, ijro etilayotgan asarda muhim, nomuhim o‘zgarishlar bo‘ladi. Jumladan, bir ijrochi qahramonlik voqyealarini mukammalroq aytadi. Ikkinci ijrochi ishq-muhabbat, sevgi lavhalarni ehtiros bilan ta’sirli qilib aytadi. Shuning ta’sirida bir asardagi qahramonlik, jasorat-mardlik bilan bog‘liq qismlar mukammallik kasb etadi. Boshqa ijrochida esa aynan shu qismlar qisqaradi, ammo ishq-muxabbat lavhalari atroficha, tafsilotlar bilan bayon etiladi. Folklorshunoslar mashhur “Alpomish” dostonining o‘ttizdan ortiq variantlari borligini qayd etganlar. Qo‘srimcha ravishda aytish mumkinki, ba’zan bir ijrochining o‘zi kayfiyatning xaddan tashqari yaxshiligi yoki o‘ta yomonligi ham yangi variantni vujudga keltirib qo‘yishi mumkin. “Alpomish” dostonini Fozil Yo‘Idosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Po‘lkan Jonmurod o‘g‘li va boshqa o‘nlab baxshi-shoirlar ijro etganlar. Har bir ijroda baxshining bayon usuli, fe’li, hayot tajribasi o‘z izini qoldirgan. Shuning uchun “Alpomish” dostonining Fozil Yo‘Idosh o‘g‘li varianti, “Alpomish” dostonining Ergash Jumanbulbul o‘g‘li varianti degan tushunchalar vujudga kelgan.

Ko‘rinib turibdiki, xalq og‘zaki ijodidagi variantlilik bilan yozma ijoddagi variantlilik ma’no jihatdan farq qilmasa ham, amaliy jihatdan katta farqqa ega.

Versiyalik og‘zaki ijodda variantlilikdan kengroq tushuncha hisoblanadi. Agar variantlilikda obrazlar tavsifi, voqyealar tizimi, bayon usuli boshqacharoq ko‘rinishga ega bo‘lsa, versiyada asarlarning nomi ham, voqyealarning rivoji ham keskin farqlanadi. Jumladan, folklorshunoslikda “Alpomish” dostonining to‘rtta versiyasi qayd etilgan bo‘lib, ular: qo‘ng‘iroq, o‘g‘iz, qipchoq, oltoy versiyalari nomi bilan yuritiladi. Bu versiyalar faqat ayrim umumiy voqyealar bayoni bilangina “Alpomish” dostonini eslatadi, xolos. Shuningdek, “Tohir va Zuhra” dostonining qozoq xalqida “Qo‘zi Ko‘rpesh va Bayan Sulu” versiyasi mavjud.

Xalq badiiy tafakkuri hali ilk bosqichida dunyonni tabiat hodisalari, kuchlariga binoan anglashga, idrok etishga moyil va qodir edi. Bu hol o‘sha real hodisalarini ajabtovur mo‘jizaviylik yoki sehrlik

fonida tasavvur qilishga olib keldi. Natijada, xalq badiiy tafakkurida reallik fantastikaga yo‘g‘rilab ko‘rina boshladi. Shu tariqa folklorlarda shartlilik – fantastika va hayotiylik – reallik o‘zaro singishib, tipik holga aylanib bordi. Fantastika va romanika mehnat ahliga o‘z xayoli-o‘ylarida yorqin kelajakni yaratish imkonini bergen: manzildan manzilga tezroq borish istagi – uchar gilam, G‘irot, Boychibor, Semurg‘larni, dushmandan qasos olish istagi – urto‘qmoq, bir sermaganda qirq gaz cho‘ziladigan keskir qilichni, ichi qovoqariga to‘la tarvuzni jahon ayvonidagi voqyealardan voqif bo‘lish istagi – oynayi jahonnamoni, hayot ishqini bilan yashash istagi – insonni yashartiruvchi yoki har qanday xastaliklardan xalos etuvchi obi hayot, sehrli olma va hokazolarni yaratganki, kishilik jamiyatining hozirgi bosqichida qachonlardir sehrlilik timsoli bo‘lgan bu obratzlar tezuchar samolyotlar, tezyurar avtomobillar, avtomat, minomyot, kashtalar, televizor va hayotbaxsh detallar tarzida reallashdi.

Folklordagi bir qator janrlarda, jumladan, maishiy-hayotiy ertaklarda, tarixiy va lirik qo‘shiqlarda voqyelik ham, qahramon ham real ifodalananadi. Bu, shubhasiz, xalq onginig mifologik tasavvurlardan qutula borib, o‘z - o‘zini anglashi ancha chuqurlashgan, oilaviy va ijtimoiy turmush tarzidagi o‘zgarishlarni teranroq idrok eta borishi tufayli nisbatan keyinroq sodir bo‘lgan hodisadir.

Folklor asarlarini o‘qitishning pedagogik-psixologik va janriy xususiyatlari

Bashariyatning eng qadimiy tafakkuriy madaniy-ma’rifiy jarayonlarini aniqlashda eng avvalo turkiy dostonchilikning ildizlariga diqqat-e’tiborni qaratish lozim bo‘ladi. Bu nihoyatda qiziq va g‘aroyibdir. Turkiy dostonchilik jahon xalqlari eposlari singari o‘zining yuksak g‘oyaviyligi, badiiy kamoloti bilan alohida o‘rin tutadi. Doston epik ijodiyotning juda qadimiy turi sifatida barcha xalqlar og‘zaki adabiyotida mavjud. Uning yuzaga kelishi ko‘p xalqlar hayotidagi epik- qahramonlik davriga borib taqaladi. Albatta, dostonlarning yuzaga kelishidan oldin katta epik asarlar, ya’ni epos yaratilgan. Demak, qadimiylik barcha xalqlar eposlari uchun tipologik hodisa bo‘lib, uning yaratilishi xalqining boshidan kechirgan muayyan

iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlar, uning tarixidagi voqyealarning bosqichlari bilan bog‘liqidir. Folklor ilmning bilimdoni, o‘zbek xalq og‘zaki ijodining asoschilari V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar o‘zlarining tadqiqotlarida turkiy xalqlarning eposlari va dostonlari haqida juda qimmatli, shuningdek kelajak avlodga ibrat bo‘ladigan o‘zlarining fikrlarini yozib qoldirganlar. Ayniqsa, bu tadqiqotlar ularning juda katta, monumental asarlari “Tyurkskiy geroicheskiy epos”⁴ va “Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos”⁵ hamda boshqa asarlarida o‘z ifodasini topgan. Albatta, biz mana shu asarlarga tayangan holda ushbu kitobimizda bu qimmatli fikrlarni berish asnosida o‘z qarashlarimizni ham bayon etishga harakat qilamiz.

Demak, epos qadimiyatning ulkan ehsoni, o‘zi yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda, jonli an’anaviy ijod va ijo shoroitlarida davrlararo xalq ruhining obektiv holatini ifodalab, mazmun va shakl jihatidan goh ko‘lamlashib, goh siqiq tarzda avlodlarga yetib kelgan buyuk obidadir. Har bir xalq milliy tarixinin afsonalar qobig‘iga o‘ralgan qahramonlik voqyealari xalq dostonlarining yaratilishi uchun boy material berdi. Epik dostonning asosi shartlaridan biri uning xalqchilligidir: shoirning o‘zi ham voqyeaga o‘z xalqining ko‘zлari bilan qaraydi, voqyeadan o‘z shaxsini ayirmaydi.

“Doston xalq xayotini obyektiv-bayoniylar xarakterda tasvirlovchi keng ko‘lamli, ko‘p tarmoqli asardir”. Unda o‘tmishdagi ulkan burilishlar, keskin o‘zgarishlar aks etadi. “Eposning asosi mundarijasini voqyea, dunyoning umumiy ahvolini tubdan o‘zgartiruvchi tarixiy konkret voqyea tashkil etadi. Bu shunchaki odatdagisi voqyea emas, balki tarixda misli ko‘rilmagan, davr qiyofasini uzoq yillarga o‘zgartiruvchi ulkan voqyea. Eposga asos qilib olinadigan bunday voqyealar jumlasiga, odatda, urushlar, xalqlar orasidagi jangu-jadallar kiradi. Tasvirga olingan voqyeaning faqat ko‘lamdorligi emas, balki badiiy-tasviriy vosita va usullarning sistematasi, mubolag‘a va tashbihlar, tafsilotli tasvirlar, xodisa va manzaralarning sokin va tantanavor oqimi ham eposda ulug‘vorlik va dunyoviy qamrov taassurotini tug‘diradi”.

⁴ Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. Л., 1974

⁵ Жирмунский В.М. Узбекский народный героический эпос. М., 1947

Ana shu ulug‘vorlik va dunyoviy qamrov har bir lavxasida, epik ohang va bo‘yoqlarida, boy tasviriy vositalarida, uziga xos ijodkorlik va ijrochilik san’atida barq urch turgan o‘zbek xalq dostonlari turkiy xalqlar arxaik folklori zaminida yuzaga keldi va qadimiy milliy tariximizning, ulkan moddiy hamda ma’naviy madaniyat ijodkori bulgan jonajon xalqimiz ruhiyatining, orzu-umidlarining, ishonch-e’tiqodlarining o‘ziga xos badiiy ifodasi bo‘ldi, uni yaratilishi xalqimizning ma’naviy-maishiy qiyofasi, ijtimoy-siyosiy kurashlari, ahloqiy-yestetik qarashlari,adolat va xaqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi ideallari bilan mahkam bog‘liqdir, asriy kurashlar va ideallar uning mavzusi, g‘oyaviy mazmuniy, obrazlar sistemasi, syujet va kompozisiyasi mohiyatini belgilaydi. Dostonlarimizdagi ulug‘vor poyetik umumlashma va yuksak badiiy obrazlar ularni dunyo folklorining tengsiz namunalari-rus bilinlari, ukrain dumalari, karelo-fin runlari, yoqt olonxosi, qozoq botirlar jiri, buryat uligerlari, qirg‘iz “Manas”i va qoraqalpoq “Qirq qizi”, hind “Mahabxarata”si qisqasi, G‘arb va Sharqning ulkan eposlari qatoriga qo‘ydi. Bu esa, uning qonuniy vorisi - sovet kishisi qalbida cheksiz milliy iftihor, yuksak internasionalizm tuyg‘ularini yanada jo‘sh urdiradi. Doston so‘zi qissa, hikoya, shonu shuxrat, sarguzasht, ta’rif va maqtov ma’nolarida ishlatiladi. Adabiy termin sifatida bu nom ostida xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotdagi yirik xajmli epik asarlar nazarda tutiladi. Biroq ular hayotni tasvirlash vositalari va usulari jihatidan bir-birlaridan jiddiy farq qiladilar.

Xalq dostonlari juda uzoq kechmishda jonli og‘zaki ijodda yuzaga keladi. Uning ijodiy tarixi yillar bilan emas, balki asrlar bilan o‘lchanadi. Dostonlarning jonli og‘zaki epik an’anada yashashi va tarqalishi, o‘ziga xos ijro sharoitlari davrlararo uning tarkibiga yangi yangi ohang va lavhalarning, motiv va epizodlarning qo‘silib, singib borishiga olib keladi. Bu hol uning janr hususiyatlarini, mazmunan serqatlam va ko‘p variantli bo‘lishini belgilab beradi. Dostonning janr hususiyatlarini belgilaganda, unga ta’rif berganda barcha belgilarini hisobga olish kerak bo‘ladi. Chunki ana shu belgilar majmuidan doston tushunchasi kelib chiqadi.

Tadqiqotchilarning yozishicha, epos o‘tmish zamонлар то‘грисида qahramонлик idealizasiyasi ko‘lamidagi hikoyalar, rivoyatlardir⁶. Akademik V.M.Jirmunskiy ta’rificha: “Doston-bu xalqning qahramонлик idealizasiyasi ko‘lamidagi jonli o‘tmishidir. Uning ilmiy tarixiy qimmati, ayni paytda, juda katta ijtimoiy, madaniy-tarbiyaviy ahamiyati ham shundadir”⁷. Folklorshunos M.Saidovning yozishicha, doston murakkab san’at asari bo‘lib, uni doston bo‘lishi uchun adabiy matn, muzika bo‘lishi, kuylovchi hofizlik san’atini puxta egallagan va soz cherta bilishi zarur. Bu tushunchalarda qanday qarama-qarshilik, ularning nurlari biri ikkinchisini to‘ldiradi. V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlarningning ta’rifida xalq dostonlarining bosh xususiyati, M.Saidov nazarda tutgan adabiy matnning asosiy belgisi, ya’ni dostonlarning mazmunan qahramon xarakteriga ega bo‘lishi va ular afsonaviy bahodirlar, titanlar, ulug‘ shaxslar haqida epik idealizasiya doirasida to‘qilgan rivoyaviy asarlar ekanligi birinchi planga qo‘yilmoqda. Chindan ham qahramонлик dostonlarning tematik xususiyatigina emas, balki ularning janr belgisi hamdir. Turkiy xalq eposi har vaqt xalq hayotidagi qahramonchilik davrini aks ettiradi, faqat o‘z mustaqilligi uchun aktiv kurash olib borgan xalqgina qahramon dostoni yarata oladidir. Shuning uchun ham doston hammavaqt xalqning kuch-qudratini g‘alabaga bo‘lgan irodasini ifodalaydi. Shunday qilib, dostonlar favqulotda kuch-qudratga ega bo‘lgan bahodirlar haqida to‘qilgan ko‘tarinki, tantanavor, qahramonona qo‘shiqdir.

O‘zbek dostoni birinchi tadqiqotchilari V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlarningning ta’rifida doston janrining yana bir muhim hususiyati-uning o‘tmish bilan, xalq tarixi bilan mahkam bog‘liqligi ham o‘ziga xos ravishda hisobga olingan. Chindan ham dostonlarda tarixni xalqona tushunish, uni jonlantirish mavjud. Ularda xalqimiz boshidan kechirgan ijtimoy-siyosiy voqealarning, etnik birlik va mustaqillik uchun olib borgan kurashlarining tarixiy mohiyati badiiy bayon etilgan. Dostonlarda haqiqiy va ideal tarix birlashib, chatishib ketgan va xalqimizning ahloqiy, falsafiy, diniy qarashlari, hayoti,

⁶ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т., Узбекский народный героический эпос. М., 1947, с.303.

⁷ Жирмунский В.М. Народный героический эпос. Л., 1962, с.195

urf-odat va maishati qomusiy tarzda ifodalangandir.

Xalq dostonlarining janriy belgilaridan yana biri shuki, ularda tarixiy voqyelik xalq fantaziysi asosida umumlashgan obrazlarda o‘z ifodasini topadi. Dostonlarda umumlashtirishning o‘ziga xos formasi yepik umumlashirish hukmronlik qiladi. Bunday umumlashirish halqning ijtimoiy adolat haqidagi ideal va orzu-umidlari bilan yo‘g‘rilgandir.

Dostonning janr hususiyatlarini belgilaganda, uni kuylanish uchun mo‘ljallanganligini, kuy va ijro bilan mahkam bog‘liqligini ham hisobga olish zarur. Chunki uning syujet va kompozision qurilishi, barcha tasviriy vositalari, she‘r tuzilishi ana shu sharoitda shakllangan. Baxshidan doston yozib olingach, ijodkorning ijrochilik va hofizlik mahorati, do‘mbiraning jarangdor sasi, epik she‘rni turlituman kombinasiyalarda uyushtira olgan xilma-xil kuylar barham topib, quruq poyetik matn qolgandek, sanalgan holatlar ijro bilan bog‘liq janr tashqi belgilaridek ko‘rinishi mumkin. Aslida esa unday emas. Chunki xuddi mana shu kuylanish va o‘g‘zaki ijro dostonning barcha poyetika elementlarining mohiyatini belgilaydi. Bu mohiyat, avvalo, dostonning tarkibiy qurilishi va barcha tasviriy vositalaring o‘ta an‘anaviyligi bilan xarakterlanadi. Dostonlarda biridan ikkinchisiga ko‘chib yuruvchi doimiy epitet va o‘xshatishlar, muborak va turli xarakterdagi sintaktik konstruksiyalar, qollanish o‘rni va funksiyasiga ayirim o‘zgarishlarga uchrovchi barqaror misralar va epik klishelar mo‘l-ko‘l. Ular poyetik bayonning sokin va tantanavorligini ta‘minlaydi. Kompozision jihatdan olganda, dostonlarda she‘riy qismlar prozaik parchalar bilan almashinib keladi. Qahramonlarning dialog va monologlari, jangu jadallar, safar, kurash, tortishishlar tasviri, tantanali e‘lonlar odatda she‘rda kuylansa, bog‘ va manzaralar tasviri, qahramonlarning portretlari, ichki o‘yin monologlari, she‘rlarni bir-biriga bog‘lovchi matnlari nasrda beriladi. Nasr odada sajlangan bo‘ladi. She‘riy qismlarni esa, asosan 7-8 va 11 hijoli epik xalq she‘ri tashkil etadi.

Xalq dostonlarining janr hususiyatlariga doir yuqorida bayon qilingan barcha belgi va sifatlarni jamlagan xolda shunday xulosaga kelish mumkin: doston xalqimizing tarixan o‘z-o‘zini anglashining buyuk ifodasi sifatida qodimgi davrlarda arxaik folklor zaminida yuzaga kelgan bo‘lib, tarixiy voqyelikni fantaziya asosida

umumlashtirilgan ideal obrazlarda tasvirlovchi, kuy va ijro bilan mahkam bog‘liq bo‘lgan yirik hajmli va keng ko‘lamli asardir; unga epiklik, monumentalilik xos; kompozision va syujet qurishi jihatidan murakkab voqyea va hodisalarni qamrab oladi; bunday voqyea va hodisalar mazmunan qahramonlik xarakteriga ega bo‘lib, ular yakkaxon shaxs-xalq idealidagi bahodir atrofiga birlashtiriladi; favqulotda kuch-qudratga ega bo‘lgan bunday yakka shaxslarda butun bir xalqning imkoniyat va intilishlari mujassamlashgan. Xalq dostonlarining bunday tematik va janri hususiyatlari uning spesefik uslubi va formasini ham yuzaga keltirdi: poyetik bayonga ko‘tarinkilik, tantanavorlik, ko‘lamdorlik, an’anaviylik, she’riy va prozaik qismlarning zanjirdek davomiy almashinib kelishi xos.

O‘zbek xalk dostonlari ko‘p sostavli va ko‘p temali bir ijoddir. U uzoq asrlar davomida yaratilib, turli ijtimoy-iqtisodiy sharoitlarda kuylanib kelindi. Shu tariqa unda turli zamонlar qatlami yuzaga keldi. Bu hol ularning har jihatdan asoslangan ilmiy tasnifini berishni, muayyan turlarga bo‘lib o‘rganishni nihoyatda qiyinlashtiradi. Fanda o‘zbek xalq dostonlarining bir necha tasniflari mavjud. Dastlabki tasnif V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifovlar tomonidan berilan. Ular o‘zbek xalq dostonlarini:

- a) botirlik dostonlari;
- b) jangnomalar;
- v) tarixiy mazmundagi dostonlar;
- d) romanik dostonlar;
- ye) kelib chiqishi adabiy dostonlar;
- e) yangi dostonlar kabi turlarga bulib, “Go‘rog‘li” turkumini alohida oladilar⁸.

Bu birinchi tasnif sifatida keyingi tasniflar uchun asos bo‘ldi. Biroq unda dostonlarning ichki turlari hisobga olinmagan. Aslida “Go‘ro‘g‘li” turkumini romanik dostonlar qatoriga kiritib, uning ayrim namunalarida qahramonlik motivlari ustunligini ko‘rsatish lozim edi.

Keyingi tasniflar orasida M.Saidov tasnifi alohida ajralib turadi. U, dastlab, xalq dostonlarini og‘zaki va kitobiy dostonlar tarzida

⁸ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский героический эпос. Л., 1962, 195-с.

ikkiga bo‘ladi. So‘ngra o‘g‘zaki dostonlarning:

- a) qahramonlik;
- b) jangnoma;
- v) tarixiy;
- d) sof sevgini kuylovchi;
- ye) romanik dostonlar kabi turlarini ko‘rsatadi⁹.

Bu tasnif qator afzalliklariga qaramay, xalq dostonlarini og‘zaki va kitobiy tarzda ikkiga bo‘lish asoslanmaganga o‘xshaydi. Chunki bu yerda “kitobiy” atamashi nihoyatda shartli bo‘lib, ular ham aslida o‘g‘zaki kuylangan va bizgacha og‘zaki yetib kelgan. Asoslarigina yazma adabiy manbaga borib taqaladigan bunday dostonlarni xalq baxshilari shundayligicha olmay, ularni jonli o‘g‘zaki epik an’analarga to‘la ravishda bo‘ysundirdilar. Boshqacha aytganda, kitobiylilik ba‘zi istisnolardan toshqari, asosan bunday dostonlarning manbaidadir, ijro va poyetika elementlarini esa yepik ijodiyotning mustahkam an’analarisiz tasavvur qilish mumkin emas. Biz ham kitobiy dostonlarni alohida tur qilib ko‘rsatganda, ularga asos bo‘lgan manbanigina hisobga oldik, xolos. Aslida esa, bu turdag'i doston namunalari janr e’tibori bilan xarakteriga qarab, yo romanik, yo qahramonlik turga kiradi. Shuningdek, sof sevgi dostonlarini ham alohida tur sifatida olishga hojat yo‘q edi. Ularni romanik dostonlar tarkibida o‘rganish mumkin.

T.Mirzayev va B.Sarimsoqovlar xalq dostonlarining yangi tasnifini taqdim etar ekanlar, har ikki tasniflarning barcha afzalliklarinini hisobga oldilar, ko‘p o‘rinda ularga suyanib, asosan ichki bo‘linishlarga diqqat qildilar. Ularning fikricha, o‘zbek xalq dostonlarini quyidagi turlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir:

- 1.Qahramonlik dostonlari.
2. Jangnoma-dostonlar.
3. Tarixiy dostonlarlar.
4. Romanik dostonlar.
5. Kitobiy dostonlar¹⁰.

⁹ Сайдов М. Ўзбек халқ достончилигида бадий маҳорат масалалари. –Т.:, 1969, 30-32-б.

¹⁰ Саримсоқов Б. Халқ достонларининг таснифи ва оралиқ шакллари масаласи. Ўзбек тили ва адабиёти. 35-б.

Bu mакtab vakillari ko'proq "Orzигul", "Sоhibqiron", "Gulixi-romon" kabi dostonlarni ijro etishgan. Shernazar Beknazar o'g'li, Umir Safar o'g'li, Ahmad baxshi kabi ijodkorlar esa Sherobod dostonchilik mакtabiga mansub san'atkor edilar. Ular ijodida ham Go'ro'g'li turkumi dostonlari alohida o'rin tutadi. Bu mакtab vakillari, ayniqsa, "Malla savdogar", "Ollonazar Olchinbek" dostonlarini badiiy jihatdan mukammal ijro etganlar.

Janubiy Tojikistonda yashovchi Haybat Shamol o'g'li, Qunduz soqi kabilarning nomlari o'zbek baxshilar orasida hurmat bilan tilga olingan. Bu baxshilar ham Go'ro'g'li turkumi dostonlarini o'ziga xos usulda ijro etganlar.

Xorazm dostonchiligi musiqiyligi, dostonni jo'r ovoz bo'lib ijro etilishi, doston ijrosida bir necha musiqa asboblarida jo'r bo'lishi bilan ajralib turadi. Qadimgi sayillarda, to'ylarda 3-4 baxshi chaqirilgan va har bir baxshiga alohida-alohida davra berilgan. Sayil yakunida mohir baxshi atrofidagi odamlar ko'payib, saviyasi past baxshi atrofida hyech kim qolmagan. Bu odat san'atkorning o'z ustida muttasil ish olib borishga va ijro san'atini egallashga majbur qilgan. Undan tashqari, Xorazmda 40 yildan ortiq xonlik qilgan Muhammad Rahimxon (Feruz) har yili baxshi va xonandalarning ko'rigini o'tkazib, shaxsan o'zi ularga doston aytish huquqini bergen. Ijro darajasi zaif baxshini omma o'rtasida doston aytish huquqidан mahrum qilgan. Dostonchilikka bu qadar mas'uliyat bilan yondashish Xorazm dostonchiligi rivojini ta'minlagan. Bu mакtabda Amat baxshi, Bola baxshi (Qurbanazar Abdullayev), Boltavoy baxshi, Qodir sozchi, Murod baxshi, Ro'zimbek baxshi, Otaxon baxshilar ijod qilishgan va "Bozirgon", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Qirq ming", "Oshiq Mahmud" kabi dostonlarni katta konsert dasturini eslatadigan tomosha tarzida ijro etishgan.

Xalq dostonlari yurtimizning turli hududlarida turlicha ijro etilishiga, ijro usullariga, voqyealar sharhiga ko'ra, hatto, bir viloyatning o'zida ayrim-ayrim mакtablarga ega bo'lishidan tashqari mazmuniga ko'ra ham bir necha turlarda tasniflanadi.

Taniqli olimlardan V.M.Jirmunskiy, H.T.Zarifov, M.Saidov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqovlarning kuzatishlaricha, xalq dostonlarini turlarga bo'lishda ko'proq ularning mazmuniga, qahramonlarning fe'l-atvoriga e'tibor qilish ma'qul. Ammo nomlari tilga olingan

olimlarning har biri amalga oshirgan tasnif ma'lum darajada bir-biridan farq qilishiga qaramay, ularni quyidagicha nomlash mumkin:

1. Qahramonlik dostonlari (“Alpomish”).
2. Ishqiy-romanik dostonlar (“Ravshan”, “Kuntug“mish”).
3. Jangnoma dostonlari (“Yakka Ahmad”).
4. Kitobiy dostonlar (“Sayyod va Hamro”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”).
5. Tarixiy dostonlar (“Oysuluv”).

Tasnif qilishning asosi dostonlarda tasvirlangan voqyealarning bosh mohiyati bilan izohlanadi. Masalan, “Alpomish” dostonida ham ishq muhabbat, jang lavhalari, tarixiy ma'lumotlar bor. Ammo ma'lum sabab bilan ajralib ketgan xalqni birlashtirish yo'lidagi mardlik va qahramonlik asarning markaziy g'oyasini tashkil etadi. Yoki “Ravshan” dostonida ham mardlik, qahramonlik belgilari uchraydi. Lekin doston mazmunidagi asosiy fikr Ravshanning Zulkumorga bo'lgan ishqini ifodalash maqsadidagi safarini bayon qilishga bag'ishlanadi.

Qahramonlik eposi xalq og'zaki ijodi tarixida alohida bosqich sifatida baholanadi. Uning mashhur namunasi yunonlarda “Odisseya” va “Iliada” asarlari hisoblanadi. Qirg'iz xalqining “Manas”i ham ana shunday bosqich namunasidir. Bunday asarlarda alohida qahramonlik va mardlik namunasini ko'rsatgan xalq farzandining yurt ozodligi, elni birlashtirish maqsadidagi safarları, o'zidan son va kuch jihatidan yuqori turgan dushman bilan olishuvlari aks etadi. Qahramonlik eposiga o'zbeklarda “Alpomish” dostoni misol bo'ladi. Unda yurtimizdagı milliy an'analarining shakllanishi, tashqi dushmanlarga qarshi kurash, xalq birligini saqlash, mustaqil hayotni muhofaza qilish g'oyalari o'z ifodasini topgan.

Xalqimiz baxshilari repertuaridagi dostonlarning salmoqli qismini romanik dostonlar tashkil qiladi. “Roman” fransuz tilidan olingan bo'lib eposning bir turi ma'nosini anglatgan. Ammo keyinchalik badiiy adabiyotdagi roman janr sifatida alohida ajralib rivojlanganidan so'ng sevgi-sarguzashtlarni to'qima tarzda aks ettiruvchi asarlar tushunchasini bera boshlagan. Romantik dostonlar deganda, xalq dostonlarining mazmunan sevgi - sarguzashtlarni tasvirlovchi turlari tasavvur qilinadi. Ularda voqyea tuguni oshiqning ma'shuqa haqida xabar topishidan boshlanadi. Keyinchalik

qahramon ishq sarguzashtlariga boy safarga otlanadi. Bu yo‘lda turli qiziqarli, hayratomuz hayot lavhalari ro‘y beradi. Dushmanlar bilan yakkama-yakka olishuvlar bo‘ladi. Dostondagi voqyealar rivoji shu tarzda taraqqiy etadi va oxir pirovardida oshiq o‘z orzusiga etadi. “Ravshan”, “Kuntug‘mish” kabilarni ana shunday dostonlar qatoriga qo‘shish mumkin.

Jangnoma dostonlarni esa voqyea rivoji, asosan, jang lavhalariga boy asarlar tashkil etgan. Baxshilar bunday dostonlarni nisbatan kam ijro etganlar. Bunday dostonlarda ko‘proq qahramonning botirligini tasvirlashga e’tibor beriladi.

“Yusuf bilan Ahmad”, “Alibek va Bolibek”, “Qirq ming” kabi asarlar shular jumlasidandir.

Kitobiy dostonlar, asosan, tarixiy hayotimizning keyingi asrlarida paydo bo‘ldi. Yozma adabiyotimiz vakillari tomonidan yaratilgan dostonlardagi qiziqarli va ibratli voqyealar bilan tanishgan baxshilar ular asosida o‘zlarining nusxa (variant)larini yaratganlar. Natijada kitobiy dostonlar yozma va og‘zaki ijodning o‘zaro aloqalari natijasi sifatida vujudga kelgan. Og‘zaki ijoddagi “Sayyod va Hamro”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Vomiq va Uzro” kabi dostonlar ana shu turdagisi asarlar namunasidir.

Tarixda bo‘lib o‘tgan muhim voqyealar haqida hikoya qiluvchi dostonlar tarixiy dostonlar deb ataladi. Bunday asarlarda tarixiy voqyealar tinglovchida shubha uyg‘otmaydigan to‘qimalar yordamida aks ettiriladi. Ammo ularda tarix qanday bo‘lsa, shu tarzda, to‘kis ravishda o‘zgarishsiz bayon etilmaydi. O‘tmishda shuhrat topgan “Oysuluv” ana shunday doston sanaladi.

Shunday qilib, dostonlar xalq og‘zaki ijodidagi epik asarlar xazinasidagi o‘ziga xos murakkab janrdir. Unda xalq tarixiy hayoti, rasm-rusumlari, odatlari, ozodlik uchun olib borgan mashaqqatli kurashlari o‘zining badiiy ifodasini topgan. Dostonlarni kuylayotgan baxshilarda kuchli xotira, asarni ijro etayotgan paytda vujudga kelgan vaziyatga to‘g‘ri baho bera olish, oddiy voqyealarni o‘ta qiziq tarzda hikoya qila bilish mahorati mujassam bo‘lmog‘i lozim. Asrlar davomida bu janr namunalarining har bir hududda ijro etilishi mahalliy an’analarni, hatto, maktablarni yaratdi. O‘zbek dostonlari son jihatdan shu qadar ko‘p va badiiy qimmat jihatdan shunchalar yuqoriki, ularni xalqimiz tomonidan dunyo madaniy, ma’naviy

xazinasiga qo'shilgan munosib hissa sifatida baholasa arziydi.

Janrlar folklor tarixining maxsuli hisoblanadi. Janrlar folklor evolyusiya lahzalari, bosqichma-bosqich uzilishlar va turli xil o'zgarishlarni o'z ichiga olgan murakkab jarayon natijasidir.

Folklor asarlarining janr xususiyatlari va uning tarixi borasida fikr va mulohazalardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, bugungi kunda folklor asarlarini o'qitishning o'ziga xos psixologik xususiyatlari ham mavjuddir. Folklor insongga xissiy psixologik katta ta'sir ko'rsatishi bilan ajiralib turadi. Eng muhimi insonning ruxiy salomatligiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Folklor asarlari insonning emansipasiyasi, o'zini-o'zi aniqlashi, o'z taqdirini o'zi belgilashi va ijtimoiylashuvi, axloqiy me'yorlar hamda xulq-atvor me'yorlarini qabul qilishiga yordam beradi. Folklor asarlarini o'qitish orqali talabalarda xissiy tajribani rivojlantirish mumkin. Ularning xulq-atvorining rivojlanishi xamda o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi.

Xalq og'zaki ijodi orqali barcha psixik jarayonlar rivojlanadi. Ko'p qirrali aqliy faoliyat, voqyeyeylik haqida umumiy bilim, faol shaxsiy pozisiyani rag'batlantirish, ahloqiy jihatlarni tushunish, kishida dunyoqarash va ko'rish, tinglash, eshitish qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi.

Musiqiyy – hayoliy fikrlarshni ya'ni idrok etishni yanada yuksaltiradi. Kishida turli to'qimalarni eshitish va ajiratib olish qobiliyatini yanada rivojlantiradi.

Folklor asarlarini o'qitish orqali talaba yoshlarda ijodiy ishtiyoqqa qiziqishni oshirish, uning adabiyotga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Insonda tassavurni yanada boyitadi. Folklor asarlarini o'qitish natijasida inson tafakkurida tasavvur rivojlanadi uning hayoliyotining rivojiga va o'zining erkin tasavurrini shakllantirishiga xizmat qilishi bilan ajiralib turadi.

Xalq pedagogikasining asosiy vositalari xalq og'zaki ijodi, xalq qo'shiqlari, xalq raqslari va musiqasida ko'rinadi. Buning barchasi folklorda mujassamlashgan. Buning natijasida kelajak avlodga folklor asarlarini tushunarli va o'zgarishlarsiz yetakazib berish zaruriyati mavjuddir. Folklor asarlarining saqlab qolinishi va rivojlanishi millatning, davlatning o'ziligini saqlab qolish imkoniyatini yanada kuchaytiradi.

Shunday ekan, yoshlarning hissiy holatlarini rivojlantirish va

ularning faolliklarini oshirishda folklor asarlarining psixologik imkoniyatlari va pedagogik ahamiyati borasida tadqiqotchi Ye.A.Medvedevaning fikriga ko‘ra “san’at bilan bog‘liq va ontogenezning dastlabki bosqichlarida namoyon bo‘lgan faoliyat insonning madaniyat subyekti sifatida individualligini namoyon etishga yordam beradi”¹¹. Insoniyat tarixi davomida folklor shaxsn shakllantirish tizimida asosiy o‘rnlarni egalab kelgan.

Folklor asarları orasıda xalq og‘zaki ijodi va musiqa san’atining roli insonga psixofiziologik jihatdan metabolizmni follashtirish, qonning daqiqali xajmiga, yurak urishining tezligiga, qon bosimiga sezilarни ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘rish, eshitish va boshqa reseptorlarning faollahishiga hamda tananing fiziologik, biologik ritmlarini o‘zgarishi va reaksiyalarni oshirishga olib keladi. Folklor asarlarini o‘rganish psixologik jihatdan va inson salomatligiga ham o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Kichik tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, folklor asarlarini o‘rganish shaxsning hissiy rivojlanishiga, hissiy sezgirlik va idrokning rolini oshishiga, tinglovchida his tuyg‘ular, fikrlar va hissiy intelektual, insonning ruhiy holatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Folklor asarlarini o‘rganish orqali insonda quyidagi holatlarda o‘zgarish bo‘ladi:

Birinchi navbatda, aqliy faoliyat faollishadi

Ikkinci navbatda, intelektual va ijodiy faoliyat optimallashadi

Uchinchi navbatda, diqqatni jamlashga yordam beradi

To‘rtinchi navbatda, qisqa muddatli hotirani yaxshilaydi

Beshinchi navbatda, og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan aql ko‘rsatkichlarini oshiradi

Oltinchi navbatda, tasavvurni rag‘batlantiradi

Yetinchi navbatda, inson xatti-harakatlarini o‘zgartiradi.

Inson psixologiyasining o‘zgarishi va uning rivojlanishiga faolklor asarlarining ijobiy ta’siri doirasida N.V.Shutova o‘zining tadqiqotlarida bolalik davrida aqliy tuzilmalar rivojlanishining notekisligi va plastikligini hisobga olgan holda folklor asarlarining

¹¹ Медведева, Елена Алексеевна Артпедагогика и арттерапия в специальном и инклюзивном образовании : учебник для вузов / Е. А. Медведева [и др.] ; под редакцией Е. А. Медведевой. 2-е изд., испр. и доп. Электрон. дан. Москва : Юрайт, 2024274 с

muxsus tashkil etgan tarkibiy va dinamik tizimini taklif qiladi. Folklor ta'sirini tuzilishi integrasiyalashgan tizimning iyerarxik darajalari bo'lgan uchsta quyi tizimning o'zaro ta'siri bilan ifodalaydi.

1) psixofiziologik daraja: vizual, eshitish va boshqa reseptorlarning faollashishi, so'ngra tananing fiziologik va biologik ritmlari (qon aylanishi, nafas olish, ichki sekresiya va boshqalar) o'zgaradi.), jismoniy ishslashning oshishi, reaksiyalarning o'zgarishi;

2) psixologik daraja: hissiy va ixtiyoriy sohada o'zgarishlar yuz beradi, shaxsning psixologik faoliyati, uni idrok etish, e'tibor, xotira o'zgaradi;

3) ijtimoiy-shaxsiy daraja: shaxsga ta'sir qiluvchi musiqa unda katartik reaksiyaga sabab bo'ladi, uni o'zgartiradi va uyg'unlashtiradi; dunyoqarash, qadriyatlar tizimi, shaxsga yo'naltirish, xarakter uning ta'siriga tushadi.

Shunday qilib, tadqiqotchi N.V.Shutovaning fikriga ko'ra, umuman olganda, folklor odamga psixofiziologik, psixologik, ijtimoiy-shaxsiy darajada ta'sir qiladi. Shuning uchun uning bola psixikasiga ta'sirining tabiatini o'rganish ushbu murakkab ta'sirni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Bunday konseptual yondashuv yangi istiqbollarni olib beradi, bunda folklor asarlari bir vaqtning o'zida bolaning hissiy va aqliy faoliyatini optimallashtirish vositasi bo'lib, uning shaxsiyatining ma'naviy o'sishi va axloqiy yaxshilanishiga olib keladi¹².

Bolalar folklorining eng yirik tadqiqotchisi G.S.Vinogradovning so'zlariga ko'ra, "bolalar folklori psixologlar uchun ham, ilmiy fikr vakillari uchun ham, amaliy o'qituvchilar uchun ham qiziqish uyg'otadi". Bolalar folklorining individual janrlarini ularning intensiv yosh dinamikasida o'rganish bolalarning badiiy tafakkurining rivoqlanish qonuniyatlarini tushunish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, bu asosan xalq ijodiyoti asarlarini idrok etish orqali shakllanadi. Musiqiy folklor-bu bolalarning hissiy buzilishlarini tuzatish, uning barcha parametrlarini rivojlantirish, shuningdek, uning ta'sirchan tarkibiy qismlari bilan bog'liq psixikaning kompensasion

¹² Шутова Н. В. Интегрированное психическое развитие проблемных детей старшего дошкольного возраста средствами музыкального воздействия : монография. Москва : МГТУ ; Нижний Новгород : НГПУ, 2008. 225 с

imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish maqsadiga erishishga yordam beradigan tuzatish vositasidir.

Ko'plab psixologlar o'z tadqiqotlarida hissiyotlar va fantaziyalar o'rtasida bog'liqlik borligini tasarruf etishadi. L.S.Выготскийning fikriga ko'ra "hissiyot tanamizning mimik, pantomimik, sekretor va somatik reaksiyalarida emas, balki bizning tasavvurimiz orqali ma'lum bir ifodaga muhtoj. Folklor har doim sirlar va sarguzashtlarni, ajoyib, hayoliy elementni, aniq, shaffof qurilgan to'qnashuvlarni o'z ichiga oladi"¹³.

Musiqani idrok etish, odamning ongida tovushli materialning aksiyatida, shuningdek, psixofiziologik jarayondir, chunki musiqa tufayli kelib chiqadigan his-tuyg'ular va hissiyotlar insondan ma'lum bir reaksiya usulini talab qiladi (ilhom, ko'z yoshlar, kulgi, yurak urishi, nafas olish, puls, turli xil galvanik teri reaksiyalari). L.S.Выготский o'z asarlarida san'at markaziy tuyg'u ekanligini ta'kidlaydi. San'at hissiyotlari aqli hissiyotlardir. Mushtlarni qisish va qaltirashda o'zini namoyon qilish o'rniiga, ular asosan fantaziya tasvirlarida hal qilinadi – deya o'z fikrini bildirgan.

¹³ Выготский Л.С. К вопросу о психологии и педагогии // Культурно-историческая психология. 2007. №4

FOLKLOR ASARLARINI O‘QITISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Go‘ro‘g‘li turkumidagi dostonlarni qiyosiy o‘qitishning innovation texnologiyalari

Bugungi kunda respublikamizda ta’lim tizimin yangi bosqichga olib chiqish, raqamlashtirish, zamonaviylashtirish, axborotlashtirish va iinovation o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Tarqqiyotning yuksalitish XXI asrda innovation o‘zgarishlarga boy asr deyish mumkin. Bu albatta ta’lim sohasiga ham o‘zining ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Uning zamirida esa ta’lim sohasiga zamonaviy innovation texnologiyalarning olib kirish zaruriyatini tug‘diradi. Ana shularni hosbga olgan holda bugungi kunda ta’lim tizimida o‘qitish sifatini oshiradigan, uning dolzarb ehtiyojlarini qondiradigan, yangi imkoniyatlardan eshigini ochib beradigan innovation texnologiyalarga ya’ni innovation ta’lim texnologiyalariga bo‘lgan talab ortib bormoqda.

Ta’lim tizimining isloh qilinishi, ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqilishi ushbu sohaga innovation texnologiyalarni joriy qilish shartini qo‘yadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ham quyidagi fikr va mulohazalari o‘rinli deb hisoblaymiz. “Biz ta’lim va tarbiya tizimini barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishning o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”¹⁴. Ma‘lumki hamma zamonlarda o‘qitish tizimi zamon bilan hamnafas tarzda kelgan. Mamlakat taraqqiyoti va uning keladjagi ta’lim tizimi va ta’lim sifati bilan chambarchas bog‘liq ekanligini unutmasligimiz lozimdir. Ta’lim tizimiga yangilik, o‘zgarish va sifat, samaradorlikning olib kirlishi innovasiya bo‘lib, taraqqiyotga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishi bilan ajiralib turadi. Bu borada ta’lim tizimiga olib kiirilgan innovation yangiliklar va texnologiyalarning joriy etilishi folklor asarlarini o‘qitish sohasini ham chetlab o‘tmadi. Folklor asarlarini o‘qitishda innovation texnologiyalarning joriy qilinishi uning o‘ziga xos tarzda rivojlanishi va samaradorlikka erishishiga ta’sir ko‘rsatadi.

¹⁴ Мирзиёев Ш.М. Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлашторт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Т.:, Ўзбекистон 2017. 24-б.

Go‘ro‘g‘li turkumidagi dostonlarni o‘qitishda ham ta’lim texnologiyalaridan foydalanish folklorshunos olimlarning ta’lim tizimida yangicha, zamонави sharoitlarda ishlay olish ko‘nikmasini shakllantirish, sifat va samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshirish ga erishi maqsadida o‘zgacha yondashuvni talab etadi.

Ta’lim innovasiyalari pedagogik tizimning maqsadi, mazmun-mohiyati, belgilari, imkoniyatlari, vazifalarini, rivojlanish bosqichlari va tamoyillarini, rivojlanish bosqichlari va ta’limdagi integrasiya tamoyillarini innovasion usullarini tanlash, to‘pal, qo‘llash va ulardan foydalanish uslubiy tavsiyalar hamda bu borada bo‘lajak mutaxassislarda shakllanadigan hislatlarni hosil qilish jarayonini ifodalovchi ta’lim va tarbiya jarayonining sifat jihatlarini takomillashtirib bu sohada yuqori samaradorlikka erishishni tushunish mumkin¹⁵.

Innovasiya tushunchasi O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida ko‘rsatilishicha innovasiya quyidagi mazmun va tushunchalarga ega. Innovasiya inglizcha “innovationas”-kiritilgan yangilik, ixtiro texnika va texnologiya avlodlarini almashtirish uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar, ilmiy-texnik yutuqlar va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalarga yangiliklar, shuningdek ularning turli sohalar va faoliyat doirasida qo‘llanilishi¹⁶.

Ta’lim innovasiyalari – ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib avvalgisidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyadir. Ta’lim innovasiyalarini folklor asarlari jumladan Go‘ro‘g‘li turkumidagi dostonlarni o‘qitishda ham qo‘llanilishi dostonning mazmunini tushunich va tahlil qilishda talabalarda kreativ qobiliyatlarini shakllantirishga turki bo‘ladi.

So‘z san‘atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo‘lishi bilan yuzaga kela boshladi. “Go‘ro‘g‘li” dostonlari xalq

¹⁵ Янгибоев К.Н. Инновацион технологиялардан фойдаланишга асосланган янгича ёндашувлар таълим жараёнини ривожлантириш омилидир. Педагогика 2022, 1-сон 117-б.

¹⁶ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Бош таҳрир ҳайъати аъзолари М.Аминова ва бошқалар. 4-т. –Т.:, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат нашриёти, 2002. 169-б.

dostonchiligidagi har biri mustaqil yashagan va ayrim- ayrim nomga ega bo‘lgan asarlar silsilasi, muayyan omillar bilan bir-biriga birlashgan kattakon turkum bo‘lib, Yaqin va O‘rta Sharqda juda keng tarqalgan. Bu turkum o‘zbek, tojik, qozoq, qoraqalpoq, tatarlarda Go‘ro‘g‘li; turkmanlarda Go‘ro‘g‘li, Ko‘ro‘g‘li, Karo‘g‘li; Ozarbayjon, Gruzin, Turk va boshqalarda Ko‘ro‘g‘li nomi bilan shuhrat qozongan.

“Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari kattakon ikki tarmoqqa bo‘linadi. Fanda biri Zakavkaze va Yaqin Sharq versiyalari (ozarbayjon, arman, gruzin, turk va boshqalar) deb yuritilsa, ikkinchi O‘rta Osiyo versiyalari (o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq, turkman, tojik va boshqalar) deb ataladi. Bu ikki tarmoq o‘zaro muayyan umumiylikka ega bo‘lsa-da, dostonlarda qamrab olingan voqyelik, epik an’ana va bosh qahramonga berilgan baho, ularning hajmi, sostavi, kuylanish va tarqalish xususiyatlari jihatidan bir-biridan pirinsipial ravishda farq qiladi.

Demak, ozarbayjon versiyasida konkret shaxs va davr bilan bog‘liq voqyealar tengsiz kuch-qudrat va shijoat, oljanob insoniq fazilatlar ideali nuqtayi nazaridan kuylanadi. Ammo bunda umumlashtirish va ideallashtirish muayyan davr va tarixiy voqyealarni inkor etish darajasida emas, balki u (xalq ideali) konkret biografik detallar va hayotiy lavhalar bilan chambarchas bog‘lanib ketgan.

O‘rta Osiyo versiyalari, xususan, o‘zbek variantlarida esa umumlashtirish va ideallashtirishning juda yuqori darajasini ko‘ramiz. Bunda qahramonona o‘tmish konkret tarixiy voqyealar aspektida yemas, balki mislsiz romanik lavhalarda, xalqning beqiyos ideallari ko‘lamida tasvirlanadi. Hamma narsa – hayot ham, xalq turmushi ham, tarixiy voqyelik ham, mavjud zamon yetishtirgan qahramonlar ham ko‘tarinki romanik bo‘yoqlarda, bepayon badiiy ideal tasavvurlarda, cheksiz obrazlar girdobida gavdalanadi. Ana shu bepayon ideallik va cheksiz romanika bu dostonlarni yanada real, hayotiy, xalqqa yaqin va davrimizga hamohang qilgan.

O‘zbek dostonlarida Go‘ro‘g‘li turkman va o‘zbeklarning begi, qonuniy hukmdor, o‘z xalqi, vatani uchun qayg‘uruvchi va uni turli dushmanlar bosqinidan himoya qiluvchi dono murabbiy, ko‘plab xalq botirlarini tarbiyalab yetishtirgan yengilmas bahodir sifatida tasvirlanadi. Bosh qahramonga berilgan mana shu bahodan kelib

chiqib, Chambil yurtining afsonaviy hukmdori Go‘ro‘g‘lining bahodir qirq yigit bilan birgalikda ona yerining xavfsizligi va ozodligiga tahdid soluvchi qo‘sni podsholiklarga qarshi olib borgan kurashi butun xalq harakati, Chambil eli, qabila ozodligi urushi tarzida namoyon bo‘ladiki, bu o‘zbek eposidagi asosiy masaladir.

O‘zbekistonning Xorazmdan bo‘lak erlarida tarqalgan “Go‘ro‘g‘li” dostonlari ham alohida mustaqil bir versiyani tashkil etib, hajmining kattaligi, “monumentalligi” bilan ajralib turadi. Har ikki versiyada bosh qahramonning umumiy faoliyatida va bir qancha motivlarda o‘xshashlik ko‘zga tashlanadi. Ammo alohida olingan dostonlarda o‘xshashlik deyarli yo‘q, ya’ni birida bo‘lgan doston (masalan, “Xirmon dali”) ikkinchisida, ikkinchisidagi (masalan, “Ravshan”) birinchisida mavjud emas. Versiyalar orasida bu darajada prinsipial ayirmalarning mavjudligi turkumga birlashgan dostonlarning muayyan qismi ikki joyda, ikki xil ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yaratilganligi va mustaqil rivojlanishda davom etganligini ko‘rsatadi.

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi va bolaligi” dostoni ko‘p planli asar bo‘lib, unda G‘irot biografiyasiga oid ham ajoyib ma’lumotlar bor. Bu ma’lumotlarga ko‘ra, qahramonni emizgan baytal bilan Xuroson ko‘lidan chiqib kelgan ayg‘irdan (“suv oti”dan) urg‘ochi qulun tug‘iladi. Bu qulun uch yashar bo‘lgach, Go‘ro‘g‘li Rayhon arabning dong‘i ketgan tulporidan nasl olishga harakat qiladi. Natijada uchinchi ot – G‘irko‘k tug‘iladi. G‘irko‘k yetti kunlik bo‘lganda onasi o‘ladi. Go‘ro‘g‘li unga turli hayvonlarning sutini berib tarbiya qiladi. Go‘ro‘g‘li bilan G‘irot orasida juda ko‘p o‘xshashliklar bor: dostonda har ikkalasi ham uchinchi naslgacha tilga olinadi. Ikkalasi ham yetim; ikkalasi shirxo‘ra va hokazo. Bu bilan qahramon va uning jangovar oti o‘rtasida eposga xos ajoyib bir aloqa yuzaga keltiriladiki, bu butun turkum bo‘ylab izchil davom etadi. Dostonda yosh qahramonning chiltonlar bilan uchrashuvi, kelajak yo‘lining oldindan belgilanishi, epik Chambil yurtining bunyod etilishi, Yovmit eliga xon qilib ko‘tarilishi kabi voqyealar juda qiziqarli tasvirlanadi. Shoxdorxon va Ravshan, Ravshan va Urayxon, Rayxon va Go‘ro‘g‘li to‘qnashuvlarida butun turkumga xos bo‘lgan ijobiy va salbiy sifatlar namoyon bo‘ladi. Turkumning ushbu birinchi dostonidayoq o‘zbek “Go‘ro‘g‘li”siga xos bo‘lgan

cheksiz fantaziya, ko‘z ilg‘amas geografik va etnografik kengliklar to‘la namoyon bo‘ladi. Bu hol, ayniqsa, “Yunus pari”, “Misqol pari”, “Gulnor pari” dostonlarida yanada yorqin ko‘rinadi. Bu asarlar Go‘ro‘g‘lining uylanishi va shu bilan bog‘liq qahramonliklariga bag‘ishlangan.

“Go‘ro‘g‘li” siklidagi dostonlarda parilar podsholigi, undagi saroj va oilaviy hayot inson turmushining ko‘rinishi sifatida keng va hayotiy lavhalarda tasvirlanadi. Dostonlarning tuzilishi an’anaviy andoza asosida bo‘lib, o‘rni bilan o‘zaro almashinib turadigan nazm va nasriy matnlar tashkil qiladi. Dostonlardagi she’rlar, asosan, 7, 8 va 11 hijoli barmoq vaznida bo‘lib, turoqlarning o‘zgarib turishi, band tuzilishi va qofiyalanish shakliga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatga ega.

“Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari xalq hayoti, turmushi va maishatini, orzu-umidlari va g‘oyalarini, axloqiy-estetik va ijtimoiy qarashlarini keng hajmda tasvirlovchi eposdir. “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi anchagina dostonlar qahramonning asrandi farzandlari Hasan, Avaz, nevaralari Nurali, Ravshan va evarasi Jahongirlarning qahramonona sarguzashtlariga bag‘ishlangan bo‘lib, bular ham o‘zaro muayyan turkumlarni tashkil qiladi.

Bu ichki turkumlar asrandi farzandlarining olib kelinishini tasvirlovchi dostonlar (Hasanxon, Avazxon) bilan boshlanadi. Hasan va Avazning o‘z taqdiri bor. Ularning har biri turkumda muayyan o‘rin tutadi. Hasanxon turkumda faqat bir doston “Dalli”ning bosh qahramoni sifatida ishtirok etadi. Avazxon esa butun bir dostonlar “Balogardon”, “Intizor”, “Bo‘tako‘z”, “Qunduz bilan Yulduz”, “Malikayi ayyor” va boshqa turkumning bosh qahramonidir.

Bir so‘z bilan aytganda, “Go‘ro‘g‘li” siklidagi dostonlar o‘zbek xalqi orasida keng tarqalgan bo‘lib, o‘z muxlislariga egadir. O‘zbek xalqi Go‘ro‘g‘li va uning yigitlari haqida qator termalar yaratgan. Bu termalarni qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatadiki,

“Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari o‘zbeklar orasida bir necha versiyada tarqalgan. Bu versiyalarni chuqurroq o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish kelajakdagi amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vazifalardan biridir.

Ma’lum bir epik qahramon, uning avlodlar va safdoshlari hayotidan hikoya qiluvchi dostonlar silsilasi turkumlikni tashkil etadi.

Turkumlikka kiruvchi dostonlar bir-birining izchil davomi bo‘lmay, har biri alohida-alohida voqyealar asosiga qurilishi ham mumkin. Bu o‘rinda epik qahramonlar, epik makon va zamon umumiyligiga amal qilinadi. Folklorshunoslar turkumlikka ega dostonlarni mazmuniga ko‘ra biografik, nasliy va geografik kabi turkumlarga ajratib o‘rganishadi.

O‘zbek xalqi epik ijodida Go‘ro‘g‘li va uning asrandi o‘g‘illari, safdoshlari hayotidan hikoya etuvchi dostonlar majmuasi alohida o‘rin tutadi. “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi dostonlarda Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi, bolaligi, uylanishi, Avazxon va Hasanxonlarni asrab olishi, Avazxon, Hasanxon, ularning o‘g‘illari – Ravshan, Nurali, Sherali, keyingi avlod – Jahongirlarning hayotidan tortib, bosh qahramonning bir yuz yigirma yoshida g‘orga kirib g‘oyib bo‘lib ketgungacha bo‘lgan voqyealar aks etadi. “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi har bir doston o‘zicha mustaqil xarakterga ega va ularning har biri el orasida alohida-alohida kuylanib kelingan. “Go‘ro‘g‘li” turkumi tarkibi g‘oyatda murakkab, kuylanish va ijro sharoitlarida o‘zaro mustaqil va har biri alohida yagona syujetga ega bo‘lgan bu silsila dostonlar Go‘ro‘g‘li va G‘irot obrazlari, Chambil mamlakati kabi asosiy nuqtalarda, shuningdek, qirq yigit, Soqibulbul, Hasanxon, Ahmad sardor singari an‘anaviy obrazlar, ularning g‘ayriqutblari tasviri orqali bir-birlari bilan birlashsalar-da, bosh qahramonning muntazam epik biografiyasi emas, balki uning dovruqli afsonaviy hayotining ko‘pdan-ko‘p epizodlari tasvirlaridan iborat. “Go‘ro‘g‘li” dostonlari o‘tgan asrning boshlaridan turli yillarda, turli baxshilar tomonidan yozib olingan. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Go‘ro‘g‘lining bolaligi”, “Zaydinoy”, “Yunus pari”, “Misqol pari”, “Gulnor pari” dostonlari atoqli baxshi Po‘lkan shoirdan ketma-ket yozib olingan bo‘lsa, taniqli shoir-qissaxon Rahmatulla Yusuf o‘g‘li yigirma turkumning yigirma uch dostonini (yozilmaganlari bilan bирgalikda o‘ttiz dostonning) o‘zicha ketma-ketligini belgilab, to‘rt jild qilib, Folklor arxiviga topshirgan. Turkum dostonlarining soni haqida ham baxshilar o‘rtasida har xil fikrlar mavjud. Ularning ko‘pchiligi “Go‘ro‘g‘li qirq dostondir”, – deydilar. Nurotalik Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘lining “Avazning arazi” dostonida kuylashicha, uning ustozlari Go‘ro‘g‘lini “Oltmish to‘rt doston qip ta‘rif etgan”. Janubiy Tojikistondag‘i o‘zbek baxshilarining (soqlarining) naql qilishicha,

XIX asrda yashagan mashhur dostonchi Qunduz soqi Go‘ro‘g‘lini bir yuz yigirma shoxa (doston) qilib aytar ekan. Shunda ham Go‘ro‘g‘li o‘lganda, Yunus pari: “Bedoston o‘tgan, to‘ram”, – deya yig‘i bergen ekan. Folklorshunoslikda esa “Go‘ro‘g‘li” turkumi qirq dostondan iboratdir, degan fikr qat’iyashgan. Keyingi kuzatishlar turkumga kiruvchi dostonlar soni yetmishdan oshishini ma’lum etdi. “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari hozirgi o‘rganilish holatida quyidagilardan iborat:

1. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi.
2. Go‘ro‘g‘lining bolaligi.
3. Zaydinoy (Zulkumor, Go‘ro‘g‘lining Rayhon arab qizini olib qochib kelishi).
4. Chortoqli Chambil.
5. Yunus pari.
6. Misqol pari.
7. Gulnor pari.
8. Qirq yigit bilan qirq qiz.
9. Soqibulbul.
10. Hasan ko‘lbar.
11. Doniyorxo‘ja – yozib olinmagan.
12. Shodmonbek – yozib olinmagan.
13. Berdiyor otaliq.
14. Xidirali yelbegi.
15. Zamondek.
16. Hilonom (Yelomon).
17. Xoldorxon (Go‘ro‘g‘lining Qirimga borishi).
18. Shohdorxon.
19. Shoqalandar.
20. Xushkeldi.
21. Rayhon arab.
22. Bektosh arab – yozib olinmagan.
23. Govdaroz dev.
24. Besh podshoning Chambilga yov bo‘lib kelishi.
25. Ro‘zaxon.
26. Yosqila.
27. Ahmad sardor va Hasan shoh – yozib olinmagan.
28. Ahmad sardor va Avazxon – yozib olinmagan.
29. Ahmad sardorning suyagi – yozib olinmagan.
30. Ahmad sardorning o‘limga buyurilishi.
31. Hasanxon (Go‘ro‘g‘libekning Hasanxonni olib kelishi).
32. Chambil qamali.
33. Dalli.
34. Avazxon (Go‘ro‘g‘libekning Avazxonni olib kelishi).
35. Gulqizoy.
36. Gulqizoyning vafoti.
37. Intizor.
38. Malika ayyor (Gulshanbog‘, Tarkibadaxshon).
39. Mashriq.
40. Zulfizar.
41. Xoldor buvish – yozib olinmagan.
42. Oyдинoy – yozib olinmagan.
43. Bo‘tako‘z (Oqbilak oyim yoki Oqchishboyning qizi).
44. Qunduz bilan Yulduz.
45. Balogardon.
46. Avazxonning arazi (Avazxonning dor ostidan qutqarilishi).
47. Avaz o‘g‘lonning Rumga qochishi.
48. Avazxonning o‘limga hukm etilishi.
49. Sarvinoz.
50. Girdob.
51. Xonimoy.
52. Oyto‘ra va Mastura.
53. Avaz va Gulton.
54. Oltin qovoq.
55. Zayidqul (Sakson nor).
56. Gulixiromon.
57. Zarnigor.
58. Avaz va Oyzaynab.
59. G‘irotning o‘g‘irlanishi (Misqol pari va Avazxon) – yozib olinmagan.
60. Og‘a Yunusning olib qochilishi.
61. Ravshan.
62. Nurali.
63. Nuralining yoshligi.
64. Sumbulsoch beka.
65. Balxuvon.
66. Jorxon maston.
67. Nurali va Qari Ahmad.

68. Nuralining yutilishi. 69. Malla savdogar. 70. Nurali va semurg‘. 71. Sherali. 72. Sheralining uylanishi (Oynigor). 73. Jahongir. 74. Jahongirning yoshligi (Shahidlar darasi). 75. Ero‘g‘li (Shahidnoma, Go‘ro‘g‘lining o‘limi, Go‘ro‘g‘lining g‘oyib bo‘lishi). Hozirgacha yozib olinmagan va bugungi kunda unutilib ketgan sakkiz dostonni (“Doniyorxo‘ja”, “Shodmonbek”, “Bektosh arab”, “Ahmad sardor va Hasanxon”, “Ahmad sardor va Avaz”, “Xoldor buvish”, “Oyдинoy”, “G‘irotning o‘g‘irlanishi” kabilarni) ushbu ro‘yxatga kiritilsa turkum dostonlarining soni saksondan oshadi¹⁷.

“Go‘ro‘g‘li” dostonlarining bu xil turkumlikdan iborat ekanligi dunyo yepik merosida noyob hodisa sifatida baholanadi va o‘zbek xalqining poyetik iqtidori, yaratuvchanlik quvvatining naqadar kuchli ekanligidan dalolat beradi.

“Go‘ro‘g‘l” turkumi dostonlari xalq hayoti, turmushi va mai-shatini, orzu-umidlari va g‘oyalalarini, axloqiy-estetik va ijtimoiy qarashlarini keng hajmda tasvirlovchi eposdir. “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi anchagina dostonlar qahramonning asrandi farzandlari Hasan, Avaz, nevaralari Nurali, Ravshan va evarasi Jahongirlarning qahramonona sarguzashtlariga bag‘ishlangan bo‘lib, bular ham o‘zaro muayyan turkumlarni tashkil qiladi.

Bu ichki turkumlar asrandi farzandlarining olib kelinishimi tasvirlovchi dostonlar (Hasanxon, Avazxon) bilan boshlanadi. Hasan va Avazning o‘z taqdiri bor. Ularning har biri turkumda muayyan o‘rin tutadi. Hasanxon turkumda faqat bir doston “Dalli”ning bosh qahramoni sifatida ishtirok etadi. Avazxon esa butun bir dostonlar

“Balogardon”, “Intizor”, “Bo‘tako‘z”, “Qunduz bilan Yulduz”, “Malikayi ayyor” va boshqa turkumning bosh qahramonidir.

Bir so‘z bilan aytganda, “Go‘ro‘g‘li” siklidagi dostonlar o‘zbek xalqi orasida keng tarqalgan bo‘lib, o‘z muxlislariga egadir. O‘zbek xalqi Go‘ro‘g‘li va uning yigitlari haqida qator termalar yaratgan. Bu termalarni qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatadiki,

“Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari o‘zbeklar orasida bir necha versiyada tarqalgan. Bu versiyalarni chuqurroq o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish kelajakdagi amalga oshirilishi kerak bo‘lgan vazifalardan biridir.

¹⁷ Qarang: Mirzayev T. Doston. O‘zbek folklorining epik janrlari. - T.: Fan, 1981. -B.65-90.

Yuqorida Go‘ro‘g‘li turkumiga kiruvchi dostonlar xususida fikr va mulohazalarimizni berib o‘tdik. Go‘ro‘g‘li turkumiga kiruvchi asarlarni o‘qitishda bir qator innovation texnologiyalardan foydalanish yanada ta’limning samaradorligini oshirish bilan bиргаликда yodda qolish va uning ta’sirini yanada oshirish imkonini beradi.

Raqamli dunyoda o‘rganish deb nom olgan hozirgi davlat jamiyatning har bir a’zosisidan umuminsoniyat qadriyatlarga amal qilish, ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanish, samarali mulo-qot qilish, o‘z shaxsini takomillashtirish o‘zluksiz o‘rganish kabi kompltentliklarga ega bo‘lish talab qilinadi. Bugungi kundagi ta’lim va rivojlanish uzlucksiz o‘rganishni umr bo‘yi ta’lim olishni taqozo qilmoqda kundan kunga yangi texnologiyalar va metodikalar rivojlanib bormoqda. Bu esa ta’limning sifati oshishiga hamda o‘qituvchining o‘z ustida muntazam ishlab, malakasini oshirib borishga majbur etadi. Doimiy o‘zini rivojlantira oladigan o‘qituvchi zamonaviy ta’lim olididagi vazifalarni bajara oladi.

Singapur milliy ta’lim instituti xodimi Devid Xun o‘qituvchilar qarashlarining o‘zgarishi ta’limdagi o‘zgarishlar uchun muhim qadam ekanini aniqladi. U muammoni dars berish jarayonida bilim berishdan pedagog va o‘quvchilarning bирgalikda yaratadigan asariga, darslikdagi yuzaki nazariyabozlikka asoslangan bilimdan ilmiy tajriba o‘tkazish orqali o‘qitishga, summativ baholashdan yaratuvchilikka asoslangan kuzatuvga o‘tish sifatida ta’riflaydi.

O‘tmishda ko‘rgazmali ta’limga amal qilinardi, kelgusidagi ta’lim ko‘proq loyihalash va faoliyatga asoslanishi kerak. Buning negizida o‘quvchilarga fanlar chegarasidan tashqarida fikrlashga ko‘mak beradigan tajribani shakllantirish yotadi.

O‘tmishda ta’limning asosiy vazifasi standartlashtirish va mutanosiblik edi. Kelajakda ta’lim o‘quvchilarning qiziqishlari va qobiлиyatlariga, o‘quv jarayonini ixtisoslashtirishga asoslangan bo‘lishi kerak, baholash esa o‘quvchi shaxsiyati va iqtidorini rivojlantirishga ko‘maklashadigan usullarda olib borilishi lozim. Kelgusidagi ta’lim o‘quvchilarni kashfiyotchilik va topqirlilikka undashi lozim.

Shu sababli folklor asarlarini o‘qitishda ham muammoli ta’lim texnologiyalari shu bilan bирgalikda zamonaviy ta’lim metodlaridan foydalanishning ahamiyati katta ekanini ta’kidlash kerak bo‘ladi.

Zamonning rivojlanishi va taraqqiyotning o'sishi natijasida bugungi kunda o'quv materillarini raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda. Folklor asarlarini o'qitishda interaktiv raqamli multimedia shakli juda kam uchraydi. Shuning uchun folklor asarlarini o'qitishda interaktiv raqamli texnologiyalardan foydalanish zamon talablariga javob bera oladigan ta'lif berishni ta'minlab beradi.

Axborot texnologiyalarining rivojlavnishi va internet tarmoq'ining imkoniyatlarining kuchayishi natijasida folklor asarlarini saqlab qolish va uni keyingi avlodga yetkazib berish muammosi paydo bo'lmoqda. Buning uchun ko'plab mamlakatlarda folklor asarlarini o'qitishda komik matn bilan birlashtirilgan tasvirlar va vizualizasiya orqali g'oyalarni yetkazishda grafik vositalardan foydalanish mumkin. Folkloarning rivoji va uning yo'qolib ketmasligi uchun harakat qilish kerak chunki folklor tarix va milliy odatlar, qishloq va ovullarning nomlari uning tarixi haqida bizga ma'lumot berib turvchi soha hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tilganidek Go'ro'g'li turkumidagi dostonlarni o'qitishda komik grafikli interaktiv metodlardan foydalanish o'rganuvchiga hikoyani o'zi bilan o'zaro aloqada bo'lishga imkoniyat beradi.

Go'rg'o'g'li turkumidagi asarlarni o'qitishda komiklardan foydalanish haqida gapirishdan oldin komik o'zi nima degan savolga to'g'talib o'tsak. Komik rasm va grafikadan iborat jumlalarni talab qilmaydigan hikoyalar to'plamidir. Bo'sh joylar orada berilib ketiladi bola uni o'zining fikri bilan to'ldiradi. Bu texnologiya talaba yoshlarda o'qish bilan birgalikda fikrlashni ham o'rgatadi. Belgilar va grafika orqali qiziqarli xayvon va inson tanlovini berish orqali turli hil xissiyotlarga ega bo'lgan belgilar - baxtli, qayg'uli, g'azabli, tavishli bo'lishi mumkin. Shu orqali hikoya va g'oyalalar ochib beriladi. Bo'sh qoldirilgan joylarga o'rganuvchining o'zini fikrini bildirib ketishi o'z g'oyalarni va yaratish ularnng ijodini ochib berishga imkoniyat beradi.

Folklor asarlarini o'qitishda zamonaviy innovasion texnologiyalardan foydalanish talabalarga mustaqil, malakali tadqiqotchi bo'lishga imkoniyat beradi. Ta'lif texnologiyalardan foydalanish talabalarning mazvu mazmunini tushunishni oshirish bilan birgalikda anlitik fikrlash, muammolarni hal qilish, axborotni baholash va ijodiy fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Amerikalik tadqiqotchi folklorshunos olim Difonzo va Bordia o‘zining Folklor va internet kitobida “raqamli folkloarning eng qiziqarli elementlaridan biri bu internet shahar afsonalarining yaratilishidir”¹⁸ – deya ta’kidlaydi.

Folklor asarlarini o‘qitishda asosan vizual o‘quv materiallaridan foydalanish va uni yaratish zamonaviy invasion texnologiya sifatida o‘qitish tizimiga kirishini ta’kidlash mumkin. Qiziqari materiallardan foydalanish o‘quvchilarning diqqatini tezroq jalb qiladi. Folklor orqali o‘quvchilarda savodxonlikning oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Talabalarning o‘qishga qiziqishi va ularga qizqiarli materiallarni tanlashga imkoniyat beradi. Folklor asarlarini o‘qitishda imkon qadar yaxshi ishlab chiqilgan texnologiyadan foydalanish o‘qitishning jozibadorligini yanada oshirish imkoniyatini beradi. Zamonaviy o‘qitish texnologiyasidan foydalangan holda o‘qitish samaradlorlikki ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Folklor asarlarini o‘qitishda rol o‘ynash orqali o‘rganish. Bu hikoyani qayta tiklash imkoniyatini beradi. Folklor qahramonlarini rollarini ijro etish orqali, yangi senariylar yaratish hamda motivasiya va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan tushunchalarni chuqurlashtirish imkoniyatini beradi.

Hamkorlikdagi raqamli hikoyalar texnologiyasi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida talabalar google docs platformasi orqali o‘zlarining folklor hikoyalarini yozish va moslashtirish ular orasiga multimedia elementlarini ya’ni video, audio, rasmlardan foydalanish orqali folklor asarlarining kelib chiqishi va interaktiv xaritalarini yaratish mumkin.

STEAM texnologiyasidan foydalangan holda fanlararo loyihibar yaratish texnologiyasi bunda san’at va folklor sintezi yuz beradi. Folklor tasviriy san’at bilan birlashtirilib, talabalar hikoyalarlardan muhim daqiqalarni tasvirlashlari yoki mavzulardan ilhomlangan san’at asarlarini yaratishlari mumkin. Talabalarga folklor asarlarini o‘qitishda rasm, tovush va videoni birlashtirgan interaktiv taqdimotlar yaritishi ham o‘ziga hos metod hisoblanadi.

Hikoya animasiyasi texnologiyasi ham talabalarning folklor

¹⁸ Bordia, P. and DiFonzo, N. (2004) ‘Problem Solving in Social Interactions on the Internet: Rumor as Social Cognition’, *Social Psychology Quarterly* 67: 33-49

ertaklarini takrorlaydigan qisqa animasion filmlar yaratish, animasiyalardan foydalanish bu talabalarga an'anaviy hikoyalarni hayotga tadbiq etish uchun raqamli ijodkorlikdan foydalanish imkonini beradi.

Etnografik tadqiqotlar texnologiyasi. Talabalarning mahalliy festevallar, marosimlar va hikoyalar to‘garaklarida qatnashishga undash. Ushbu etnografik tadqiqotlar texnologiyasi doirasida talabalarga o‘qish ta’tilili berilishi arafasida hudududiy kesimda ya’ni o‘zlarining yashash manzili doirasida folklor marosimlarida ishtirok etishi va ularni hissiy ko‘nikmalarini qog‘ozga qayd qilishi topshirig‘ining berilishi folkloarning tarixiy asarlar kabi tirik madaniyat doirasida his qilish imkonini beradi.

Global folklor almashinuv texnologiyasi. Boshqa mintaqalar yoki mamlakatlardagi maktablar bilan hamkorlik qilib, madaniy almashinuv dasturlari orqali o‘zga xalqlarning folklor asarlarini almashish folklor asarlarini qiyosiy o‘rganish bilan birgalikda o‘z madaniyatlarii o‘zga millat, halq madaniyatlarini bilan baham ko‘rish shu bilan birgalikda mapdanitlararo o‘rganish va tahlil qilishni rag‘batlantiradigan joylarda tashkil etilishi mumkin.

Ijodiy yozish va folkloerni qayta tasavvur qilish. O‘rgangan folklor asarlarini o‘quvchilar qayta tasavvur qilish maqsadida o‘zlarining ijodiy fikr va mulohazalarini bildirishi. Talabalarga an'anaviy folkloerni zamonaviy muhitga moslashtirish uchun mashqlar berilishi mumkin. Ushbu pedagogik texnologiya orqali talabalar folkloerni zamonaviylashtirishi ushbu asar hikoyaning dolzarligi, evolyusiyasi haqida tanqidiy va kreativ fikrlarini bildirishga imkoniyat beradi.

Loyihaga asoslangan ta’lim texnologiyasi (PBL) orqali talabalar o‘zlarining podcastlarini yaratishlari kerak bo‘ladi. Ya’ni talabalar hikoyalar aytib beradigan va tahlil qilishga munosib va muxokama qiladigan podcast tayyorlashi kerak bo‘ladi. Bu loyiha tadqiqotlarni senariylarini yozish, tengdoshlari va kengroq auditoriya bilan bo‘ladigan epizodlar yozishni o‘z ichiga oladi.

Interaktiv vositalar va ilovalar texnologiyasi talabalar turli dasturlardan foydalangan holda folklor viktorinalarini tashkillashirishlari kerak bo‘ladi. Bu esa o‘rganishni yanada qiziqarli qiladi. Talabalar folklor asosda tasvirlangan raqamli kitoblar yoki qisqa hikoyalar yaratib, an'anaviy ertaklarni zamonaviylashtirishlari

mumkin.

Aralash ta’lim yondashuvlari texnologiyasi ham mavjud bu texnologiya orqali talabalarda folklor asarlarini o‘ziga hos tarzda o‘rganishlariga yana bir imkon beruvchi metod hisoblanad. Bunda talabalar o‘zlarini mustaqil tarzda folklor asarlarini o‘rganadilar. So‘ngra sinfda interaktiv munozaralar yoki gurux gurux mashg‘ulotlarini tashkillashtirishlari mumkin. Bunda o‘qituvchi folklor asarlarini elektron tarzda talabalarga yetkazishlari kerak. Va o‘qituvchi tomonidan interaktiv mashqlar ishlab chiqilishi zarur sharti hisoblanadi.

Tematik munozalar texnologiyasi ham folklor asarlarini o‘rganishda talabalarda tanqidiy fikrlash imkoniyatni yaratib beradi. Folklordagi personajlar ahloqi yoki dolzarb zamonaviy hikoyalarning asosida munozaralar tashkil qilish tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradi.

Folklor to‘garaklarini tashkil orqali ham talabalarning folklor asarlarini qiziqarli o‘rganishga olib keladi. Og‘zaki hikoya qilish an’analarda talabalar har bir kishi folklor hikoyasini baham ko‘rishi yoki shu to‘garaklarga rahbarlik qilishlari bu folklor muhitini saqlab qolishiga imkoniyat yaratib beradi. Folklor kechalarini tashkil qilish. Bunda talabalar folklor asarlarini drammatik o‘qishlar, spektakllar, og‘zaki she‘r aytishlar orqali folkloriga xurmat va qiziqish uyg‘otish.

Virtual sayohatlar texnologiyasi bunda folklor asarlari saqlanadigan muzeylarga virtual sayohat qilish, folklor asarlari hududlarini internet tarmoqlari orqali geografik va madaniy konteksda o‘rganish, bugungi kundagi mavjud hududlarning ko‘rinishlari bu kabi innovasion metodlar folklor ta’limini yanada qiziqarli bo‘lishiga, dinamik, raqamli va ko‘p madaniyatli dunyoda talabalar uchun dolzarbligini oshirishi mumkin.

Go‘ro‘g‘li turkumidagi dostonlarni o‘qitishdagi asardagi bosh qahramon va uning hayot yo‘lini yoritib berishda mana shunday innovasion metodlardan foydalangan holda o‘rgatish darslarning samaradorligini oshirishi bilan bирgalikda talabalarda qiziqishlar uyg‘otishi ham mumkin. Go‘ro‘g‘li turkumiga kiruvchi dostonarning ikki tarmoqqa bo‘lanishi Kavkazorti mamlakatlar versiyasi hamda O‘rta Osiyo mamlakatlari versiyalarini qiyosiy tarzda o‘rganish mavzuning yanada qiziqarli bo‘lishiga olib keladi. Bu ikki tarmoq o‘zaro umumiyl o‘xshashlikka ega bo‘lsada qamrab olgan voqye’lik

va epik an'ana va bosh qahramonlarga berilgan baho tubdan farq qilishi bilan ajiralib turadi.

Romantik dostonlarni gender texnologiyasi asosida o'qitish usullari

Ta'lim tizimining rivojlanishi, innovasion texnologiyalarning joriy etilishi mamlakatimizda ta'lim islohotlarining amalga oshirilishi folklor asarlarining o'qitilishiga yangicha yondashuvlar asosida darslarni tashkillashtirish imkoniyatini ochib berdi. Folklor asarlarini o'qitishda romantik turkumga kiruvchi dostonlarni o'qitishda gender texnologiyasidan foydalangan holda darslarni tashkil qilish o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajiralib turadi.

Hozirgi zamon ta'lim tizimiga gender atamasi ham kirib keldi bu esa qaysidir ma'noda yangi genderli asosda ko'ringan ta'lim deya atashadi. Bu qadriyatlar, maqsadlar va normalarning ta'lim muassasalarining ohirgi natijasiga kiritilganda bu tushuncha ma'nosi kengayib bordi. Ta'lim tizimida gender texnologiyasining krib kelishi xususida baxs – munozara yuritishdan avval gender tushunchasi va uning fanlardagi talqinini ko'rib chiqsak.

“Gender” atamasi 1968 yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan bo'lib, “jins” ma'nosini bildiradi. Jinsiy munosabatlar ilgari ham psixologiyada faol o'r甘ilgan bo'lsa-da, yangi atamaning paydo bo'lishi ijtimoiy fanlarda yangi oqimlarni yuzaga keltirdi. “Gender tarixi”, “Gender psixologiyasi”, “Falsafaning gender tomonlari”, “Gender antropoligiysi”, “Gender sosiologiyasi”, keyinchalik esa “Gender pedagogikasi” kabi fan tarmoqlari shakllandi.

“Gender” tushunchasi, avvalo, erkak va ayol, o'g'il va qiz bolalar munosabatlarining ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik tomonlarini qamrab oladi. Mazkur tushuncha yangi ijtimoiy qarashlar va madaniyatga bog'liqdir¹⁹.

Adabiyotlarda gender tushunchasining bir necha xil talqini

¹⁹ Гендер тадқиқоти асослари курси хрестоматияси. (Рус тилидан қисқар. Таржима). Олий ўкув юртлари учун. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – 411 б.

mavjud. Jumladan, faylasuflar uni quyidagicha tavsiflaydilar: “Gender” inglizcha so‘z bo‘lib, jinsga mansublikning ijtimoiy jihatlari ma’nosini anglatadi... Bu tushuncha erkaklar va ayollar o‘rtasida nafaqat biologik farqni, balki jamiyatning jinsiy taqsimotida ijtimoiy va madaniy jihatlarning butun majmuini hisobga oladi. Erkaklar va ayollarga tegishli ijtimoiy bog‘liqlik, xulq-atvor, kutilgan natijalarini ifodalaydi”²⁰. Sosiologlar esa, gender tushunchasiga quyidagicha yondashadilar: “Gender” ijtimoiy, biologik holat bo‘lib, erkak va ayolning jinsiy munosabatlari majmuasi hisoblanadi”²¹. Psixologlar ham gender tushunchasiga o‘ziga xos tarzda yondashganlar: “Psixikaning gender asoslari jins va u bilan bog‘liq ijtimoiy stereotiplar, shaxsning psixologik ko‘rinishidir”²². Olimlar orasida bu xususiyatlarning qaysi biri tug‘ma, qaysi biri esa ta’lim va tarbiya jarayonida shakllangani to‘g‘risida keskin munozaralar bormoqda. O‘g‘il va qiz bolalarning turli xalq madaniyatida har xil tarbiyalishi tufayli, ular mактабга kelgan davrdan boshlab jinslarning psixologik farqlari ma’lum bo‘ladi. Bu farqlar orasida psixologlar (A.Ye.Taras, 2002) qizlar o‘g‘il bolalardan matematik va vizual qobiliyatlari bilan ustunroq deb ta’kidlashadi. O‘g‘il bolalarda qizlarga qaraganda o‘ziga ishonch hissi kuchliroqdir. Qiz bolalar bir xillikka asoslangan qiziqarsiz faoliyatni yengilroq qabul qilishadi. O‘zgaruvchan muhitga tez moslashishadi. O‘g‘il bolalar har bir holatni umumiylar tarzda baholashsa, qizlar yaxshilab tekshirib, o‘rganib, keyin unga baho berishadi”. Pedagogik ma’noda gender – o‘g‘il va qiz bolalarning murakkab ta’limiy sosiomadaniy birligi bo‘lib, ularning xatti-harakati, mentaliteti va emosional xususiyatlari, o‘quv faoliyatidagi o‘zaro o‘xhash va farqli jihatlarini o‘z ichiga oladi²³.

“Gender” tushunchasi aniq psixologik-pedagogik xarakteristikalariga ega bo‘lmaganligi va pedagogikada yetarli darajada ishlab

²⁰ Фалсафа кисқача изоҳли луғат /Муаллифлар: М.Н.Абдуллаева, М.Абдурашидов, У.Абилов ва бошқ. Масъул мухаррир: А.Жалолов. – Тошкент, Шарқ, 2004. – 384 б.

²¹ Хрестоматия по курсу «Основы гендерных исследований» / Ред. О.А.Воронина. – Москва, 2000. – 216 с.

²² Фрейд З. Энциклопедия психоанализа. – Москва, 1996. – 402 с

²³ Педагогик атамалар луғати. – Тошкент: Фан, 2008. – 195 б.

chiqilmaganligi aniqlandi. Bu esa bizga “gender” tushunchasi mohiyatini ta’lim sohasi doirasida aniqlashtirish imkonini berdi. Bunday faraz, taxmin qo‘yildi: “genderni” erkak va ayol jinsidagi shaxslar xulq-atvorining shaxsning psixologik ustanovkalarini, jamiyat va davlat talablariga muvofiqlashgan xos xarakteristikalarini majmui sifatida qarash mumkin.

Psixologiyada “gender” “ijtimoiy-biologik” xarakteristika sifatida qaraladi va uning yordamida “erkak” va “ayol”ga ta’rif beriladi.

Falsafada “gender” kategoriyasi “kompleks mexanizm-texnologiya bo‘lib, u subyektni normativlik jarayonida ham erkak va ham ayol sifatida ta’riflaydi va odam ekspektasiyalarga muvofiq ravishda kim bo‘lishini rostlashni belgilaydi.

Sosiologiyada “gender” atamasi ta’limda, kasbiy faoliyatda, hokimiyatga erishishda, oilaviy rolda reproduktiv xulq-atvorda individual imkoniyatlarni aniqlaydigan ijtimoiy status sifatida talqin qilinadi.

Xalqaro feministik hamjamiyat tomonidan gender tushunchasi “odamlarga jamiyat tomonidan ularning biologik jinsiga bog‘liq ravishda beriladigan barcha ijtimoiy va madaniy normalar, qoidalar va rollarni belgilash uchun foydalaniladigan” tushuncha sifatida tan olingan.

Muammoning nazariy tahlili va eksperiment ishining boshlang‘ich tajribasi genderli yondashuv asosidagi ta’lim modelining quyidagi tamoyillarini ta’riflash imkonini berdi:

- jismoniy, psixologik, ijtimoiy, ma’naviy salomatlikni saqlash tamoyili;

- tabiatga muvofiqlik tamoyili – u erkak va ayol individualligini qaror toptirish, jinslarning o‘zaro munosabat madaniyatini, erkaklik va ayollikni tarbiyalashga yo‘naltirilgan ta’lim mazmunida amalga oshiriladi;

- majmuaviylik tamoyili u vositalar majmui va integrativ dasturlardan foydalanishda namoyon bo‘ladi.

Integrasiya jarayonlari xilma-xil shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

- tanlov bo‘yicha o‘quv fanlari majmuasini yaratish;

- jins faktorini hisobga olib, ta’lim shakllari va metodlarini yaratish;

- yangi ta’lim fezosini yaratish;

- ijtimoiylik tamoyili – u maktab bitiruvchilarida odimlar bilan

o‘zaro munosabatlarni qurish uquvlarini shakllantirish, o‘z hulq-atvor strategiyasini ishlab chiqish konkret hayotiy muammolarni hal qilish uquvlarini shakllantirishga qaratilgan. Bu ta’riflangan tamoyillar bir jinsli sinflarda ta’lim oluvchi qmzlar va o‘smlilar uchun xos umumiy xislatlarni aniqlash imkonini beradi. Bular jumlasiga quyidagilar xosdir.

- o‘qishda psixologik to‘siqlarning yo‘qligi;
- jismoni va ma’naviy takomillashuvga ehtiyoj;
- erkak va ayol individualligini qabul qilish, uning betakrorligi va noyobligi;

- jinslar orasida do‘stona munosabat yaratish va o‘qitish;

- o‘z kuchlariga ishonch, o‘z-o‘zi bo‘lish qobiliyati

Romantik dostonlarni gender texnologiyasi yordamida o‘qitish hususida fikr yuritishdan oldin romantik dostonlar qanday dostonlar uning tarkibi tuzilishi xaqida fikr yuritsak.

Romanik dostonlarning tuzilishi nihoyatda murakkab. Qahramonlik dostonlarida romanik elementlar bo‘lganidek, romanik dostonlardan qahramonlik elementlari, jangnomalar xususiyatlari ham mustahkam o‘rin olgan. Hatto, bir dostonda bir necha mavzu bavarav ishlangan bo‘lishi mumkin. Shularni hisobga olib, bu tip dostonlarni:

- a) qahramonlik-romanik;
- b) ishqiy-romanik;
- v) maishiy-romanik dostonlar kabi ichki turlarga bo‘lish maqsadga muvofiqdir.

Qahramonlik-romanik dostonlarda (“Rustamxon”, “Yakka Ahmad”, “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi bir qancha asarlar) qahramonlik yo‘nalishi ustun tursa, ishqiy-romanik dostonlarda (“Kuntug‘mish”, “Go‘ro‘g‘li” turkumining so‘nggi xalqalari) sevgi mojarolari, sarguzashtli voqyealar tasviriga alohida e’tibor beriladi. Maishiy-romanik yoki ijtimoiy-maishiy dostonlarda (“Sohibqiron” “Orzigul” “Erali bilan Sherali” va boshqalar) maishiy turmush bilan bog‘liq turli-tuman tafsilotlarni bat afsil tasvirlash yetakchilik qiladi. Bu xil dostonlarda xalqimiz va baxshilarning dunyoqarashlari yanada yorqinroq aks etgan.

“Kuntug‘mish” dostoni o‘zbek xalq dostonlari orasida g‘oyaviy-badiiy jihatdan yetuk asarlardan biridir. Dostonning yozib olingan

va ijro etilgan variantlari juda ko‘p. Uning xilma-xil ko‘rinishdagi variantlari ko‘pligining boisi shundaki, ilgari baxshilarining iste’dodiga, ushbu dostonni qanday aytishiga qarab baho berilgan, natijada barcha baxshilarimiz “Kuntug‘mish” dostonini to‘la o‘zlashtirishga intilganlar. Dostonning Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Nurmon Abduvoy o‘g‘li, Yegamberdi Ollamuroddan yozib olingan variantlari mavjud. Muhabbat insonni ezgulikka yetaklaydi, sevgan kishi har qanday qahramonlikka qodir hisoblanadi. Biz o‘rgangan “Kuntug‘mish” dostoni sevishganlar haqida chiroyli asar, uning janrini ishqiy- qahramonlik dostoni, deb belgilash mumkin. Chunki Kuntug‘mish dostonda katta qahramonliklar ko‘rsatadi: yurtga qiron keltirgan ajdarni yengadi, tosh bostirib qo‘yilgan kigiz ostidan chiqib ketadi. Bu qahramonliklar shunchaki o‘zini ko‘rsatish emas, avvalo, xalqni ajdar ofatidan qutqazgan bo‘lsa, sevikli yori, bolalarini deb g‘oyat tang bir holatda yovlari o‘rab-chirmab, ustidan tosh bostirib ketgan kigiz orasidan xalos bo‘lib chiqadi.

Dostonning qisqacha mazmuni quyidagicha: No‘g‘ay yurtida Avliyoyi Qoraxon ismli, Qilichxon laqabli podsho bo‘lib, Kuntug‘mish uning yolg‘iz o‘g‘li bo‘ladi. Kuntug‘mish o‘n to‘rt yoshga to‘lguncha ilm-u hunar o‘rganadi, kasb-kamolot hosil qiladi. O‘n to‘rt yoshdan keyin esa qilichbozlik, miltiq otish, nayzabozlik, ko‘pkari chopish kabi sipohilik hunarlarini o‘rganadi, xullas, har tomonlama komil shahzoda bo‘lib yetishadi. Zangar degan shaharning Buvraxon degan podshosi bo‘lib, uning Shoир va Tohir ismli vazirlari bor edi. Vazirlar bir-birlari bilan juda inoq edilar, ular: “Bizlarga farzand bersa, o‘g‘il bo‘lsa qo‘lqanot bo‘lsin, qiz bo‘lsa do‘st bo‘lsin”, deya niyat qilar edilar. Kunlardan bir kuni shoир vazirning xotini qiz ko‘radi. Tohirning oilasida o‘g‘il tug‘iladi. Qizning otini Xolbeka, o‘g‘ilning otini Xolmo‘min qo‘yishadi. Lekin Xolmo‘minning onasi to‘satdan vafot etadi, o‘g‘il go‘dakni Xolbekaning onasi emizishga majbur bo‘ladi, natijada ular “shirxo‘ra” (bir onani emgan) bo‘lib, “nikoh yurmaydigan” bo‘lib qoladilar. Xolbeka o‘n to‘rt yoshga yetgach, uning husni kamoli ovozasi olamga yoyiladi. U go‘zal, ayni paytda aqli, nard o‘yiniga mohir qiz bo‘lib yetishadi. Unga barcha mamlakatlardan sovchilar kela boshlaydi. Xolbeka sovchilarga:

“Har kim meni olaman deb kelsa, oldiga nard o‘yinini qo‘ya-

man, o‘ynayman, yutsa tegaman, yutdirsa so‘yaman”, deb shart qo‘yadi. Hatto, shahar podshosi Buvraxonga ham shu javobni aytadi. Podsho g‘azablanib, shaharga Xolbeka deb kelgan odamni tutib qatl qildirishga farmon beradi, shunday qilsam to‘rt-besh yildan keyin menga tegishga majbur bo‘ladi, deb o‘ylaydi. Syujet ijobiy va salbiy qahramonlar kechinmalari ortidan favqulodda badiiy lavhalarga boy izchillikda bayon etilgan voqyealar bilan boyitilgan. Asarda boshqa asarlarga qaraganda an‘anaviy motivlardan tush motivi va islomiy motivlarning o‘rni katta. Islomiy motivlar Avliyoyi Qoraxon, Kuntug‘mish, mulla kabi obrazlarda hamda Qur‘oni Karimga do‘sstar qasami, tush tasviri, chiltanlar tasviri kabi voqyealar rivojida namoyon bo‘ladi.

Xolbeka va Kuntug‘mish tush ko‘radilar, ular tushlarida birlarining qo‘liga uzuk taqishib, uylangan emishlar. Shundan so‘ng Xolbeka bir mohir suratkashga o‘z rasmini chizdiradi va uni sandiqqa solib, No‘g‘ay yurtiga oqizib yuboradi. Sandiq oqib borib daryo sohilida ov qilib yurgen Kuntug‘mish qo‘liga tushadi. Kuntug‘mish Xolbeka visoliga yetish uchun Zangar yurtiga otlanadi, bu yurtga kelib Xolbeka bilan topishadi, so‘ng ko‘p sarguzashtlarni boshidan kechiradi: Buvraxon qo‘liga tushib, o‘limga hukm qilinadi, dahshatli ajdarni o‘ldiradi, xiyonatkor Azbarxo‘ja tufayli xotini, egizak o‘g‘illaridan vaqtinchalik judo bo‘ladi. Doston so‘ngida xotini, farzandlari Gurkiboy va Mohiboy, otasi Qoraxon bilan topishadi.

Dostonning bosh qahramoni - Kuntug‘mish yolg‘iz, erka o‘g‘il bo‘lishiga qaramasdan aqli, bilimli, jasoratlari, elga g‘amxo‘r, xotini, bolalariga mehribon, vafodor yigit. Kuntug‘mish va Xolbeka bir mo‘jiza bilan Buvraxon jazosidan omon qolib, sahroda och, tashna qolishganda hayotdan umidini uzgan yori Xolbekaning “Meni tashlab ketaver, yo‘qsa o‘zing ham halok bo‘lasan”, degan iltijosiga “Bir g‘ayrat qil, yo‘limiz yaqin qoldi”, deb dalda beradi, unga vafodorligini quyidagicha bayon qiladi:

Polat nayza qor ostida yotarmi, Temir nayzang egovlasang o‘tarmi,

Sening to‘rang nomardlardan emasdir, Mard o‘g‘lon sevdigin tashlab ketarmi?

Kuntug‘mish o‘z maqsadiga sodiq, har qanday sharoitda tush-kunlikka tushmaydigan inson. U nomsiz, poyonsiz tog‘ darasidan

vataniga boradigan yo‘lni rosa izlaydi, bu orada egizak farzandli bo‘ladi, ular uch yoshga to‘lganda ham biror bir el daragini topolmaydi. Xullas, Kuntug‘mish fe’l-atvorida siz havas qiladigan, ergashadigan insoniy sifatlar juda ko‘p. Dostonni sinchiklab mutolaa qilsangiz, bunga o‘zingiz amin bo‘lasiz.

Xolbeka siymosi ham dostonda baxshi bobomiz tomonidan alohida mehr, iliqlik bilan tasvirlangan. U o‘z so‘zida turadigan, barcha hunarlarga mohir qiz. O‘zi qanchalik bir ishga mohir bo‘lsa, bo‘lajak jufti halolidan ham shuni talab qiladi. Shu ma’noda Xolbeka o‘z xulqi va fazilatlari bilan har jihatdan Kuntug‘mishga teng va munosib bo‘lgan inson. U haqiqiy muhabbatni tan oladi va unga ishonadi, e’tibor bering: u o‘z suratini chizdirib, Kuntug‘mish yurtiga yuborar ekan, agar “Shu ko‘rgan tushim rahmoniy bo‘lsa, oshiq-ma’shuqlik avvaldan pok bo‘lsa, Xudoyo xudovando shu sandig‘im senga omonat, to‘radan boshqasiga tegmasin”, – deydi. Xolbeka ham oriyatli, g‘ururi baland qiz. Garchi u Kuntug‘mishni tushida sevib qolgan, uchrashganda esa yigitni ko‘rib biroz muddat ixtiyorini yo‘qtgan bo‘lsa-da, uning husniga talabgor barcha shoh-u shahzodalarga bergen va’dasi, ya’ni faqat nard o‘yinida g‘olib chiqqanga tegaman, degan fikridan qaytmaydi. Kuntug‘mish men uchun mashaqqat chekib kelibdi, deb unga tegib ketavermaydi, o‘zi ko‘ngil qo‘yan yigitning el-yurt oldida ham yuzi yorug‘ bo‘lishini istaydi.

Dostonda Kuntug‘mishning o‘g‘illari Gurkiboy va Mohiboy xarakterlari ham chiroyli va ta’sirchan tasvirlangan. Gurkiboy bosiq, vazmin, aql bilan ish ko‘radigan bola bo‘lsa, Mohiboy biroz shaddod, biroz quv yigit. Biroq ikki aka-uka bir-birlariga mehribon, ota-onalariga fidoyi yigitlar. Ular mehnatsevarlik va aql bilan ish ko‘rganlari uchun boshlariga tushgan qiyinchiliklarni yengadilar.

Asarda Azbarxo‘ja, Buvraxon, Zamonqul, Xolmo‘min kabi qahramonlar qiyofasi o‘ziga xos tarzda yoritilgan. Azbarxo‘ja dastlab Kuntug‘mish bilan do‘splashadi, so‘ng o‘z manfaatini deb unga xiyonat qiladi. Buvraxon o‘ziga bino qo‘yan, qahri qattiq podsho, biroq uning ko‘ngilchan yekanligini ham ko‘ramiz. Buvraxon avval Kuntug‘mish va Xolbekani o‘limga mahkum etadi, keyinroq esa xiyonati tufayli mashaqqatlarga duch kelishganini eshitib, ularni afv etadi. Azbarxo‘jani jazolaydi. Dostondagi Qosim, Xolmo‘min,

Mullavachcha, Zamonqul va boshqa obrazlar ham asarda o‘z o‘rniga ega, ularsiz Kuntug‘mish va Xolbeka taqdirini tasavvur qilish qiyin.

Ijobiy qahramonlar	Salbiy qahramonlar	Dostonda joy nomlari	Hayvon nomlari
Kuntug‘mish Xolbeka Xolmo‘min Gurkiboy Mohiboy Qoraxon Qosim	Azbarxo‘ja Zamonqul Kampir enaBuvraxon	No‘g‘ay Zangar Mug‘ol ZarchamanOlatog‘ Oqsuv.	humo to‘yma ajdarbo‘ri baliq

Umuman, Kuntug‘mishning dostonidagi hayoti qahramonlik bilan kechadi. Uning Xolbeka visoliga yetishish uchun uzoq safarga otlanishi, yo‘lidagi barcha to‘siq-g‘ovlarni yengishi haqiqiy insoniy jasorat, fidoyilikdir. Dostonidagi Xolbeka, Gurkiboy va Mohiboy harakatlarida ham qahramonlik belgilari mavjud. Axir Xolbekaning sevgan yori, bolalari uchun jonini berishga tayyorligi, Gurkiboyning ukasi uchun o‘zini fido qilishga shayligi (uning dor ostidagi so‘zlarini eslang) qahramonlik emasmi?!

Birgina “Kuntug‘mish” dostoni emas, boshqa dostonlarda ham asar personajlari turli qahramonlik namunalarini ko‘rsatadilar, bu qahramonliklar odamlarning og‘irini yengil qiladi, el-yurtgaro‘shnolik keltiradi. Baxshi bobolarimiz sevib kuylagan “Kuntug‘mish” kabi ishqiy-qahramonlik dostonlari bizni muhabbatdek ezgu tuyg‘ularni qadrlashga undaydi, fidoyilik, qahramonlikka chorlaydi, chunki ishq-muhabbat, qahramonlik, jo‘mardlik doimo egizak tushunchalardir.

Mana shunday ishqiy romantik dostonlarni talabalarga yetkazib berishda bir qator gender texnologiyalarining ahamiyati sezilarla darajada bilinadi.

1. Dostonlarda jinsni kontekstlashtirish metodikasi mavjud bo‘lib bunda folklor asarlarini o‘qitishda eraka va ayol jinsinining voqye‘alardagi rolini solishtirish orqali tushuntirib berish. Dostonning turli qismlarida eraka va ayolning rollari solishtiriladi. Masalan: Kuntug‘mish dostonida Xolbekaning sahroda yorini tashlab ketishini aytgan so‘zları yo‘qsa Kuntug‘mishning halok bo‘lishini aytgani Kuntug‘mish esa mard va jasur vafodor yorini tashlab ketmasligi solishtiriladi. Vafodorlik belgisining jinsga nisbatan belgilari ochib berilishi.

Rollarning ijro etish mahorati Buvrahonning ayorligi uning

yomonligi orqali gender ijrochiligin ko‘rsatib berish mumkin.

Gender texnologiyasining yana bir turi quvvat dinamikasi bo‘lib, jins texneologiyasining tahlil qilish imkoniyatini beradi. Romantik dostondarda jins konstrusiyasi sifatida asboblar, qurollar, va boshqa texnologiya shakllari asosan kimlarga tegishli ekanini tahlil qiladi. Masalan qurollarni erkaklarga tegishli ekanliklari, to‘quv yoki pishirish asboblari kabi texnologiyaning boshqa shakllari ayollik bilan bog‘liq. Bunda quvvat dinamikasiga e’tibor berilganini tahlil qilish orqali dostonning ko‘zga ko‘rinmagan o‘ziga xosliklarini ochib berish mumkin. Masalan: ushbu texnologiya orqali Xolbekaning narda o‘yinini mukammal bilishi, ushbu o‘yin orqali erkaklardan ham ustun kelishini tahlil qilish, yoshlarning kreativ va tanqidiy fikr bilidirish qobilyatini shakllantiradi.

Munozara ko‘rsatmalari: texnologiyadan foydalanish an’anaviy gender rollarini qanday kuchaytiradi yoki qiyinlashtiradi? Texnologiyani kim boshqaradi va bu jinslar o‘rtasidagi kuch munosabatlari haqida nima deydi?

Faoliyat: qurol yoki sehrli vositalar kabi texnologik obyektlarning jinsi kodlanganligini tahlil qiling. Masalan, erkak qahramonlarning qurol ishlatishini ayollarning sehr yoki hiyla ishlatishiga qarshi.

Ayol tanasi texnologiya sifatida: dostonlar ko‘pincha ayol tanasiga siyosiy yoki sehrli kuch sifatida qanday munosabatda bo‘lishini ko‘rib chiqish. Ayol tanasi diplomatiya uchun vosita bo‘lishi mumkin (masalan, Xolbeka), nasab uchun idish (masalan, Buvraxon) yoki o‘zida kuch manbai (masalan, ma’buda yoki jodugarlar). Qahramonlik rollarida ishtirot etish turiga qarabaynan ayol va erkak qahramonlarning tanalarida nimalar aks etgani va ularga qanday gender xislatlar berilganiga bog‘lab darslarni tashkil qilish qiziqarli va o‘zgacha dars bo‘lishini ta’minlab beradi.

Faoliyat: talabalarga ayol tanasining turli xil tasvirlarini o‘rganib chiqadi, uning eposning kattaroq hikoyasiga xizmat qilishda biologik va siyosiy texnologiya sifatida qanday ishlashini yoritib berishlari kerak bo‘ladi.

3. Zamonaviy texnologiyalar orqali jinsnai talqin qilish epik asarlarni jinsga asoslangan tahlilini o‘tkazish uchun ma’lumotlarni vizualizasiya qilish vositalari yoki raqamlari arxivlar kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, masalan, jinsi atamalarning

chastotasini tahlil qilish uchun so‘z bulutlarini yaratish yoki erkak va ayol belgilarining harakatlarini kuzatish uchun raqamli xaritalardan foydalanish orqali bax munozaralar tashkil qilish.

Faoliyat: talabalar erkak va ayol belgilarining qanday tasvirlanganligi yoki ular qanday texnologiya turlari bilan o‘zaro bog‘liqligi naqshlarini aniqlash uchun matnning tahlillarini o‘tkazadi.

Folklorshunoslikdagi gender texnologiyasi bu dostonlardan foydalanishda gender indikatorlari va ijtimoiy rollar bilan shakllanish usullarini ko‘rib chiqadigan fanlararo tadqiqot sohasi hisoblanadi. Unda eposlarda gender rollarini qanday aks ettirishi va kuchaytirishi, shuningdek, gender me’yorlariga qarshi turish yoki ulardan qanday foydalanish mumkinligini ko‘rsatib beradi. Romantik usuldagagi folklor dostonlarini gender texnologiyasi yordamida o‘qitishda barcha talabalar munozaralarda qatnashishlari va o‘z fikrlarini bildirishlari mumkin bo‘lgan xavfsiz va inklyuziv muhit yaratish asosiy shartlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Talabalarda chakashliklar bo‘lishi mumkin. Shuning uchun gender indikatorlarini yaxshi bilishlari talab etiladi. Gender tarafkashlik yoki tahlillarni aniqlash uchun talabalarga dostonlarni tahlil qilish va tanqid qilish ko‘nikmasini shakllantirish muhimdir.

Eposlardagi gender tarafkashliklari folklor dostonlarini o‘qitish materiallarida jinsni noholis yoki sterotipik tarzda tasvirlash yoki gender rollari va sterotiplerini mustahkamlash usullarini anglatadi. Folklor dostonlarini gender tehnologiyasi yordamida o‘qitishda inklyuziv muhit, har qanday jinsga moyillikni aniqlash va hal qilish juda muhimdir.

Shaxsni shakllantirishda har doim o‘zaro bog‘liqlik mavjuddir. Shuning hozirgi kunda o‘qitish tizimida insonning shaxsini shakllantirishda gender indentifikasiyaning shakllanishi bilan shaxsning shakllanishiga ta’sir qiluvchi barcha shartlar, omillar, usullar, vositalar gender texnologiyasida mavjuddir. Shuning uchun ushbu texnologiyaning bugungi kundagi roli va imkoniyatlari ortib bormoqda. Gender texnologiyasi gender tasvirlarni va jinsni yaratishga yorda beradi. Bunga esa sterotipler, ko‘rsatish, o‘rganish, takrorlash va nazorat qilish orqali erishiladi.

Romantik dostonlarni gender texnologiyasi yordamida o‘rganish, jinsga hos bo‘lgan ijtimoiy rollarni aniqlash va tahlil qilish

imkoniyatini beradi. Ma'lumotlar transformasiyasini tushunishlarga turki bo'ldi, zamonaviy dunyoda erkak va ayolning ijtimoiy rollarini, shuningdek yoshlarning gender indentifikasiyasini shakllantirishda bu texnologiyaning roli kattadir.

Obyekt dostonda erkak va ayollarning mashxur obrazlari bo'lgan syujetlarni kontent tahlil qilish bilan birgalikda ularning dostonning mukammal tushunishi va tahlil qilolish qabilyaitini shakllantirib beradi.

Go'ro'g'li turkumidagi dostonlarni gender texnologiyasi orqali o'qitishning yana bir muhim belgilaridan biri qaxramonliklarning erkak jinsiga mansubligi, qaxramonliklarda erkak xususiyatlarini, jins bilan bog'liq xususiyatlarini ochib berishda bu texnologiyaning roli va ahamiyati katta hisoblanadi.

Xalq ertaklari va bolalar folklorini janriy xususiyatlar asosida o'qitish

So'z san'atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo'lishi bilan yuzaga kela boshladi. Ertak termini Mahmud Koshg'ariyning XI asrda yozilgan "Devoni lug'otit turk" asarida etuk shaklida uchraydi va biror voqyeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi. Hozir folkloristik termin sifatida ertak so'zi qabul etilgan bo'lsa-da, Surxondaryo, Samarqand, Farg'ona o'zbeklari orasida matal deb yuritiladi. Buxoro atrofidagi rayon va qishloqlarda, shuningdek, boshqa yerlardagi ikki tilda (o'zbek va tojik tillarida) so'zlashuvchi aholi orasida ushuk deb ataladi. Xorazmda varsaki, Toshkent shahri va uning atrofida cho'pchak termini ham ishlatiladi. O'zbeklar orasida ertak, matal, cho'pchak terminlaridan boshqa yana hikoya, afsona, o'tirik, tutal kabi atamalar uchraydi. Alisher Navoiy asarlarida afsona, ertak va masal ma'nolarida cho'rchak so'zi ishlatilganki, u ham cho'pchak so'ziga to'g'ri keladi.

Cho'pchak kichik hikoyalarni to'plash, hikoya qilish, topish, izlash ma'nosida bo'lgani uchun ba'zan topishmoq o'rniда ham qo'llangan. **Ertak** xalq og'zaki badiiy ijodining eng qadimiy, ommaviy, hajman yirik, katta-yu kichiklar uchun baravar qiziqarli bo'lgan janridir. Ular juda uzoq o'tmishda ibtidoiy ajdodlarimizning

mifologik dunyoqarashi, qadimiy urf-odatlari, marosimlari asosida paydo bo‘lgan. Ertaklarda, odatda, xalqning maishiy turmushi va eng olivjanob insoniy fazilatlari haqidagi orzu-o‘ylari xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida bayon etiladi.

Ertaklar professional ijrochilikka asoslangan. O‘tmishda ertaklar yilning ma’lum davrida, belgilangan paytda ijrochilik salohiyatiga ega bo‘lgan yoshi ulug‘, dono, hurmatli va e’tiborli kishilar tomonidan aytildi. Odatda, bunday professional ijrochilar ertakchi deb yuritiladi.

Xalq ertak aytmoqqa jiddiy qaragan. Shu haqdagi nuqtayi nazarini “Ertak ermak emas, ertakchi og‘ziga kelganini demas” maqolida ifodalagan. Ertak ertakchi tomonidan yo bir kishiga, yo butun bir jamoaga qarata aytildi. Bunda aytish mohiyatan ijroga teng. Aytaylik, ertakchi tinglovchilar diqqatini qozonmoq uchun ertak mazmuniga mos ruhiy holatlarga kiradi, ertak sirli olamini ta’minalash uchun ovoz jilosiga, yuz va gavda harakatlariga (mimika va pantomimikaga) alohida e’tibor beradi, ertakni baqirib-chaqirib aytmaydi, balki goh shivirlab, goh ovozini ko‘tarib, ko‘zlarini har xil holatga solib, yumshoqlik bilan samimiy hikoya qiladi. Hayvonlarga xos ovozlarni taqlid qilsa, mifologik obrazlar ovozi vahmkor ohangda bo‘lishini ta’minalaydi. Shu taxlitda butun bir ertakni bir o‘zi ijro etadi, asardagi ruhiy olamni o‘z kechinmalari bilan to‘ldiradi va hayajonbaxshligini ta’minalaydi. Shu ijro xususiyatiga ko‘ra ertak ijrochiligi xalq yakka aktyor teatrini eslatsa-da, aslida har qanday dekorasiyalardan va boshqa sahnaviy atributlardan xoliligi bilan undan farq qiladi.

Ishlab chiqarishning dehqonchilik turi yetakchilik qilgan davrlarda ertak, odatda, dehqonlarning dala yumushlari tugagan paytda kuz va qish mavsumlarida, uzun va zerikarli oqshomlarda aytildi va bu o‘ziga xos an’ana tusini olgan. Ertakchilik oqshomlari shomdan tonggacha davom etgan. Shundandirki, xalqning o‘zi bu hodisani “Doston kunda aytildi, ertak tunda” degan maqolida maxsus ta’kidlab qo‘yishni unutmagan.

Garchi ertak eng qiziqarli nuqtasiga – kulminasiyasiga kelib qolganiga qaramay, tong otgan zahoti uni aytishdan to‘xtanilgan. Xususan, sehrli-fantastik ertaklar ijrochiligidagi bunga qat’iy amal qilingan. Sababi sehrli-fantastik ertaklarda mavjud dev, pari, ajina

singari qorong‘ulik olamining mavjudotlari yorug‘lik olamiga chiqib, insonlarga, ayni paytda ertak tinglovchilariga ziyon-zahmat yetkazishlari mumkin degan e’tiqod tufayli shunday yo‘l tutilgan. Qolaversa, ertaklarga xos sirlilikning yo‘qolishidan, uning moddiy hayot qobig‘iga singib ketishidan qo‘rqligan. Shomdan boshlanuvchi qorong‘ulik tonggacha hukmron bo‘lganligidan ertaklar olamiga xos sirlilikni kuchaytirgan omilga aylangan. Ertakning kechqurun aytilishi an’anasi aslida ana shu asosda qaror topgan.

Ertaklarning ayrim qismlari bevosita dramatik harakat yordamida ijro qilinadi. Bunday ijroga amal qilinmasa, ertakning badiiy-estetik qimmati pasayadi. Ertaklar ijrosi uch xil usulda tashkil etilishi mumkin:

- a) teatrlashtirilgan shaklda;
- b) deklamasion shaklda;
- v) ohangga solingan shaklda.

Ertaklarda va ular ijrochiligidagi tayyor qolipga aylangan an’anaviy birikmalar juda ko‘p uchraydi. Ular o‘quvchi va tinglovchini qiziqtirishdan tashqari, voqyealarni bir-biriga bog‘lashda, uzoqni yaqin qilishda muhimdir. Chunonchi, “qirq hujra bor, hujraning qirqinchisiga kirma”, “qilichni bir silkitdi, qilich qirq gaz cho‘zilibdi”, “endi so‘zni boshqa tomondan eshiting”, “shohning qahri kelib, ilonday zahri kelib”, “oy desa og‘zi bor, kun desa ko‘zi bor, shirindan shirin so‘zi bor”, “suv ichsa tomog‘idan, sabzi esa biqinidan ko‘rinadi”, “kulsa – og‘zidan gullar sochilar, yursa oyog‘idan tilla sochilar”, “yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, tog‘-u sahro, cho‘l yurib...” kabilar shular jumlasidandir.

Ertak ijrochiligining o‘ziga xos tabu-taqiq va irimlari bor. Chunonchi, ertakchi ertak aytayotganda eshikni mahkam tambalagan, o‘choqqa olov yoqqan, yoniga achchiq va keskir narsalar, shuningdek, non, suv, tosh singari narsalarni qo‘yan.

O‘zbekistonning turli joylarida ertakchilik maktablari bo‘lgan. Ularda ustoz ertakchilar o‘zlariga munosib shogirdlar tayyorlagan. Shogirdini ertak aytish san’atining nozik qirralari bilan tanishtirgan va unga ertak ijrochiligining sir-sinoatlaridan maxsus saboq bergen.

Ertak epigrafi, an’anaviy kirish qismi va boshlamasi ertakchining mahoratini baholashga xizmat qiladi, ular, asosan, saj’ orqali yaratilgan bo‘lib, ertak ohangdorligining jozibasini ta’minlaydi,

ertakka ta'sirchanlik baxsh etib turadi.

Mahmud Koshg'ariy "Devoni lug'otit turk" asarida biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish ma'nosini "etuk" so'zi anglatishini yozadi. Olim bu so'z aslida biror narsani hikoya qilishdan olingani haqida xabar qiladi. O'zbeklar qadimgi paytlardagi voqyealarni tafsilotlari bilan aytib berishni "ertak" deb ataganlar. Atamaning qadimiyligini qozoq, qirg'iz, turkman xalqlarida ham bu so'z aynan shu ma'noda qo'llanilishidan bilsa bo'ladi. Ertak yurtimizda shu qadar ko'p va xilma-xil mavzularda tarqalganki, ayrim hududlarda uni o'zlaricha ataganlar. Xususan, ayrim joylarda "shuk", "ushuk", "matal", "cho'pcha, "cho'r-chak" deb ham yuritilgan. Bizning ertaklarimiz mavzusiga, til vositalaridan foydalanish usuliga, voqyealar tizimiga ko'ra shartli ravishda uch yirik turlarga bo'linadi:

Hayvonlar haqidagi ertaklar.

Sehrli ertaklar.

Maishiy ertaklar.

Bulardan tashqari ertaklarning bir xil turlari bor bo'lib, ular asosan hajm, mavzu, maqsad jihatidan bolalar folkloriga oid ertaklarni tashkil etadi.

Afsona, rivoyatlar matnini ijro etishda alohida tayyorgarlik talab qilinmasligini aytib o'tganmiz. Ertaklarni ijro etishda ham maxsus iste'dodga ega bo'lish u qadar shart emas, ammo xalqimizda ertak aytish an'anasi alohida ertakchilarining ijrolari jozibasi qiziqishni kuchaytirishi bilan ajralib turishini tasdiqlaydi. Qo'qondan Zavonbibi Sarimsoqova, Toshkentdan Sharif Musayev, Xorazmdan Mahfura Sobirova, Andijondan Murodilla Ziyodov, Namangandan Abdullaxo'ja kabi yuzlab mashhur ertakchilarining nomlari ular yashagan hudud atrofida mashhur bo'lgan. Ertakchilar o'z ijrolarini alohida vaziyatlarda amalga oshirganlar. Natijada, ertak aytish an'anasi shakllangan. Ular ertak aytishdan oldin oldilariga tuz, isiriq, taroq, supurgi, suv, non kabi narsalarni qo'yib chiqqanlar. Ijro davomida esa ulardan ko'rgazmali ashyo sifatida foydalanganlar va ertak ta'sir kuchini oshirishga uringanlar. Ertakchilarining kasb-korlari ham ertak mazmuniga aloqador bo'lgan. Masalan, chevar ertakchi aytgan asarlarda chevar; mulla ertakchilar aytgan namunalarda ilmga aloqador qahramonlar ishtirot etgan. Bu bilan ijrochilar o'z kasblarini ham yo'l-yo'lakay targ'ib qilish maqsadini

nazarda tutgan bo‘lishlari mumkin.

Hayvonlar haqidagi ertaklar. Uzoq qadimgi zamonlarda ajdodlarimiz tuya, ot, ayiq, bo‘ri, ilon, qaldirg‘och kabi hayvon va qushlarni o‘zlariga homiy deb bilganlar. Bu hayvon va qushlar avval miflarda, keyin afsona, rivoyatlarda qahramon sifatida ishtirok etganlar. Ertaklar yaratila boshlaganda esa mazkur an’ana bu janrga ham meros bo‘lib o‘tgan. Shuning uchun hayvonlar haqidagi ertaklarning yaratilish davrini ularda obraz sifatida ishtirok etayotgan hayvon va qushlar nomiga, voqyealar tavsifiga va harakat doirasiga qarab belgilash mumkin. *Masalan*, “Quyosh yerning pahlavoni” ertagida ona ayiq Rustamni parvarish qiladi, uning hayotida alohida o‘rin egallaydi: Rustam va otasi yamoqchi cholga qo‘lidan kelganicha yaxshiliklar qilib, dushmanidan asraydi. O‘zbek xalq ertaklari haqida maxsus o‘rganish ishlarini olib borgan Mansur Afzalov “Ilon og‘a” ertagini alohida ajratib ko‘rsatadi. “Ilon-kuyov niqobini olsa, insonga aylanadi. Qiz ilonning niqobini kuydirib yuborsa, u kaptar bo‘lib uchib ketadi. Ilon og‘aning onasi va xolasi yalmog‘iz kampir bo‘ladi. Ular Ilon og‘a bilan qizga ko‘p to‘sqinlik qiladilar. Lekin Ilon og‘a va qiz o‘z tadbirlari orqali yalmog‘iz kampirni yengib, murod-maqsadlariga yetadilar”²⁴.

Bu misollarda ayiq va ilonning yovvoyi hayvon sifatidagi belgisi emas, balki, totem tushunchasi ta’siridagi insonga homiylik qilish xususiyati yetakchilik qiladi. Ma’lum bo‘ladiki, qadim zamonlarda totem hayvon sifatida e’zozlanuvchi jonivorlar ishtirok etganlar bu janrga mansub qadimiy asarlar sifatida baholanishi mumkin ekan.

Hayvonlar haqidagi ertaklarning yana bir turini ulardagi belgilarni izohlashga atalgan asarlar tashkil etadi. Bunday ertaklarning yaratilishi go‘yo qarg‘aning nima uchun qora ekanini, kiyikning dumi nega to‘mtoq ekanini yoki nima uchun musichaning ko‘kragi chakichlangandek ko‘rinishini izohlashga bag‘ishlangan asarlarni eslatadi. Ular qatoriga “Kiyik bilan kadi”, “Xo‘roz bilan tulki” kabi namunalarni kiritish mumkin.

“Kadi kiyikni qo‘rqitadi. Kiyik kadidan o‘ch olmoqchi bo‘ladi va uni dumiga bog‘lab cho‘ktiradi. Kadi kiyikni suv tagiga tortadi,

²⁴ Imomov K., Mirzayev T., Sarimsqov B, Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T., «O‘qituvchi», 1990. 192-bet.

kiyik-qirg‘oqqa. Oxiri kiyikning dumi uzilib, to‘mtoq bo‘ladi. Kiyik dumi yo‘qligini masxara qilgan barcha kiyiklarning dumini bir-biriga bog‘lab, “mergan kelyapti”, - deb qochadi. Dumi bog‘liq kiyiklar turli tomonga qochadilar va dumlaridan judo bo‘ladilar. Shunday qilib, kiyiklarning dumlari to‘mtoq bo‘lib qolgan”. Ertak kiyiklar dumining kaltaligiga javob tariqasida paydo bo‘lgan²⁵.

Boshqa xalqlar og‘zaki ijodidagi ertaklarda ham turli hayvon va boshqa jonzotlarning tashqi ko‘rinishi, ularning xususiyatlari haqida ana shunday ertaklar yaratilgani ma’lum. Jumladan, yoqut, tuva, qirg‘iz ertaklarida bunday holat alohida ko‘zga tashlanadi. Taxmin qilishimiz mumkinki, dono xalqimiz bu ertaklarni yosh bolalar tomonidan takror va takror aytildigan “nima uchun?” savollariga javob tarzda ermak qilib yaratgan.

Hayvonlar haqidagi ertaklarning aksariyati bevosita bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda vujudga kelgan. Ular da bo‘rining vahshiyligi, tulkinining ayyorligi, otning insonga do‘st ekani alohida bo‘rttirib ko‘rsatiladi. ertaklardagi bunday xususiyat ko‘proq ma‘rifiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Biz bilamizki, yosh bolalar yovvoyi hayvonlarni faqat rasmlarda, hayvonot bog‘larida ko‘rganlar. Fikr yuritilayotgan asarlar bu hayvonlar haqida bola tasavvurini kengaytiradi, aniqroq ma’lumotga ega bo‘lish imkonini beradi. “Ikki boyqush”, “Illooning ishi zahar solmoq”, “Qarg‘a bilan qo‘zi” kabi asarlar shular jumlasidandir. Hayvonlar haqidagi ertaklarning ayrimlari majoziy mazmunga egadir. Bunda ertaklarda ishtirok etadigan qahramonlar hayvon, qush bo‘lsa ham, asar mazmuni bevosita insonlar o‘rtasidagi munosabatni izohlashga qaratilgandir. Jumladan, do‘stlikning inson hayotidagi ahamiyati, yaxshilikka hayotda hamisha ham yaxshilik qaytmasligi yoki aql- idrok vositasida har qanday mushkul vaziyatning yechimini topish mumkinligi aks ettiriladi. “Susambil”, “Tulki bilan bo‘ri”, “Hiylagar bedana” ertaklari shular jumlasidandir. *Masalan*, birinchi marta tulki go‘sht tishlab ketayotgan bo‘riga qarata: “Bo‘rivoy qayerdan kelyapsan”, - deganda, bo‘ri: “Popdan”, - deb og‘zidagi go‘shtni tushirib yuboradi. Aynan shu voqyea ikkinchi marta takrorlanganda bo‘ri: “G‘ijduvondan”, - deb go‘shtni og‘zida saqlab qoladi. Kulgili vaziyat bilan yo‘g‘rilgan

²⁵ Afzalov M. O‘zbek xalq ertaklari haqida. T., «Fan» 1964. 25-bet.

bunday ertaklarning zaminida insonlarning bir-biriga bo‘lgan munosabatlari o‘z ifodasini topgan. Shunday qilib, hayvonlar haqidagi ertaklar asosan, xalqimiz tomonidan to‘qimalar asosida yaratilgandir. Ertaklardagi hayvonlarning so‘zlashuvlari ularni hayotiylashtiradi. Bu ertaklar ko‘proq ma’rifiy maqsadni nazarda tutgan holda ijod qilingan. Ular qadim zamonlarda ham, hozirgi kunda ham yosh bolalarni hayvonlar olami bilan tanishtiruvchi ma’rifiy, tarbiyaviy asarlardir.

Sehrli ertaklar. O‘zbek xalq ertaklarining salmoqli qismi sehrli ertaklardan iboratdir. Mashhur va taniqli folklorshunos olimlarning ta’kidlashicha, turli xalqlar ijodida uchraydigan ertaklar orasida eng bir-biriga o‘xshash mazmunga ega ekani sehrli ertaklardir. Bunday ertaklarni, ko‘pincha, asar qahramoniga nimaningdir yetishmasligi, qahramonning bu narsaga ega bo‘lishi, qandaydir ishni taqilash, kuchli raqibning mavjudligi, xavfli safarga chiqish kabi lavhalar birlashtirib turadi. Eng muhimi sehrli ertaklarda turli mo‘jizalar, afsungarliklar, fantastik tasvirlar yetakchilik qiladi. Chunonchi, Hamid Olimjon “Oygul bilan Baxtiyor” dostonining boshlanishida aytgan: “o‘zi uchar gilamlar”, “o‘t bog‘lagan qanotlar”, “beqanot uchgan otlar”, “qiz bo‘lib ochilgan gul”, “so‘ylaguvchি devorlar”, “bola bo‘p qolgan chollar” kabi misralar aynan sehrli ertaklar ta’rifiga to‘g‘ri keadi.

Sehrli ertaklarda mifologik dunyoqarash belgilari alohida, aniq seziladi. Chunki uzoq qadim zamonlarda totem hisoblangan ilon, semurg“ va fetish hisoblangan yer, quyosh, suv kabi tushunchalar an’ana bo‘lib mazkur ertaklarga o‘tgani. Natijada, “Semurg”, “Devbachcha”, “Yalmog‘iz”, “Mehrigiyo”, “Mohistara”, “Ur to‘qmoq” kabi namunalar xalq orasida ajdodlarimizning fantastik xayolga berilishi mahsuli sifatida shuhrat topdi. Televide niye, telefon, masofa orqali boshqariladigan qurilmalar, samolyot, avtomobilarning paydo bo‘lishi ko‘p jihatdan sehrli ertaklardagi orzular natijasi sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sehrli ertaklar xalqning nisbatan qadimgi ijod mahsulidir. Ularda inson xayoli naqadar cheksiz ekani namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ajdodlarimiz turmush qiyinchiliklaridan tashvishga tushgan paytlarida bu asarlar ularga umid bag‘ishlagan. Ularda kelajakka ishonch ruhini uyg‘otgan.

Mazkur ertaklarni so‘z san’atining mukammal namunalari sifatida baholash uchun ham asos yetarlidir.

Maishiy ertaklar. O‘zbek xalq ertaklari qatorida bevosita kundalik hayotda ro‘y berayotgan voqyealar asos qilib olingan ertaklar ham bor bo‘lib, ular maishiy ertaklar atamasi bilan yuritiladi. Bunday ertaklarda amaliy harakatlar, insondagi chegaralangan jismoniy kuch, ilm va hunarga bo‘lgan munosabat, shaxsning ma’naviy qiyofasi haqida hikoya qilinadi. Ko‘pincha ro‘y bergen adolatsizlikning oxir natijada mag‘lubiyatga uchrashi, oqil va dono shaxsning baxtga erishuvi, haqoratlangan qizning yorug‘ yuz bilan hurmatga ega bo‘lishi haqidagi voqyea-hodisalar maishiy ertaklar mazmunini tashkil etadi. *Masalan*, “Uch og‘a-ini botirlar” ertagidagi Kenja botir saroy g‘iybati oqibatida nohaq jazolanadi. Ammo uning sabr, sadoqat bilan qilgan harakatlari o‘zining ijobiy natijasini beradi. “Ozodachehra” ertagida Ozodachehra ne-ne malomatlarga qolmadni. Unga yovuz kuch ne-ne tuhmat toshlarini otmadni. Ammo uning chidam bilan adolatsizlikka dosh berishi oxiri yaxshilikka olib keldi. Qizig‘i shundaki, maishiy ertaklarda tasvirlangan hodisalar har bir inson hayotida ro‘y berishi mumkinligi bilan e’tiborni o‘ziga tortadi. Maishiy ertaklarning muhim jihatlaridan biri ularda tarbiyaviy yo‘nalishning aniq ifodalaniishi bilan ham belgilanadi. *Masalan*, “Uch og‘a-ini botirlar” ertagida mo‘ysafid ota o‘z o‘g‘illarini baquvvat qilib o‘stiradi, ertak yoshlarda har qanday vaziyatda o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash va bu imkoniyatdan samarali foydalanish tuyg‘usini shakllantiradi. Ota o‘z farzandlarini safarga otlantirar ekan, yigit kishining hayotida zarur bo‘lgan yana uchta maslahat beradi: “To‘g‘ri bo‘ling, bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang, uyatga qolmaysiz. Dangasa bo‘lmang, baxtsiz bo‘lmaysiz”. Agar ota tarbiyasining va maslahatlarining mohiyatini tahlil qilsak, ularda haqiqiy hayotga tayyor bo‘lishi lozim insonning asosiy fazilatlari aks etganiga ishonch hosil qilamiz. Aslini olganda, ertakning to‘liq matni uning boshlanishida bayon etilgan nasihat va maslahatlar shartiga bag‘ishlangan. Uch og‘a-ini botirlar mard, jasur yigit bo‘lishi bilan birga ziyrak inson ham edilar. Ularning biron xatti- harakatlarida biz kamchilik topa olmaymiz. Ammo shu bilan birga ular biron harakatni asossiz amalga oshirmaydilar ham. Bu ertakda oddiy xalqning tashvishsiz hayot kechirishga bo‘lgan

munosabati ham o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun uch og‘a-ini botirlar podshoh saroyidagi halovatli hayotdan oddiy mehnat bilan turmush kechirishni afzal ko‘radilar.

Maishiy ertaklarga ham, umuman, ertak janriga mansub bo‘lgan sehrli tasvir va mubolag‘a begona emas. *Masalan*, “Uch og‘a-ini botirlar” ertagida aka-ukalarning sher, ajdar va qirq qaroqchi bilan olishuvida o‘ziga xos g‘ayritabiyy tasvir mavjuddir. Ammo bu tasvir “Uch og‘a-ini botirlar” ertagini mazmunida alohida, muhim hal etuvchi ahamiyat kasb etmaydi.

Maishiy ertaklarning qahramonlari millatimizning oddiy vakillaridan deyarli farq qilmaydi. Faqat ular o‘zbekning ramziy farzandlari sifatida ertak ishtirokchilariga aylanadilar. Hayotiy ertaklar xalq farzandlariga iymon, vijdon, erk, idrok, qanoat, aql-zakovat haqida tarbiyaviy tushunchalar berish bilan ahamiyatlidir.

Xalq ertaklarida bir qator umumiy xususiyatlar mavjuddir. Bu xususiyatlar ko‘proq ertaklarda badiiy tasvir vositalarining qo‘llanilishida ko‘zga tashlanadi. Xususan, ertaklar hamisha “bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda...” kabi jumla bilan boshlanadi va “murod maqsadlariga yetib” jumlesi bilan yakunlanadi. Ertaklarda tasvirming ta’sirli chiqishi uchun go‘zal qizlar yuzi o‘n to‘rt kunlik oyga o‘xshatiladi. Yigitlar esa dunyoda tengi yo‘q va jasur botirlarga qiyoslanadi. Bu janrga mansub asarlarda hamisha qilichlar keskir, dasturxonlar ochil, xumlar qaynama xususiyatlarga ega bo‘ladilar. Ertaklarimiz o‘xshatish, sifatlash va mubolag‘alarga boy so‘z san’atti namunasidir.

Ertak janri epik turga xos janr sifatida syujet kompozisiyasi tarkibi mukammallik va izchillikni talab etadi. “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi ham ana shunday murakkab kompozisiyaga ega asar. Ertakda qo‘shaloqlashtirish usulida keltirilgan qoliplovchi hikoyalari epik turdagи asarlar nazariyasida sayyor syujetlar xususiyatini taraqqiy etishiga zamin bo‘ldi.

Shunday qilib, o‘zbek xalq ertaklari so‘z san’atining epik janriga mansub bo‘lib, shakl jihatidan, asosan, nasriy ko‘rinishga egadir. Bu janr namunalarida xalq hayotining turli masalalari ibratli yechimi bilan o‘z ifodasini topadi. O‘zbek ertaklari hayvonlar haqida, sehrli, maishiy turlarga bo‘linadi va ularning matn mazmunlari, ishtirok yetadigan qahramonlari, hikoya qilinayotgan voqyealarning bayon

usuli, hayotni tasvirlash yo'llari bilan farqlanadi. Ertaklar o'zbek xalq madaniy merosining muhim namunalari hisoblanadi.

Ertak janriga mansub bo'lgan bolalar adabiyotlarini o'qitishda o'qituvchilar tommidan zamonaviy texnologiyalarning qo'llanlishi, xususan syujetli-rolli o'yinlar orqali darslarning tashkillashtirilishi, bolaning shu obrazga to'laqonli kirishi va tushunishi hamda darsning qiziqarli bo'lishini ta'minlab beradi. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'qish darslarida xalq ertaklarining janriy xususiyatlaridan kelib chiqib texnologiyalarning qo'llanilishi yanada natijadorlikka olib keladi.

Ushbu bolalar folklori hamda ertaklarni o'qitishda "Yozma ish" strategiyasi metodidan foydalanish o'quvchilarda mustaqil, ijodiy fikrlash mlakalarini shakllantirishga yordam beradi. Har bir o'quvchining mustaqil faoliyat yuritishini ta'minlab beradi. Ushbu strategiyani qo'llashda quyidagi sxemaga e'tibor qaratish lozimdir.

Kim yoki nima haqda yozmoqchi ekanini aniq bo'lgilab olishi;
Insho, hikoya yoki maqola uchun mos mavzu topishi;
Insho, hikoya yoki maqolaning xomaki nus'hasini tayyorlashi;
Insho, hikoya yoki maqolaning homaki nusxasini qayta o'qib chiqish va tuzatishlar kiritish;

Insho, hikoya yoki maqola orginal narsaga ko'chirish va jamoadoshlariga o'qib berishi lozimdir.

Ushbu metodni tashkillashtirishda o'quvchilarga 10 daqiqa vaqt beriladi. Ushbu metodni kichik guruxlara ham qo'llash mumkin. Bunda har bir o'quvchilar kichik guruxlarga birlashadilar va o'zlarining esse, hikoya yoki maqola yozishlari uchun mos mavzuni aniqlab tayyorlashadi. Ushbu topshiriqni bajarishda jamaoa bo'lib birgalikda xarakat qilishlari maqsadga muvofiqli. Vaqt oxiriga yetgach xar bir gurux o'zlarining topshiriqlarini taqdimot orqali ko'rsatib beradilar. O'qituvchi hikoya, maqola yoki essening saviyasi va mazmuniga qarab baholashi mumkin bo'ladi.

INSERT grafik organayzer metodi. Mavzu bo'yicha talabalarning muayyan tushunchaga egaliklarini aniqlash, ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Qo‘llanilishi:

Maxsus belgilar	Maxsus belgilarning ma’nosi
Z	Matnda guruxlar tomonidan bildirilgan fikrlar o‘z aksini topgan bo‘lsa
S	Matnda guruxlar tomonidan bildirilgan fikrlar o‘z aksini topmagan bo‘lsa
?	Matn bilan tanshish jarayonida savollar tug‘ulsa (tushunmovchiliklar vujudga kelsa)

Ushbu metodikani qo‘llashda quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi.

Gurux shakllantiriladi va ular nomlanadi;

Xar bir gurux o‘zlarining rejalashtirayotgan mavzusiga doir ikkita so‘z bildirishi hso‘raladi;

Guruxlar navbatma navbat mulohazalarini bayon etadilar;

Bayon etilgan fikrlar doskaga yozib boriladi;

O‘vituvchi mavzu mazmunini yorituvchi matnni guruxlarga tarqatadi;

Guruxlar matn bilan tanishib o‘zlarining fikrlari qay darajada matn bilan muvofiq ekanini tekshiradilar;

Gurux a’zolari o‘zlarining fikrini bildirishlari uchun maxsus belgilar sonini umumlashtiradi;

Guruxlar a’zolari orasidan liderlar belgilanadi;

Liderlar sinf jamoalarini guruh natijalari bilan tanishtiradi;

Guruhlarning yondashuvlari umumlashtirilib yakuniy xulosa qilinadi.


Iskala (skaff olding) metodi.

Iskala (skaff olding) – o‘qituvchining o‘quvchilarga o‘quv materialini o‘zlashtirishda yoki o‘quv topshirig‘ini bajarishda tegishli usul va vositalar orqali tizimli yordam berishi. Iskalaning asosiy g‘oyasi shundaki, dars davomida o‘qituvchi o‘quvchining ehtiyojiga qarab yordam ko‘rsatadi.

O‘qituvchining yordami yo‘naltiruvchi savollar yoki ko‘rsatmalar berish, vizual vositalardan foydalanish orqali amalga oshishi mumkin.

Shuningdek, darslarda dialog, juftlik yoki guruhda ishslash usullaridan foydalanish asosiy atamalarni o‘zlashtirish va mustah-kamlashga imkon beradi. Masalan, sinf uch kishilik guruh (ya’ni “tinglovchi uchlik”) larga ajratiladi. Har bir guruhning bir nafer a’zosi

“so‘zlovchi”, bir nafar a’zosi “savol beruvchi”, bir nafar a’zosi esa “javobni qayd etuvchi” vazifasini bajaradi. So‘ngra guruh a’zolari vazifalarini o‘zaro almashinadi. So‘ngra har bir guruhdan bir nafar “elchi” guruhda muhokama qilingan ilmiy atamalar mazmunini boshqa guruhga tushuntiradi.



O‘quvchi yangi o‘quv materialini qanchalik yaxshi o‘zlashtirsa, unga yordam kamroq kerak bo‘ladi va oxir-oqibat o‘qituvchining yordamiga yehtiyoy qolmaydi.

Bu ham bolalar folklori va ertaklarni o‘rganishda qo‘l keladigan interfaol metodlardan hisoblanadi. Bu mteod kichik xajmli, erkin bayon usuliga ega bo‘lib, o‘rganilayotgan asar yoki doston yuzasidan shaxsiy taassurot, tasavvurlarni ifodalashga hizmat qiladi. Besh minutli esseni yaratishda o‘quvchi - talabalar mavzu g‘oyalarini umumlashtirish, tizimlashtirish, turkumlashtirish va xulosa berish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Xalq ertaklarining yozma adabiyotga ta’siri, shubhasiz, katta ahamiyat kasb etib kelgan. Xususan, xalq ertaklarining badiiy so‘z san‘atidagi roman janridan kichik hikoya janrigacha, dostondan oddiy to‘rtlik she’rgacha bo‘lgan ta’siri to‘g‘risida adabiyoshunoslik va folklorshunoslik sohalarida yuzlab tadqiqotlar yaratildi. Xalq ertaklari, birinchidan, folkloarning boshqa janrlari, xususan, yirik epik asarlar shakllanishi, ikkinchidan, yozma adabiyotning rivojida muhim rol o‘ynagan manba hisoblanadi.

Xalq ertaklari folkloarning boshqa janrlari singari umumjahon yozma adabiyotining shakllanishi va rivojida muhim rol o‘ynagan manbalardan biridir.

Chunonchi, novella, ballada, poyema, masal kabi janrlarning shakllanish manbalarini tadqiqotchilar xalq ertaklari an’analari bilan bog‘lab talqin etadilar²⁶. Xalq ertaklarining yozma adabiyotga ta’sirini ko‘rsatishda adabiy ertak janri yorqin misol bo‘la oladi.

Adabiy ertak janri yozma adabiyotning boshqa janrlari kabi zamon va makon mohiyatini adabiy estetik prinsiplarida badiiy aks ettirishi bilan rivojlanib bormoqda.

Xalq ertaklaridan ijodiy bahramand bo‘lib, yirik polotnodagi asarlar yaratish an’anasi o‘zbek adabiyotining rivoji uchun an’analardan biri hisoblanadi. Navoiy ijodi esa buning yorqin dalilidir.

²⁶ Шайкин. Сказка и навелла. Автороф. канд. Дисс. Алма-ата, 1974; Иброхимов М. Ўзбек балладаси. “Фан”. Тошкент, 1974. Гаспаров М. Л. Античная литературная басня. Изд-во. “Наука”. М., 1971. Холматов Ш. “Масал жанри хақида”. “Ўзбек тили ва адабиёти”. 1966. №8. Т. Абдукулов. Болалар поэмачилигининг тараққиёт тенденциялари. “Ўзбек тили ваадабиёти” журнали. 1976. №5

Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyotida poyeziya yetakchi rol o'ynaydi. Klassik shoirlar Yevropada urf bo'lgan ertaklar yaratish an'anasi yo'qligi tufayli o'zbek mumtoz adabiyoti namoyondalari xalq ertakchilik an'analariga xos eng muhim motiv va elementlarni romanik dostonlariga organik singdirib yuborgan edilar.

Xalq og'zaki ijodidagi miflardan keyingi bosqichda afsonalar, diniy qo'shiqlar va, nihoyat, inson turmush kechinmalarini badiiy ramz, timsollar bilan ifodalovchi xalq ertaklari va marosim folkloarning paydo bo'lishi, badiiy yozma adabiyot san'ati rivoji bilan imkoniyat vujudga kelgan edi.

Badiiy adabiyotning asosiy manbasi bo'lgan folklor yozma adabiyotning doimiy ijodiy oziqlanish vositasidir. Shuning uchun har qanday yozma adabiyot, avvalo, miflar, ertaklar, marosimlar poyeziyasi ta'sirida shakllangani va rivojlangani tabiiydir. Uning yorqin isboti sifatida qadimgi grek adabiyotini ko'rsatish mumkin²⁷.

O'zbeklar bolalar folkloriga oid asarlarni bir necha asrlar oldinoq hozirgi zamon pedagogikasi talablarini his etgandek yaratganlar. Aslida xalq bu talablarni o'zicha hisobga olgan. Pedagogika fani esa ularni keyinchalik kashf qilgan. Xususan, bolalar uchun yaratilgan asarlarning tili sodda, mazmuni esa esda qoladigan bo'lishi lozim. Shuningdek, bu asarlar, albatta, tarbiyaviy ahamiyat kasb etgani holda, bolalarda xalqiga, vataniga, qadriyatlariga, ajdodlari ga hurmat ruhini shakllantirishi kerak. Bunday namunalar farzandlarimizning ma'rifiy ozuqasi hisoblanadi. Bo'rining yirtqichligini, tulkinning ayyorligini ular dastlab o'zlariga atalgan ertaklardan bilib oladilar. Ayni paytda, bunday asarlar bolada go'zallikka intilish tuyg'usini uyg'otishga ham mo'ljallangan bo'ladi. *Masalan*, oy – o'n to'rt kunlik yoki hiloldek; qiz go'zal, chiroqli, o'n to'rt kunlik oydek; yigit mard, jasur, pahlavon, hunarli kabi o'xshatish va sifatlashlar bilan yonma-yon tasvirlanadi. Natijada, bolalar folklori bilan aloqada bo'lgan yosh farzand ularni tinglash yoki o'qish barobarida o'zbekning o'zbekona tarbiyasi bilan tanishib boradi va o'zbek bo'lib voyaga yetishadi.

Tez aytishlar bolalar folklori tarkibiga nisbatan keyin qo'shilgan janr hisoblanadi. Olimlarning fikricha, tez aytishlar avvallari alohida

²⁷ Қаранг: “Фарход ва Ширин”(достон) “Фан” Т., 1966 йил, 5-бет.

janr sifatida “tutal”, “chalg‘ituv”, “chalish”, “adashish” atamalari bilan mashhur bo‘lgan. “Tez aytish” esa nisbatan keyingi atamadir. Vaqt o‘tgani sari bu janr kattalardan bolalar folkloriga ko‘chgan. Qadimgi tez aytishlardagi so‘zlarning ko‘pligi bu fikrning to‘g‘ri ekanligini tasdiqlaydi. Gap shundaki, tez aytish qoidasida namuna to‘liq aytib bo‘linmagunicha nafas olish mumkin emas. Son jihatdan shu qadar ko‘p so‘zli tez aytishlar borki, ularni yosh bola ayta olmaydi. Shuning uchun bu tez aytishlar avvaliga katta yoshdagi odamlar o‘rtasida keng tarqalgan bo‘lishi mumkin, degan xulosaga keltingan. Tez aytishning ikkinchi qoidasi matndagi tovushlarni aniq talaffuz qilish kerakligi bilan belgilanadi.

Tez aytish hozirgi paytda bolalarning ayrim tovushlarni talaffuz qilishdagi kamchiliklarini yo‘qotish jarayonini tezlashtiradi. *Masan*, ko‘pincha bolalar “r” tovushi talaffuzida qiynalishadi: “l” tovushi bilan chalkashtirishadi. Shuning uchun tez aytishdagi bir nafasda matnni to‘liq aytib bo‘lish qoidasidan qat’i nazar “r” va “l” tovushlari talaffuzini to‘g‘ri amalga oshiruvchi tez aytishlarni ularga o‘rgatish foydalidir:

*Charxim chakalak,
Tanobi charxim chakalak.
Charximda gunoh yo‘g‘u,
O‘zim hakalak.*

Shuningdek, faqat “r” tovushi talaffuziga bag‘ishlangan matnlardan ham foydalanish mumkin:

“*Bir tup tut, bir tup tutning tagida bir tup turp.*

“*Bir tup tut, bir tup turpning tomirini turtib turibdi.*

“*Bir tup turp, bir tup tutning tomirini turtib turibdi.*

“*Bir tup tutning tomirini turtib turgan bir tup turpning tomirini bir tup tutning tomiri turtib turibdi.*

“*Bir tup turpning tomirini turtib turgan bir tup tutning tomirini bir tup turpning tomiri turtib turibdi*”.

Albatta, so‘z soni jihatidan ko‘p bo‘lgan tez aytishlarni bolalar ijro qilishga qiynalishlari mumkin. Shuning uchun kichik matnli tez aytishlardan boshlash ma’qul hisoblanadi:

“*Bir tup tut, To‘rt tup turp*”.

Yoki:

“Oq choynakka ko‘k qopqoq,
Ko‘k choynakka oq qopqoq”.

Yoki:

“Qishda kishmish pishmasmish,
Pishsa kishmish qishmasmish”.

Ta’kidlash lozimki, xalq orasida ko‘p so‘zli tez aytishlar ijrosi kengroq ommalashgan. Ularning matnlarida yumor belgilari ham sing-dirilgani uchun tinglovchilarda alohida qiziqish uyg‘otadi. Tez aytish o‘zbek xalqining bolalar tarbiyasida hatto talaffuz ko‘nikmalarini oshirishga naqadar e’tibor bilan munosabatda bo‘lganligini bildiradi.

Katta yoshdagi o‘smirlar orasida sanamalarni bilmaydiganlar bo‘lmasa kerak. Chunki yoshlik chog‘imizda hammamiz ikkiga bo‘linib o‘ynaladigan musobaqlarda qatnashganmiz. Quvlashma-choq, bekinmachoqlarda ishtirok etganimiz. Sanamalarning matnlari bir nechta maqsadga qaratilgan bo‘ladi. Avvalo, sanamalardagi qofiya, o‘xshatish, istiora, sifatlashlar yosh o‘gil-qizlarda estetik didni rivojlantirishga, ularning har bir harakat, har bir so‘zni go‘zal talaffuz qilish ko‘nikmasini egallashlariga ko‘maklashadi. Ikkinchidan, hayot murakkabliklari bilan ilk bor to‘qnashtiradi: qaysi guruhda ishtirok etishini uning xohlashidan qat’i nazar hal qiladi. Sanamada qatordan chiqish o‘yin boshining hisobni kimdan boshlashiga bog‘liq ekanini anglatadi. Uchinchidan, sanash tartibi haqida ko‘nikma hosil qiladi. Ayniqsa, maktab yoshiga endi to‘lgan bolalar uchun bu xususiyat muhim hisoblanadi. *Masalan*, “Bir ikki o‘n olti, o‘n olti deb kim aytdi, o‘n olti deb man aytdim, ishonmasang sanab boq” sanamasida talaffuzdagi zarblar soni o‘n oltita bo‘lib, har bir zarbdan so‘ng yerga bittadan chiziq tortilsa, umumiy son o‘n oltiga teng bo‘ladi. Aytilishidagi qulaylik, eslab qolishning osonligi, yerga chiziq tortish harakati bolada qiziqish uyg‘otadi va juda bo‘limganda o‘n oltigacha sanash ko‘nikmasini tez o‘zlashtirishga olib keladi.

Olimlarning ta’kidlashlaricha, sanamalar faqat o‘zbek bolalari orasida emas, umuman turli xalq bolalarida ham ko‘p tarqalgan janr hisoblanadi. Jumladan, ruslarda “schitalka”, tojiklarda “shumurak”, turkmanlarda “sanavoch”, tatarlarda “sanashu” deb ataladi. Ularning ko‘pchiligi she’riy tarzda ijro yetiladi. O‘yinning boshlovchisi —

onaboshi sanama aytib, davradagi bolalarni bittalab chiqargunga qadar uning matnini hamma ishtirokchilar yodlab oladilar:

*Qovun palak, Guvak otdi.
Guvak yemas, Chuvak otdi.
Chuvak qovun Shirin ekan,
Safdan chiqsin Qo'lim tekkan.*

Bolalar folklori tadqiqoti bilan shug'ullangan olim O. Safarov o'zbek bolalar folklorida salkam 800 misrani tashkil etuvchi 150 dan ortiq sanamalar bor ekanligini ko'rsatib o'tadi. To'g'ri, gap sanamalarning soni va hajmining kattaligida emas. Ammo baribir bu raqamlar sanamalar sohasida ham folklorimiz naqadar boy ekanligini tasdiqlaydigan dalil hisoblanadi. Ular orasida yurtimizning deyarli hamma hududlarida bolalar tomonidan qayta-qayta aytildiganlari ham ko'p.

Demak, o'zbek bolalar folklori janrlar rang-barangligi, asarlar badiiyati va son ko'lami jihatidan kattalarning og'zaki ijodi qatoridan munosib o'rin olishga loyiqdir. Bolalar folklori namunalari o'zbekning o'z farzandi tarbiyasiga, binobarin, xalqining, yurtining kelajagiga o'ta mas'uliyat bilan yondashganini va qanchalar e'tibor bilan qaraganini ko'rsatadi. Bu e'tibor o'z navbatida umuman xalqimiz ongida ajdodlar xotirasiga hurmat tuyg'usining kuchli bo'lishiga olib kelgan. Qadriyatlarimizni e'zozlash, tariximizga hurmat bilan qarash allalar ohangi bilan jismimizga singib ketgan. Ertaklar orqali o'tmishdagi yurtdoshlarimizning hayot tarzi bilan tanishganmiz. Tez aytish, topishmoq, sanamalar, qo'shiqlar bilan ovunganmiz. Oxir-oqibatda bu asarlar bizning ruhan, tabiatan o'zbek bo'lib voyaga yetishimizga xizmat qilgan. Bu an'ana, ayniqsa, mustaqillik yillarda yana keng ommalashdi. Binobarin, asrlar oldin yaratilgan bolalar folklori namunalari bugungi kunda ham o'z vazifasini bajarmoqda.

Bolalar tomonidan yaratilgan og'zaki ijod namunalari bolalar folkloriga kiradi. Ba'zan bolalar uchun kattalar ham bolalar folklorini yaratganlar. Bular "Alla" qo'shiqlari, ertaklar, tez aytishlar, topishmoqlar, o'yin qo'shiqlari, o'yinlar, ermaklar va boshqalar. Bolalar o'yinlari va o'yin bilan aytildigan qo'shiqlarning ko'plari yil fasllari bilan bog'langan. "Boychechak", "Oftob chiqdi olamga",

“Chittigul”, “Laylak keldi, yoz bo‘ldi”, “Qurbaqa”, “Qaldirg‘och” singari qo‘sishqlarni bolalar tom boshlarida, dalalarda, qishloq ko‘chalarida aytishadi. Ular bahorning kelishi, qushlarning uchib kelishi, suvlarda qurbaqalarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir.

Bolalar o‘yin folklori. Xalq ijodi namunasi hisoblangan bolalar o‘yinlari o‘z tarkibida muayyan ritmik izchillikka asoslangan xattiharakat, ramziy ma’no kasb etuvchi etnografik detallar, poyetik folklor namunalari, ohang va tomoshaviylik elementlarini yaxlit holda mujassamlashtirgan sinkretik hodisadir. Bolalar o‘yinlari ajdodlarimiz tafakkurining eng qadimgi elementlaridan biri bo‘lgan ibridoiy rituallar va marosimlarning tarkibiy qismi sifatida juda qadim zamonlarda yuzaga kelgan. Davrlar o‘tishi bilan bunday marosimlar tarkibidagi o‘yinlar o‘zining rituallik xususiyatini yo‘qotib, oddiy tomosha unsuri yoki ko‘ngilochar vositasiga aylangan.

Bolalar o‘yinlarining muayyan bir qismi bevosita qadimgi odamning o‘z turmush tarzini badiiy talqin etish ehtiyoji tufayli bevosita mehnat qilish jarayonida shakllangan. Ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, shuningdek, qadimgi hunarmandchilik, ajdodlarimizning kundalik turmush tarzi bolalar o‘yinlarining kelib chiqishiga asos bo‘lgan dastlabki va asosiy ijtimoiy manbalar sirasiga kiradi.

Ajdodlarimiz – qadimgi turkiy qavmlarining turmush tarzi ovchilik, chorvachilik bilan bevosita bog‘lik bo‘lgan. Ko‘chmanchilikka asoslangan turmush tarzi ajdodlarimizdan o‘z farzandlarini yaxshi chavandoz, qarag‘ay mergan, kuragi yer ko‘rmagan pahlavon qilib tarbiyalashni taqozo etadi. Shuning uchun ot o‘yinlari, poyga, tirandozlik musobaqalari kurash, tuya, qo‘chqor, xo‘roz urushtirish qadimdan keng rasm bo‘lgan edi. Ana shu an‘analar asosida asrlar davomida o‘zbek bolalar folklor o‘yinining badiiy tizimi shakllangan. Bolalar o‘yin folkloriga oid manbalar to‘plash quyidagi davrlarni o‘z ichga oladi:

XI asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo‘lgan davr.

XIX asrning oxiri XX asrning 30-yillarigacha bo‘lgan davr.

XX asr 30-yillaridan to‘bugungi kunga qadar bo‘lgan davr. Bolalar o‘yinlari haqidagi ilk ma’lumot XI asrda yashab o‘tgan mashhur turkiyshunos olim M.Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarida qayd etilgan. Turkiy qavmlar orasida to‘p bilan o‘ynaladigan

qadimiy o‘yinlardan biri “Chavgon” keng rasm bo‘lgan. Bolalarning o‘yin tanlashdagi didi va o‘yin turlari yillar o‘tib o‘zgarib bormoqda. Ushbu o‘yinlarda vatanparvarlik ruhi yaqqol ko‘rina boshladi. Bu o‘yinlar xalq bilim va tajribasini yillar davomida mukammallashgan ko‘rinishidir.

Bolalar folklori navqiron avlodning psixologiyasi xususiyatlarini, badiiy ijodkorligi salohiyati va imkoniyatlarini ifodalagan, unda bolalarning voqyelikka munosabatlari, estetik qarashlari va rang-barang tuyg‘u-kechinmalari muhrlangan.

Tadqiqot yuzasidan olib borilgan izlanishlar natijasida oliv ta’lim muassasalarining folklor asarlarini o‘qitishning quyidagi usulardan foydalanish ijobiy samara berishi va ntijadorlikni oshirishi aniqlandi:

1. Go‘ro‘g‘i turkumiga kiruvchi dostonlarni innovation texnologiyalar yordamida o‘qitilishi talabalarning asar mazmuniga tushunishi, muallif tasvirlayotgan davr va muhitga olib kirishga qaratilgan davra suhbatlari, asar tili, badiiy tahlili, ifoda vositalari, dostonlardan parchalarni tanlab o‘qish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ustida ishslash;

2. Folklor asarlarini o‘qitishda bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning innovation texnologiyalarini qiyoziy o‘rgangan holda yangi texnologiyalarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Jumladan: folklor asarlarini o‘qitishda virtualizasiya va raqamli texnologiyalarning imkoniyatini inobatga olgan holda ulardan foydalanish usullarini kengroq o‘rganish lozim;

3. Folklor asarlarini o‘qitishda komikslardan foydalanish, asarni yoritishda grafikli rasmlardan foydalanish orqali talabalarni mustaqil ijodiy fikr yuritishga undaydi;

4. Romantik dostonlarni o‘qitishda gender texnologiyasidan foydalanish orqali badiiy asarni idrok etish uning mazmunini tushunib olish hamda asarning o‘zida tasvirlangan voqyelikka ham hissiy va qahramonlik rollida jins xususiyatlarini chib berish imkoniyatini beradi;

5. Romantik dostonlarni gender texnologiyasi yordamida o‘rganish, jinsga hos bo‘lgan ijtimoiy rollarni aniqlash va tahlil qilish imkoniyatini oshiradi. Ammo ushbu texnologiya va romantik dostonlarni o‘qitishda o‘quvchi yoshlarning yosh xususiyatlarini ham inobatga olish zarurdir;

6. Bolalar folklori va xalq ertaklarini o‘qitishda janriy xususiyatlarini inobatga olgan holda folklor asarlarini syujethi rolli o‘yin texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitish uning sifati va o‘rganishni oson va qiziqarli qilib beradi;

7. Bolalar folklorini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar mantiqiy, tanqidiy va kreativ fikrlarni shakllantirib berishga xizmat qiluvchi bolalarning nutqiy ravonligini oshirishga xizmat qiluvchi tez aytish, topishmoq, va xalq o‘yinlaridan foydalanish darsning samaradorligini oshirish bilan birgalikda uning mazmunini boyitib beradi.

FOLKLOR ASARLARINI O‘QITISHNING DASTURIY TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI

Folklor asarlarini o‘qitishning dasturiy ta’minotini loyihalash

Ta’lim tizimiga kompyuter texnologiyalarining joriy qilinishi obyektiv jarayonlardan bo‘lib, bugungi kun talabalariga javob berish, barcha sohalarda zamonaviy bilimlarni egallashga, o‘zlashtirishga ko‘maklashish imkoniyatini yaratib bermoqda. Zamonaviy dasturiy ta’lim orqali yangi usullar va vositalarni faol izlash, ta’limning sifatini oshirish va zamon talablariga mos tarzda shakllantirish vazifasini oladi.

Ta’lim dasturi – bu ta’lim sohasida foydalanish uchun mo‘ljallangan har qanday dasturiy ta’minotni anglatadigan ulkan, barcha narsani qamrab oluvchi atamadir. U talabalarning axborot tizimlari va sinflarini boshqarish dasturlaridan tortib, ma’lumotni boshqarish dasturlari va tillarni o‘rganish dasturlariga qadar hamma narsani o‘z ichiga oladi. Ta’lim dasturlarining barchasi ta’lim sohasining yanada samarali qilish maqsadida qo‘llaniladi. ta’lim dasturlarining foydalanuvchilari o‘qituvchilar, talabalar ota-onalar va ta’lim muassasalaridir.

Dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyalarini ommaviy joriy etish texnologik va iqtisodiy sabablarga ko‘ra mumkin emas edi. Shaxsiy kompyuterlar sonining o‘sib borishi bilan kompyuterlardan o‘quv vositasi sifatida foydalanish mumkin bo‘ldi. Ko‘p sonli o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda dasturlashtirilgan ta’lim nazariyasining kashfiyoti va yutuqlari hisobga olinmadi, chunki ko‘p hollarda ishlab chiquvchilar metodistlar emas, balki dasturchilar edi. Dasturchi elektron o‘quv vositasining funksionalligini aniqladi, metodist, o‘qituvchi esa mazmunini tuzdi. Ushbu nomuvofiqlik mavjud o‘quv dasturlarining past sifati va ularni amalga oshirishning yetarli darajada samaradorligini aniqladi.

Noaniqlikni bartaraf qilish uchun zamonaviy tushunarsiz terminologiyada ta’rif berish tavsiya etiladi. Kompyuterda o‘qitish vositalari deganda ma’lum pedagogik muammolarni hal qilish uchun mo‘ljallangan, mavzu mazmuniga ega va talaba bilan o‘zaro

munosabatlarga yo‘naltirilgan dasturiy vositalar (dasturiy ta’minot kompleksi) yoki dasturiy-apparat majmuasi tushuniladi. Shunday qilib, shaxsiy kompyuterning apparat va dasturiy ta’minoti ham ushbu ta’rifga kiradi.

Bizning ishimizda faqat shaxsiy kompyuterning dasturiy ta’minoti - elektron ta’lim vositalari deb ataladigan dasturiy komponenti bilan cheklanish tavsiya etiladi.

Elektron ta’lim media vositalari - bu muayyan pedagogik muammolarni hal qilish uchun mo‘ljallangan, fan mazmuniga ega bo‘lgan va talaba bilan o‘zaro munosabatlarga qaratilgan dasturiy vositalar. Biroq, tadqiqotda biz elektron ta’lim media vositalari sinfidagi o‘quv faoliyatini boshqarishga qodir bo‘lgan o‘ziga xos o‘quv qo‘llanmalarini ajratib ko‘rsatishimiz kerak. Interfaol ta’lim media vositalari - talaba bilan o‘zaro munosabatlarga va ta’lim faoliyatini boshqarishni amalga oshirishga qaratilgan elektron o‘quv vositalardir. Juhon amaliyotida talabalarini elektron dasturiy vositalarni qo‘llash kompetentligini rivojlantirish, kasbiy tayyorgarligining tizimli tarkibiy qismi sifatida axborot madaniyatini shakllantirish, ta’lim samaradorligiga erishishi, fanlar mazmuni integrasiyalash texnologiyalarini takomillashtirishi, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga bo‘lgan motivasiyani oshirish hamda “Axborot texnologiyalari” va folklor ta’lim kurslari dasturlarining o‘zaro aloqadorligini ta’minalash va undan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Natijada talabalar o‘zlarini tanlagan axborot texnologiyalari yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy faoliyat yuritilishlari uchun qo‘lay sharoitlar yaratish imkoniyatlari vujudga keladi.

Ta’lim dasturi deganda o‘qitish va o‘rgatishni osonlashtirishga xizmat qiladigan, maxsus ishlab chiqilgan kompyuter dasturlari, ilovalar yoki platomalar tushuniladi. Ushbu vositalar o‘qituvchi, talabalarning o‘quv muxiti, ta’lim sharoitlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Ta’lim dasturlari tanqidiy fikrlash, muammolarni oson hal qilish, ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Ta’lim dasturlari orqali talabalarning rivojlanishi va ularning o‘zlashtirishlarini nazorat qilib, kuzatib borish imkoniyatini beradi. Ta’lim dasturlari bir necha turlarga bo‘linadi.

Ta’limni boshqarish tizimlari. Bu platformalar orqali ta’limning

mazmunini boshqarishga aytildi. Talabalarning rivojlanishini kuzatib boradi, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi aloqalarni osonlashtiradi.

O‘yinga asoslangan ta’lim dasturlari. Tushunchalarni mustahkamlash uchun o‘quvchilarni interaktiv o‘yinga o‘xhash muhit orqali jalb qiladigan ta’lim o‘yinlari.

Simmulyasiyalarga asoslangan dasturlar. Amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatish uchun haqiqiy jarayonlarni yoki muhitni taqlid qiladigan dastur.

Elektron ta’lim dasturlari. Onlayn platformalar, turli hil o‘quv materillariga kirishni ta’minlaydigan video ma’ruza, viktorinalar va topshiriqlarni o‘z ichiga oluvchi dasturlar to‘plami.

Baholash vositalari. Talabalarning o‘rganishi va tushunishini baholash uchun ishlataladigan dasturiy ta’minot. (Quizlet, google forms) kabi platformalar.

Ixtsoslashtirilgan dasturlar. Disleksiya dasturlari, nutq terapiyasi dasturlari kiradi. Ta’lim dasturlarining shu turlari mavjuddir. Bu ta’lim dasturlari orqali ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish va uning samaradorligini oshirish bilan birgalikda talabalarda eslab qolish foizlarini oshirishga ko‘maklashadi.

Folklor asarlarini o‘qitishda raqamli o‘qitish texnologiyasidan foydalanish raqamli aktivlarni yaratish orqali folklor asarlarini boyitish va uning xalq madaniyati sifatida rivojlanishiga hamda zamon talablariga moslashtirishga imkoniyat beradi. Ta’lim dasturlari orqali folklor asarlarini o‘qitish talabalarning turli joylarda ham o‘rganishi va foydalanishiga imkoniyat yaratib beradi. Folklor asarlarini boyitish va ularning raqamli elektron veb saytlarini yaratish hamda ularga turli formatlarda audio, video, mashq dasturlari, o‘ynili dasturlar, baholash dasturlari, namoyishlar, tadqiqotlar orqali o‘quv resurslarini boyitish bu asarlarining davomiyligini saqlashga yordam beradi. Yoshlarning bugungi zamon talablariga munosib tarzda javob beradi. Folklor asarlarini o‘qitishda innovation ta’lim dasturlari va interaktiv media dasturlaridan foydalanish uning samaradorligini oshirishga imkoniyat beradi.

Ta’lim dasturlarining afzalliliklari bugungi ta’lim extiyojlariga mos keladigan ko‘plab imkoniyatlarni yaratib berishga xizmat qiladi. Bu esa talabalarning interfaol tarkib va multimedia vositalari bilan

ishlashni yanada kuchaytiradi. O'rganish talabaning individual qobiliyatlari moslashtiriladi. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlaydi. Izchillikni saqlaydi. Muhimi u o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi hamkorlik, talabalarni kuzatish bilimlarini nazorat qilish, o'quv muhitini targ'ib qilish uchun vositalar bilan jihozlaydi.

Ta'lism dasturlari o'rganish va o'qitishning osonlashtirish uchun maxsus ishlab chiqilgan kompyuter dasturlari va ilovalari tushuniladi. Ta'lism dasturlari orqali tanqidiy fikrlash va muammolarni izchil hal qilish kabi ko'nikmalarni qamrab oladi. Ta'lism dasturlarining turlari quyidagilardan iborat.

Ta'lismi boshqarish tizimlari: platformalar orqali ta'lismi boshqarish, o'quvchilarni rivojlanishini kuzatib borishga imkoniyat beradi. O'qituvchi va talabalar o'rtasida aloqani osonlashtiradi.

O'yinga asoslangan ta'lism dasturlari: tushunchalarni mustahkamlash uchun o'quvchilarni interaktiv, o'yinga o'xshash muhit orqali jalb qiladigan ta'lism o'yinlari.

Simmulyasiyalarga asoslangan ta'lism dasturlari: amaliy ko'nikmalarni o'rgatish uchun xaqiqiy jarayonlarni yoki muhitni taqlid qiladigan dasturlar.

Elektron ta'lism dasturlari: onlayn platformalar, turli xil o'quv materiallariga kirishni ta'minlaydigan video ma'ruzalar, viktorinalar va topshiriqlarni o'zi ichiga oladi.

Baxolash vositalari: talabalarning o'rganishi va tushunishini baholash uchun ishlatiladigan (Quizlet, Google Forms) kabi test dasturiy ta'minoti. Ta'lism dasturlari zamonaviy ta'limga ajralmas qismiga aylanib, guruxda ham uyda ham o'rganishni osonlashtiradi.

Folklor asarlarini o'qitishda oliy ta'lism tizimida dasturiy ta'minotini yanada oshirish va loyihalash murakkab tizim hisoblanib, loyihalash maqsadga muvofiq faoliyat, faoliyat vositasi, faoliyat predmetidan iborat bo'ladi. Folklor asarlarini o'qitishning dasturiy ta'minotini loyihalashning dastlabki elementi loyihalash hisoblanadi. Loyihalashga oid faoliyat-o'quv predmetini o'qitish uslubiyatini yaxshi biladigan, o'qituvchi, dasturchi, psixolog, dizayner va boshqalarning faoliyatidan iborat bo'lib, o'qituvchi o'zi dars beradigan o'quv predmeti mazmunini, xususiyatlarini hisobga olib ta'lism maqsadi, vositasi va natijalarini belgilaydi.

Oliy ta’lim tizimida folklor asarlarini o‘qitishning dasturiy ta’mintoni loyihalashtirini amalga oshirish bosqichlari talabalar tomonidan hal etiladigan vazifalar, talabalar faoliyati, o‘qituvchi faoliyati, o‘qitish shakllari va usullaridan tashkil topadi.

Loyiha aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan xolda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan xarakat mahsulidir. Loyiha design- so‘zidan olingan bo‘lib - ba’zi murakkab ishlanmalarni yaratish bo‘yicha xujjatlar yig‘indisi.

Loyihalash – boshlang‘ich ma’lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, baoshratlash, rejalashtirish orqali faolit yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat.

Ta’lim jarayonini loyihalash – alohida olingan ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasini, sxemasini ishlab siqishdir.

Loyihalash faoliyati:

1. Qidiruv –izlanish va muammoni tahlil qilish:

- Loyiha mavzusini tanlash;
 - Loyihani rejalashtirish;
 - Dars bosqichi bo‘yicha tadbirlar;
 - Yig‘ish, o‘rganish;
 - Axborotni qayta ishlash va tahlil;
 - Loyiha mavzusi haqida ma’lumot;
 - Muammoni muxokama qimlish;
 - Vazifalar beriladi;
 - Ma’lumotlar takomillashtiriladi va tahlil qilish;
 - Qo‘yilgan maqsadga harakat rejasini tuzish;
 - Izlanish olib borish;
 - Talabalarni rag‘batlantirish;
 - Ishtirokchilar uchun muammo o‘trtaga tashlanadi va o‘qituvchi uning muxakamasini tashkil etadi, loyiha maqsadlarini tushuntiradi;
 - Nazorat qiladi;
 - Maslahat beradi;
 - Muammo atrofida suhbat tashkil etiladi;
 - Hikoya, maslahat, mustaqil ish.
2. Loyiha yechimini izlash:
- Talabalar tomonidan taqdim etilgan variantlarni o‘rganish;

- Muammoni yechio‘ uchun muqobil variantlarni tanlash;
 - Iqtisodiy samaradorlik (fanlararo integrasiya);
 - Asosiy yechimni tanlash;
 - Axborot bilan ishlash;
 - Sintez va analiz qilish, g‘oyalarni baholash;
 - Grafik ishlar bajarish;
 - Muammoga daxldor takliflar muhokama qilinadi;
 - Yechimlar tanlashda yordam beradi;
 - Maslahat, o‘qituvchi tomonidan tavsiyalar beriladi;
 - Raqamlı texnologiyalar;
 - Interaktivni virtualizasiya;
 - SQ3R;
 - Literature Circles;
 - Debat;
 - Fikrlashning 6 shlyapasi;
 - Didaktik media.
3. Dars davomida o‘qituvchi va talaba faoliyatini amalga oshirish rejasi tayyorlanadi va loyiha amalga oshiriladi:
- Darsga kerakli jihozlarni tanlash;
 - rejalashtirilgan vazifalarni bajarish;
 - joriy sifat nazorati;
 - o‘z-o‘zini nazorat qilish maqsadida mashqlar tayyorlanadi;
 - o‘quvchilar faoliyatini tashkil etiladi va muvofiqlashtiriladi;
 - yangi tushunchalar bilan tanishtiriladi; -o‘quv materiallari tayyorlanadi;
 - suhbatlashish, mashq qilish, amaliy ishlar
4. Yakuniy baholash bosqichi:
- jarayon tahlili -natijalar ijrosi;
 - o‘z-o‘zini tahlil qilish;
 - natijalarni baholash;
 - muammo bo‘yicha himoya tashkil etiladi;
 - o‘quvchilarning muammo atrofidagi bahs-munozarasida qatnashadi;
 - dars jarayonida rolli o‘yin tashkil etiladi;

- simulyasiya va faollik o'yini²⁸.

Folklor asarlarini o'qitishning dasturiy ta'minotini takomilashtirishni loyihalash jarayonida o'qituvchi turli didaktik nazariya, qarashlardan kelib chiqib loyihalash predmeti – ma'lumot mazmuniga pedagogik ishlov beradi.

Folklor asarlarini o'qitishning dasturiy ta'minotini loyihalashda ta'lim dasturlarining elementlaridan hisoblangan SQ3R metodi ya'ni o'qish ko'nikmasini rivojlantirish strategiyasi metodi mavjud bo'lib, ushbu metod orqali bugungi kunda folklor asarlarin o'qitish ko'nikmasini yanada rivojlantirish imkoniyati mavjud bo'ladi. Dastlab, tushunish bo'yicha ko'rsatmalarining aksariyati o'quvchilarga har bir janr uchun aniq strategiyalarni o'rgatishga qaratilgan bo'lib, ular birlashtirilganda ularga maqsad bilan o'qishga imkon beradi. Biroq, 1930-yillardan boshlab empirik ma'lumotlar turli metodologiyalarni sinab ko'rishni qo'llab-quvvatlamadi. O'qishni tushunishni kuchaytirishning bunday usullaridan biri bu SQ3R usuli bo'lib Frensis Pleasant Robinson birinchi marta 1946 yilgi kitobida tasvirlangan samarali o'rganish hisoblanadi.

20-asrning boshidan boshlab tushunish darslarida odatda o'quvchilar o'zlarining savollariga, o'qituvchining ko'rsatmalariga yoki ikkalasiga javob yozishadi. Faqtgina matn parchalariga individual javoblar (kontent maydonini o'qish) va ularning yozish qobiliyatlarini rivojlantirishga ushbu ajratilgan butun guruh versiyasi yordam berdi. Dalillar akademik o'qish test metodologiyasi 20-asrning oxirgi choragida tushunish o'rgatish yoki haqiqiy nuqtai nazar bilan ta'minlash ko'ra baholash da yaxshiroq ekanini ko'rsatib berdi. Tadqiqotlarga ko'ra, boshlang'ich o'quvchilarga "maliy o'qish strategiyalari" bankini yoki matnning turli toifalari va janrlarini talqin qilish va tahlil qilish vositalarini o'rgatish, o'tgan javoblarni yozib olish usulidan ko'ra tushunishni o'rgatish uchun yanada muvaffaqiyatlari usuldir.

SQ3R-bu besh qadam uchun nomlangan o'qishni tushunish usuli: so'rov, savol, o'qish, tahlil va ko'rib chiqish. Har qanday matn talablaridan iloji boricha ko'proq ma'lumot toplashni o'rganish

²⁸ Хуторской А. В. Проектирование нового содержания // Школьные технологии. 2006. - №2. - С. 74-80.

uchun quyidagi amallarni bajarish lozim.

O‘qishdan olingan ma’lumotlar tahlil qilish va folklor asarlarini o‘qitishda muhim hisoblangan ushbu metodda dunyoqarashni rivojlantirishga imkoniyat beradi. Ushbu metoddan foydalanish quyidagi tarzda tashkil etiladi.

Maqsadlarni aniqlash va shakllantirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plash

Sarlavhani o‘qish-ongda mavzuni qabul qilishga tayyorgarlik ko‘rishga yordam berish.

Kirish va xulosani o‘qish-har bir bobda muallifning maqsadlariga qanday mos kelishiga yo‘naltiring va muallifning eng muhim fikrlarni bayoniga e’tibor qaratish.

Har bir qalin sarlavha va xulosaga e’tibor berish-o‘qishni boshlashdan oldin fikrni tartibga solish va kelgusi fikrlar va tafsilotlar uchun tuzilmani yaratish.

Har qanday grafikaga e’tibor berish – jadvallar, xaritalar, diagrammalar va boshqalar. Ularga alohida e’tibor berish va nazardan chetda qoldirmaslik. O‘qituvchi tahlil jarayonida ham shu narsaga e’tibor qaratishi lozim.

Fikrni jalb qilish va diqqatni jamlashga yordam berish

O‘qituvchi tomonidan har bir bo‘lim uchun qalin yuz sarlavhasini ushbu bo‘limda javob beradigan savollarga aylantirish lozim. Savollar qanchalik yaxshi bo‘lsa, o‘quvchining tushunishi shunchalik yaxshi bo‘ladi. Davom etayotganda har doim boshqa savollarni qo‘sish mumkin. O‘quvchi savollarga javob berishda o‘rganishga intiladi. Bu esa bilim va saviyani yanada oshiradi.

O‘qish. Mavzu doirasida aqliy tuzilmalar doirasida ma’lumotlarni to‘ldirish, savollarni yodda tutgan holda javoblarni qidirish lozim. O‘qituvchi tomonidan yangi savollar berish kerak bo‘lgan vaqt to‘g‘ri tanlanmog‘i kerak.

Fikrini diqqatni jamlash va o‘qiyotganda o‘rganish uchun qayta o‘rgatish lozim.

Har bir bo‘limdan so‘ng, savollarni to‘xtatib va eslash, ularga xotiradan javob bera olish ko‘nikmasini shakllantirish kerak. Agar yo‘q bo‘lsa, qayta murojaat qilish zarur. Lekin javob aniq berulmagunga qadar yangi bobga yoki boshqa mavzuga o‘tish mumkin emas.

Sharh. O‘quvchilardan o‘qigan matn yoki asar uchun sharh so‘rash ularning aqliy rivojlanishi va fikriy mustaqillik, hamda o‘zining munosabatini bildirishga imkoniyat beradi.

Oldingi qadamlar yordamida butun bobni tugatgandan so‘ng, har bir sarlavha uchun yaratgan savollaringizga qaytish lozim. Oldingi boblarga to‘xtalish orqali o‘quvchilarda yodda mustahkam saqlab qolish imkoniyatini beradi.

Folklor asarlarini o‘rgatish uchun turli xil texnikalar qo‘llaniladi. Folklor asarlarini tushunishga yordam berish uchun strategiyalar juda muhimdir. Ular qiyinchiliklarga qarab farqlanadi, masalan, yangi g‘oyalar, uzun va murakkab iboralar va boshqalar. Bu qiyinchiliklarni birdaniga hal qilishga urinish asossiz bo‘lishi mumkin. Biroq, o‘quv proseduralari o‘quvchining yoshi, qobiliyati va mahorat darajasiga mos kelishi kerak. Ovoz chiqarib o‘qish, guruh faoliyati va ko‘proq o‘qish topshiriqlari o‘qituvchilarning bir nechta texnikasidir.

O‘qishning oddiy ko‘rinishining ikkita muhim komponenti Skarboro tomonidan yaratilgan illyustrasiya bilan ifodalanadi. O‘qishni tushunishga hissa qo‘sadigan ikkita kerakli asosiy ko‘nikmalardan iborat. O‘qishning oddiy ko‘rinishi ikki komponentni talab qiladigan darajada malakali o‘qishni tushunishga o‘tishni ifodalaganligi sababli, u “oddiy” deb nomlanadi. Aslida, komponentlarning har biri uning asosiy elementlari tufayli murakkabdir. Folklor asarlarini o‘qitishda o‘quvchilar doimiy ravishda asosiy baza bilimlari, og‘zaki fikrlash va savodxonlik bilimlarining asosiy bazasini to‘plashlari kerak va ushbu elementlarni o‘qish paytida strategik ravishda qo‘llash qobiliyati matnlarni tushunish imkoniyatini beradi. Strategik jihatdan qo‘llash matnni o‘qish paytida o‘quvchilar uning ma‘nosini qanchalik yaxshi tushunishlarini doimiy ravishda kuzatib borishlari va mavzu, so‘zlar, va boshqalar haqida har qanday bilimlarni berishlari kerakligini anglatadi. Bu jarayon “metakognisiya” yoki fikrlash haqida o‘ylash deb ataladi.

Folklor asarlarini o‘qitishda va uning dasturiy ta’minotini mustaxkamlashga yordam beradigan yana bir metod bu **Literature Circles** metodi hisoblanadi. Ingliz tilidan tarjima qilinganda ada-biyot to‘garaklari yondashuvi-bu talabalarga yo‘naltirilgan o‘qitish usuli bo‘lib, unda talabalarning kichik guruhlari tanlangan matnni mustaqil ravishda o‘qiydilar va keyin uni muhokama qilish

Folklor asarlarini o'qitish yosh avlodni bilimlarini kelajak hayotda to'g'ri ishlatishga yordam beradi. Folklor asarlarini yaxshi o'rganish to'g'ri qarorlar qabul qilishga ko'mak beradi. Folklor asarlarini o'qitishda o'qituvchilar asosiy kalit vazifasini bajaradi. O'qituvchilar shifokorlardan kuchli, shifokorlar yanglishsa bitta qurbon qilishi mumkin, o'qituvchi esa birdaniga 40 ta kishini qurbon qiladi. Kontentni bilish deganda faqat fanning mazmunini bilish nazarda tutiladi. Bilimlarni biz ikki turga ajratamiz.

1. Prosessual bilimlar

2. Epistemik bilimlar

- Prosessual bilimlar deganda tabiatdagи jarayonlar to'g'risidagi bilimlar nazarda tutiladi. Ilmiy bilimlarni olish uchun olimlar foydalanadigan xatolarni minimallashtirish va noaniqlikni kamaytirish uchun takroriy o'lhashlar, o'zgaruvchilarni nazorat qilish va

ma'lumotlarni taqdim etish va uzatishning standart proseduralari kabi proseduralarni bilish.

- Epistemik bilimlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Savollar, kuzatishlar, nazariyalar, farazlar, modellar va dalillarning ilmiy amaliyotdagi rollarini tushunish. Savolni shakllantiradigan va ilmiy izlanishga undaydigan qadriyatlar va mulohazalarni qadrlash, ilmiy izlanishning xilma-xil usullarini bilish. Ishonchli bilimlarni tasdiqlashda o'zaro baholash va ilmiy konsensusning ahamiyatini tushunish.

Ta'lim jarayonini rejorashtirish -bu tizimli jarayon bo'lib, u orqali o'qituvchilar o'quvchilarning bilim olishini osonorashtirish uchun o'quv faoliyatini nazarda tutadi, tashkil qiladi va amalga oshiradi. U o'qituvchilar uchun yo'l xaritasi bo'lib xizmat qiladi, ularning qiziqarli va mazmunli o'rganish tajribasini yaratishga qaratilgan sa'y-harakatlarini boshqaradi. Darslarni diqqat bilan loyihalash va tashkil qilish orqali o'qituvchilar o'qitish samaradorligini optimallashtirishi va talabalar natijalarini yaxshilashi mumkin. Darsni rejorashtirishning asosiy maqsadi samarali o'qitish va o'quvchilarni o'rganishini qo'llab-quvvatlovchi tizimli asosni ta'minlashdir. Yaxshi ishlab chiqilgan dars rejalarini aniq maqsadlar, o'qitish strategiyalari va baholash usullarini belgilaydi, bu esa o'rganish tajribasining o'quv rejasini maqsadlariga mos kelishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, darsni rejorashtirish o'qituvchilarga talabalarining turli xil ta'lim ehtiyojlarini oldindan bilish va hal qilish, qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish imkonini beradi.

Rejorashtirish o'quv natijalariga e'tibor qaratishdan boshlanadi va o'qitilayotgan mazmunni chuqur tushunishga olib keladi. O'qituvchilar darslar ketma-ketligini rejorashtiradi. Ular o'quv rejasini, mashg'ulotlar va materiallarni belgilashdan oldin o'quv natijalariga e'tiborni qaratadilar. Bu ketma-ketlik o'quvchilarga o'qitiladigan mazmunni chuqur anglash imkonini beradi.

Ta'limni rejorashtirish o'qituvchilar bilan talabalar nimani o'rganishi va qanday o'rganishi haqida strategik qaror qabul qilishning muhim usuli hisoblanadi. Ayni paytda "rejorashtirilgan ta'lim tajribasi" bilim yoki ko'nikmalarini ta'minlaydigan yoki munosabatni o'zgartiruvchi maqsadli ravishda rejorashtirilgan va ta'lim natijalarini rivojlantirishga xissa qo'shadigan o'quv hodisasi

sifatida taqdim etiladigan har qanday faoliyatdir.

Darsni rejalashtirishning ba’zi afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Istalgan dars maqsadlariga mos keladigan dars rejasini yaratish
- Dars uchun ajratilgan vaqtdan samarali foydalanish
- Boshqa joyda ishlata olish
- Talabalar uchun o‘rganishni baholashni ta’minalash

Ta’lim rejasini –bu bitta mashg‘ulotning tuzilishi va tafsilotlarini belgilaydigan hujjat. Yaxshi o‘qitish rejasini –bosqichma –bosqich o‘qitish usullarini, o‘qitishning har bir segmentining taxminiy davomiyligini va mashg‘ulot uchun zarur bo‘lgan materiallar va resurslarni to‘liq ta’minalishidir.

Darsni tashkil etayotgan o‘qituvchi ta’lim rejasini tuzishda bir qator elementlarga e’tibor berishi kerak hisoblanadi. Ya’ni muvaffaqiyatli ta’lim rejasini ishlab chiqishda:

- guruxda turli tadbirdirlari: videolar, muhokamalar, guruqlar, mehmon ma’ruzachilari, juftliklardan foydalanishga;

-turli xil topshiriq usullari: yozma, og‘zaki, loyihalar va bosh-qalarga;

-iloji boricha ko‘proq o‘rganish usullarini jalb qilish (masalan, vizual, eshitish) ga;

-talabalarga bir nechta yechimlarga ega bo‘lgan hal qilish uchun haqiqiy dunyo muammosini berishga e’tibor qaratio‘i lozimdir.

Ushbu elementlarni inobatga olgan holda darslarni rejalashtirish samaradorlik va ta’limning oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish yo‘lini ochib beradi. Ta’lim maqsadlariga erishish uchun ta’lim strategiyalarini, standartlarni oldindan belgilash juda muhim. Shu bilan birga uning muhim xususiyati mantiqiy, tizimli, ilg‘or, missiyaga yo‘naltirilganligi va kelajakka yo‘naltirilganligidadir. Ta’limni rejalashtirish qanday qiyinchiliklarni o‘z ichiga oladi? Bular ilmiy kompetensiya ko‘rsatkichlarini shakllantirish, aniq o‘quv maqsadlarni yozish, mos materiallarni topish, tegishli o‘qitish usullarini tanlash, ta’lim vositalari va resurslarni tanlash, qiziqarli faoliyatni shakllantirish va samarali baholashni yaratishdagi qiyinchiliklardir.

Belgilangan o‘quv maqsadlari va baholash usullari bilan o‘qituvchi

talabalarga kurs maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan resurslar va ma’lumotlarni taqdim etish uchun qaysi strategiyalar yaxshiroq ishlashini o‘rganishdan iborat. Butun dars rejasi uch bosqichli ta’lim strategiyasidan iborat.

1-bosqich: siz o‘z darsingizdan qanday natijalar kutganingizni yozib chiqasiz;

1-bosqich-Kutilayotgan natijalar	
O‘rnatalgan maqsadlar: Ushbu loyiha qanday maqsadlar (masalan, kontent standartlari, kurs maqsadlari, o‘quv natijalari)ga qaratilgan	
Tushunchalar:	Muhim savollar:
Talabalar quyidagilarni tushunadilar....	Qanday muhim savollarni o‘rganishni, tushunishni va bilim almashishni rivojlantiradi.
Katta g‘oyalar nima?	
Ular haqida qanday tushunchalar talab qilinadi?	
Qanday noto‘g‘ri tushunchalar bo‘lishi mumkin?	
O‘quvchilar..... bilib oladi	Talabalarqila oladi
Ular qanday bilim va ko‘nikmalarini yegallashadi?	Ular so‘ngida nimalarni qilishga qodir bo‘lishadi?

Oliy ta’lim tizimida professor-o‘qituvchilar ta’lim jarayonini boshqaruvchisi hisoblanadi. Ta’lim tizimining asosiy maqsadi ta’lim jarayonlarini boshqarish va nazorat qilishdan iboratdir. Ta’lim maqsadlariga erishishda ta’limning bir qator vazifalarini amalga oshirish lozimdir. Ta’lim maqsadiga erishish jarayonidagi umumiyl natijalarni tahlil qiladi. Yordamchi vositalarni qo‘llash, ta’lim oluvchilar ma’lumotlarini to‘plash hamda baxolashni amalga oshirishni nazorat qiladi. Ta’lim uchun eng muxim bo‘lgan elementlarni aniqlaydilar.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro munosabatga kirishiladi. O‘qituvchi ta’lim berishda ushbu munsabatlarning o‘z shaklini o‘zgartirgan holda munsabatga kirishishi ijodiy ta’limni shakllantirishga imkoniyat beradi. oliy Ta’lim muassasalarida folklor asarlarini o‘qitishning dasturiy ta’minotini takomillashtirishda innovation ta’lim metodlari hamda modellaridan foydalanish o‘rtadagi bog‘lanishlar biroz o‘zgarishiga olib keladi. Hozirgi kunda xar bir pedagog ta’lim metodlari va kompyuter

texnologiyalarini, texnik tizimlar majmuini puxta bilishi bugungi kunning asosiy shartlaridan biridir. Shu sababli pedagog ishlab chiqarishning faol ishtirokchisi hisoblanadi.

Folklor asarlarini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirishning zamonaviy modellari orqali oliy ta’lim tizimida darslarni tashkil qilish bir tizim aniq reja asosida olib borilishi sifat va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Folklor asarlarini o‘qitishda bir qator modellardan foydalanish zarur. Dastavval model o‘zin nima ekanligiga to‘xtalib o‘tsak.

Model – bu bir obyekt, shaxs yoki tizimning ma’lumotlar bilan ta’riflangan tasviridir. Bu atama XVI asrning oxirida ingliz tilida arxitektik rejalar ma’nosini bildiradi va fransuz, italyan tillaridan kelib chiqqan bo‘lib, lotin tilining modul o‘lchovidan kelib chiqqan. Termin sifatida model atamasi muayyan sohalarda “sturktual dizayn yoki joylashuv” ma’nosidan kelib chiqqan.

“Model” tushunchasi (fr. modele /lot/ modulus – o‘lchov, me’yor ma’nolarini anglatadi), tabiiy fanlar yoki umuman fanda muayyan originalobyekt haqidagi ma’lumotlar majmui sifatida yuzaga kelgan hosila - obyekt, moddiy qurilma, grafik, sxema, umuman, bilish vositasi²⁹.

Boshqacharoq aytganda, model tabiiy obyektlarning imitasiyasidir (o‘xhashi, taqlidiy ko‘rinishi), u o‘zbek tilidagi “qolip”, “andaza” so‘zlariga mos keladi. Model hodisalarning yuzaga kelishi uchun asos vazifasini o‘taydi, bunda aniq yoki mavhum obyektlar kichraytirilgan obyektlar, sxemalar, chizmalar, fizikaviy konstruksiyalarda tadqiq etiladi. Modellarni yaratish fanning rivojlanish jarayoni kabi uzluksizdir.

Ko‘rgazmali modellardan o‘qitish jarayonida keng qo‘llaniladi va bevosita o‘zlashtirilishi qiyin kechadigan obyekt yoki jarayonni ko‘z bilan ko‘rib tasavvur qilish imkoniyatini beradi.

Folklor asarlarini o‘qitish va uni yoshlarga o‘rgatish orqali jamiyatda yoshlар o‘rtasida yuz berayotgan turli ahloqsizliklarni oldini olish mumkin. Folklor asarlari qadriyatlarning tiklanishi va

²⁹ Моделирование воспитательного процесса // Воспитательная деятельность: методология, содержание, технологии. Монография//Борытко Н.М.,Воронцова Т.В., Герасев П.В. и др. Под ред. В.А.Тятина. – Астрахань: Школа, 2001. – 536 с.

uni keng targ‘ib qilishda asosiy rol o‘ynaydi. Folklor qadriyatlar va hayot normalariga to‘la juda yaxshi vosita sifatida innovation texnologiyalar yordamida o‘qitish orqali talabalarda yaxshi munosabatni shakllantirish mumkin. Folklor asarlarini o‘qitishda loyihalashtirishning ahamiyati kattabir. Dasrnining loyihasini va o‘tkazish modelini aniq belgilab olgandan keyin darslarni tashkil qilish ta‘limda aniq ko‘zlangan maqsadga erishishga olib keladi.

Folklor asarlarini o‘qitishda dasturning tuzilishida 3 ta asosiy sohani birgalikda qo‘llay olishni ta‘minlashga xarakat qilishi kerak bo‘ladi. Bilish, tushunish va qo‘llashni bilishlari kerak bo‘ladi. Ko‘nikmalar, jarayonlar, qadriyatlar va munosabatlар izchilligini ta‘minlab berishi kerak bo‘ladi. O‘quv dasturi talabalrning darsga qiziqishi, fanga intilishini oshirishga xizo‘mat qilishi kerak bo‘ladi. Folklor asarlarini o‘qitishda 3 ta IN - Inspire, Inquire va Innovate metodini qo‘llash folklor asarlarini o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiq qilish	Baholash va mulohaza yuritish	Yechimlarni o‘ylab topish va baholash
<ul style="list-style-type: none"> Savollar qo‘yish va muammolarni aniqlash. Tadqiqotlarni loyihalash. Eksperimental bajarishva natijalarni sinovdan o‘tkazish. Ma‘lumotlarni tahlil qilish va sharhlash. 	<ul style="list-style-type: none"> Dalillar bilan fikrlarni yetkazish, baholash va muloqot qilish; Asoslangan qarorlar qabul qilish va mas’uliyatli harakatlarni amalga oshirish. 	<ul style="list-style-type: none"> Modellardan foydalanish va takomillashtirish; Sharhlari yaratish va yechimlarni ishlab chiqish.

“5E Inquiry” yondashuvini hamkorlikda o‘rganish.

“5E” modeli folklor asarlarini o‘rganishda qo‘llaniladigan zamonaviy yondashuv bo‘lib, beshta asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi jalg qilish (engagement), tadqiq etish (exploration), tushuntirish (explanation), qo‘llash (elaboration), baholash (evaluation).

1-bosqich. Diqqatni jalg qilish – engagement

Ushbu bosqichda talabalarning tayanch bilimlarini faollashtirish, ularning diqqatini mavzuga jalg qilish, yangi mavzuni o‘rganishga qiziqtirish, o‘rganilayotgan obekt, ilmiy hodisa yoki muammoga e’tibor qaratishga undash zarur.

Ushbu bosqichning muhim qismi talabalarning tayanch bilimlari va xato tushunchalarini aniqlashdan iborat.

O‘qituvchi ushbu bosqichni amalga oshirish uchun talabalarni savol berishga undaydigan rasm, jadval, grafik, model kabilarni ko‘rsatishi yoki mavzuga doir qanday hayotiy tajriba, tasavvur va tushunchalarga egaligi haqida savol berishi mumkin.

1-bosqich natijasi: talabalarning tayanch bilimlari va xato tushunchalari aniqlanadi; ularda savolga javob topish ishtiyoqi ortadi.

Masalan:



Suratni diqqat bilan kuzating. Suratda qaysi qaxramonni ko‘ryapsiz? Nima sababdan uni payqash qiyin?

Nima uchun asar qaxramonlari bir biridan farq qiladi?

2-bosqich. Tadqiq etish – exploration

Ushbu bosqichda savollarga javob izlash talab etiladi. Bu turli ma’lumot manbalari bilan ishslash yoki kuzatish tarzida amalga oshiriladi.

O‘qituvchi talabalarga ilmiy tadqiqot metodlari va mavzuga oid ilmiy tushunchalarni o‘rganishni taklif yetadi. So‘ng ular guruhlarda ishlab, tadqiq etiladigan savollar qo‘yadi. Guruhlar o‘zi tanlagan ilmiy tadqiqot metodini asoslaydi. Guruhnинг har bir a’zosi maqsadga erishishda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi kerak. O‘qituvchi guruhda qizg‘in bahs-munozara o‘tkazilishini rag‘batlantirishi maqsadga muvofiq.

Tadqiq etish bosqichida talabalar tadqiqot natijalaridagi qonuniyatni payqashi, sabab-oqibat bog‘lanishlarni aniqlashi kerak. O‘qituvchining vazifasi talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish, talabalarni kerakli material va jihozlar bilan ta’minalash, ularni tinglash, savol va ko‘rsatmalar berish, ilmiy tushunchalar mohiyatini anglash va yangi ko‘nikmalarni rivojlantirishda talabalarga ko‘maklashishdan iborat.

2-bosqich natijasi: talabalar o‘tkazilgan tadqiqotni va uning natijalaridagi qonuniyatlarni muhokama qiladi. Bu har bir talabaga kursdoshlarining kuzatishlari va dastlabki tushuntirishlarini tinglashga, shuningdek, darsning keyingi bosqichiga tayyorgarlik ko‘rishga imkon beradi.

Kutug‘mish nima sabab aynan Xolbekani tanlaydi

Nima uchun? Javobingizni sinfdoshingiz bilan muhokama qiling.


3-bosqich. Tushuntirish – explanation

O‘quvchilarning “Diqqatni jalb qilish” va “Tadqiq etish” bosqichlarida egallagan bilimlari ushbu bosqichda yuzaga chiqadi. Bu bosqichni boshlash juda oddiy: talaba talabalardan avvalgi bosqichlarda nimani o‘rgangani va kuzatganini tushuntirishni so‘raydi.

So‘ng mavzuga oid ilmiy tushunchalarga ta’rif beradi. O‘quvchilarga avvalgi bosqichlarda egallagan bilimlariga tayanib, ushbu tushunchalarni izohlash imkoniyatini berish kerak.

O‘qituvchi mavzuni tushuntirish jarayonida ijodkorlikni namoyon etishi kerak. O‘quvchilar ilmiy tushunchalarni yaxshiroq o‘zlashtirishi uchun nafaqat verbal, balki video, audio yoki kompyuter dasturlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Tushuntirish bosqichida talabalar avval egallagan bilimlariga tayanishi lozim.

3-bosqich natijasi: talabalar avvalgi bosqichlarda egallagan bilimlarini ushbu bosqichda darhol qo‘llay olmasa, o‘qituvchi xavotirga tushmasligi kerak – ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirish vaqt talab etadi. O‘quvchilar avvalgi bosqichlardagi o‘quv-bilish faoliyati va ushbu bosqich orasidagi bog‘liqlikni anglay olsa, keyingi bosqichga o‘tish mumkin.



Bu bosqichga quyidagi folklorshunoslik fani bo‘yicha namunani tavsiya etamiz.

1-bosqich-Kutilayotgan natijalar	
Mavzu: Hozirgi zamon folklorshunosligida yetakchi metodlar	
Katta g‘oya: Metodlar Barqaror tushuncha Metodlarning folklor asarlarini o‘qitishga ta’siri	Muhim savollar: Sizningcha folklor asarlarini o‘qitishda eng qulay va samarali usul qaysi?
Bilimlar; Metod, metodika, interaktiv metodlar, innovation texnologiyalarning folklor asarlarini o‘qitishga ta’siri haqidagi bilimlar Ko‘nikma va jarayon: Muloqat qilish, tahlil qilish, qaror qabul qilish	Yondashuvlar Qiziquvchanlik, ijodkorlik, mas’uliyat

Guruhlarga 1-bosqich rejasini ishlab chiqish uchun topshiriq beriladi. Ular seminar-treningda olgan bilimlarini umumlashtirib yuqoridaq namuna bo‘yicha o‘zbek adabiyoti, folklorshunoslik fanlari bo‘yicha 1-bosqich ta’lim strategiyasini ishlab chiqadilar. Bu topshiriqni bajarishlari uchun qog‘oz, rangli stikerlar, marker kerak bo‘ladi.

2-bosqichda baholash dalillarini aniqlash va bu yerda siz baholash ma’lumotlarini yig‘ib olishingiz kerak bo‘ladi

2-bosqich-baholash dalillari	
Bajariladigan vazifalar Talabalar qanday qilib haqiqiy bajariladigan vazifalar orqali kerakli tushunchalarni namoyish etadilar? Tushunchalarning bajarilishi qanday mezonlar bilan baholanadi?	Boshqa dalillar Talabalar qanday qilib boshqa dalillar (masalan, testlar, nazorat ishlari, uy vazifalari, jurnallar, kuzatishlar) orqali kerakli natijalarga erishganliklarini namoyish etadilar? Talabalar qanday qilib o‘z olgan bilimlarini ko‘rib chiqishadi va baholashadi?

2-bosqichni amalga oshirishda GRASPS metodidan foydalaniш mumkin.

GRASPS -qisqartma so‘z bo‘lib,u o‘z ichiga quyidagilarni oladi;

Maqsad: senariydagi maqsad yoki muammo	*sizning vazifangiz *yengib o‘tish kerak bo‘lgan TO‘siqlar *maqsad *muammo
Rol: senariydagi talabaning roli	*siz... *sizning ishingiz... *sizdan so‘rashgan
Tinglovchi: talaba topshiriqni bajarishida tashvishlanishi kerak bo‘lgan auditoriya yoki mijoz	*maqsadli auditoriya bu..... *siz ishontirishingiz kerak....
Vaziyat: muayyan sharoit / kontekst	*siz o‘zingizni topadigan kontekst... *qiyinchilik muammo bilan shug‘ullanishni o‘z ichiga oladi...
Natija	*sizuchunyaratasziz *rivojlanishingiz kerak.....shuning uchun..
Muvaffaqiyat mezonlari:ish qaysi standartlarga mos kelishi senariyda baholanadi	*siz ishlashingiz kerak *muvoffaqiyatlri natija *sizning ishingiz baholanadi

Guruhlarda ishlash. Har bir guruhga GRASPS metodidan foydalangan holda topshiriq beriladi. O‘zbek adabiyoti fani bo‘yicha har bir jamoa rasmlı topshiriqni bajarishi kerak.

G.R.A.S.P.S bo‘yicha ko‘rib chiqadigan bo‘lsak;

Mavzu	Ravshanxon dostonining o‘qitilishi
Maqsad	Talabalar rasm orqali Ravshanxon dostonining syujetlarini ko‘rsatishlari kerak.
Rol	Rassom
Tinglovchi	Muzey direktori(rasmlarni sotadi)
Vaziyat	Shaxsiy
Natija	Rasm orqali Ravshanxon dostonini tasvirlaydilar

Muvoffaqiyat mezonlari va standartlar: Bunda har bir guruh o‘z taqdimotini namoyish qiladilar va boshqa guruh a’zolari ularga baho beradilar, baho berishda kreativ yondashuvga ahamiyat beriladi.

Ushbu rasmda 2 ta guruhning taqdimoti solishtirilib qaysi biri kreativ ekanligi haqida o‘quvchilarga savol beriladi va bиринчи rasm 1 ball bilan ikkinchi rasm esa 3 ball bilan baholandi, ya’ni ikkinchi guruh kreativ yondoshganligi aniqlandi .Bu yerda dizaynga ko‘proq ahamiyat beriladi.

3-bosqich ta’lim strategiyasi W.H.E.R.E.T.O-qayerga? deb nomlanadi.

W.H.E.R.E.T.O - Qanday o‘quv tajribalari va ko‘rsatmalar o‘quvchilardan kutilgan natijalarga erishishga yordam beradi? Reja qanday bo‘ladi?

• W: Sinf (Guruh) qaysi yo‘nalish bo‘yicha yo‘naltirilgan? Nima kutilmoqda? Talabalar qanday bazaviy bilimlar bilan kelmoqda (oldingi bilim va qiziqishlar)

- H: Talabalarni diqqatini jalg qilish va qiziqtirish
- E: talabalarga asosiy g‘oyalarni tushunishga va masalalarni o‘rganishga yordam berish
- R: Ishlarini tushunishlarini qayta o‘ylash va qayta ko‘rib chiqish
- E: Talabalarning ishlarini va uning natijalarini baholash
- T: Turli ehtiyojlar, qiziqishlar va qobiliyatlarga moslash(har bir kishi uchun)
- O: Samarali o‘rganish uchun boshlang‘ich va barqaror ishtirokni maksimal darajada tashkil qiling

Shu turdagи 3 bosqichli dars rejasini tuzish U/D deb nomlanadi, an‘anaviy o‘qitish rejasiga qarama-qarshi dars rejasidir.

U- tushinish

D- dizayn, ya’ni dizayn orqali tushunish. Bu dars rejasи 2005 yilda ishlab chiqilgan.

Ko‘pincha o‘quvvchilar dars o‘tishni teskaridan boshlashadi.

-Qanday mashqlarni bajarish kerak?

-Qanday talabalarni darsga qiziqtiraman?

-Qanday qilib 5Ye modelini shakllantiraman?

-Qanday qilib shu mavzudagi kitobni o‘qitishga chorlayman?

-Qanday baholayman?

-Qanday qilib turli toifadagi talabalar bilan ishlayman?

An‘anaviy ta’limda o‘quvvchilar dars rejasini tuzishni 3-bosqichdan boshlashadi.

U/D bo‘yicha esa 1-bosqichdan, ya’ni katta g‘oyalar, barqaror tushunchalar, muhim savollar tuzishdan boshlanadi.

Darsni rejalashtirish samarali o‘qitish va o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim tajribasini diqqat bilan loyihalash va tizimlashtirish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning ta’lim natijalarini optimallash-ti-radigan qiziqarli va mazmunli darslarni yaratishi mumkin. Asosiy komponentlar va strategiyalarni o‘z ichiga olgan darsni rejalashtirishga puxta yondashish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirishi, ijobiy sinf muhitini yaratishi va o‘quvchilarga o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishlari uchun imkoniyat yaratishi mumkin

U/D	U-tushunish, D-dizayn,dizayn orqali tushunish ma’nosini beradi
GRASPS	O‘quvchilar uchun qiziqarli, dolzarb, muhim va qiyin bo‘lgan vazifalarni rejalashtirish, tartibga solish va bajarishda yordam beradigan kuchli baholash modeli,ingliz tilidagi so‘zlar qisqartmasi Goal-maqsad, Role- ro‘l, Audiencye-tinglovchi, Situation- vaziyat, P-product- mahsulot, Standards- standartlar
W.H.E.R.E.T.O	Qayerga? ma’nosini bildiradi

SMART - bu aniq va o‘lchanadigan maqsadni shakllantirish, zarur resurslar va unga erishish vaqtini aniqlash imkonini beruvchi usul. SMART ta’lim (texnologiya) maqsadlari bilan o‘quv tajribalarini rejalashtirishdir. Mazkur mavzuda ta’lim tizimida Smart- o‘quv maqsadlari orqali o‘qitishning afzalliklari keng yoritilgan. Ta’lim muassasalari faoliyatida Smart- o‘quv maqsadlarining ahamiyati, maqsadi, mazmuni, o‘qitishdagi afzalliklari va dars jarayonida maqsadni aniq qo‘yish orqali natijaga erishish, maqsad qo‘yish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari, tamoyillari va metodlari keng yoritilgan. Shu bilan birga maqsadlarni amalga oshirishni 5 sharti va strategiyasi haqida ma’lumot olishingiz mumkin.

O‘rganishning asosiy jihatlari:

- Smart o‘quv maqsadlari - aniq, o‘lchab bo‘ladigan, erishish mumkin bo‘lgan, dolzarb va vaqt bilan chegaralangani va ta’lim tizimidagi afzalliklari keng yoritilgan.
- Ta’lim muassasalari faoliyatida Smart- o‘quv maqsadlarining ahamiyati, maqsadi, mazmuni, o‘qitishdagi afzalliklari va dars

jarayonida maqsadni aniq qo'yish orqali natijaga erishish.

- Maqsad qo'yish bilan bog'liq muammolarni aniqlash hamda ularning o'ziga xos hususiyatlari, tamoyillari va metodlari o'rGANISHGA imkon beradi.
- SMART o'quv maqsadining uch elementi hamda SMART o'quv maqsadlarini joriy etishning besh usuli.
- Zarur jihozlar: har bir guruh ishi uchun vatman, marker, A4 qog'oz, taqdimot.

Mashg'ulotni tashkil etish rejasি				
Bosqichlar	Amalga oshirish tartibi	Vaqt	Material-lar	
1. Kirish	Yangi mavzuga kirish uchun topshiriq	10 min		
2. Muammolar, uning yechimi va mezoni	SMART o'quv maqsadlari yordamida o'rGANISHNI rejalashtirish va dars jarayonida maqsadni aniq qo'yish orqali natijaga erishish; maqsad qo'yish bilan bog'liq muammolarni aniqlash;	25 min	3 - tarqatma	
3. Amaliy ishlар	Guruhdha mavzu yuzasidan topshiriqlar bajarish	30 min	3 - tarqatma	
4. Mavzuni mustahkamlash	Mashg'ulot haqida fikr yuritish va SMART o'quv maqsadlari yordamida dars rejasini tuzish	10 min	Flipchart, oq qog'oz, marker	
5. Natijalar va baholash	Muhokamalar va o'zini o'zi baholash orqali olinadigan natija	5 min	Og'zaki yoki tarqatmalar	

Mashg'ulotning borishi:

1. Mashg'ulotni boshlash

Qatnashchilarni mashg'ulotga jalb etish.

Vaqt: 10 min

	3 ta ijobjiy xislat yozing		1ta salbiy xislat yozing
	Orzular		Maqsadlar

Qatnashchilarning javoblari eshitiladi va qo‘yilgan maqsadlar to‘g‘rimi bu maqsadlarni real amalga oshirish mumkinmi? degan savol bilan yangi mavzu o‘rganiladi.

SMART o‘quv maqsadlari

Zamonaviy darsning maqsadi aniq o‘lchovli bo‘lishi kerak, maqsadni dars natijasi bilan aniqlash mumkin. Darsni samarali tashkil etish va o‘tkazish, dars ishlanma yaratish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

1. Darsning maqsadlarini aniqlash
2. Dars turiga aniqlik kiritish
3. Maqsadlarga muvofiq mashg‘ulot usullarini tanlash
4. Maqsad, vazifa, mazmuni va o‘qitish uslubiga mos keladigan dars tuzilishini aniqlash.

Birinchi qoidani batafsilroq ko‘rib chiqsak-dars maqsadlarini aniqlash. Ular qanday qilib to‘g‘ri shakllantirilishi mumkin? Ko‘pincha yosh o‘qituvchining dars ishlanmalarida quyidagilarni o‘qish mumkin: “Talabalarga mavzuni gapirib berish”, “Folklor asarlarini o‘qitishning zamonaviy metodlari bilan tanishtirishi” va hk. buni darsning maqsadi deb hisoblash mumkinmi? yo‘q!

O‘qituvchi faoliyatining maqsadi - uning bilimga intilishi, talabani tayyorlash, o‘qitish va rivojlantirish darajasini o‘zgartirish to‘g‘risida ongli ravishda qaror qabul qilish, shuning uchun darsning maqsadlari iloji boricha aniqroq bo‘lishi kerak. SMART dars rejasi samarali ta’lim uchun muhimdir. SMART degani aniq, o‘lchab bo‘ladigan, erishish mumkin bo‘lgan, dolzarb va vaqt bilan chegaralangan degan ma’noni anglatadi. Keling, har bir elementni o‘zbek adabiyoti, folklorshunoslik misoli orqali ko‘rib chiqamiz.

Muvofiqlikka yo‘naltirilgan maqsadlarni belgilashning bir yo‘li – SMART- mezonlarini qo‘llashdir. SMART “to‘g‘ri” maqsadlarni belgilash uchun eng muhim besh mezonni eslab qolishga yordam beradigan abbreviaturadir (beshta inglizcha so‘zlarning birinchi harfiga asoslangan):

Aniqlik (o‘ziga xoslik, maxsus) - Birinchi element aniqlikdir. Maqsad aniq qilib belgilab berilgan bo‘lishi kerak. U quyidagi savollarga javob berishi kerak: nima qilish kerak? Kim javobgar? Qanday talablar va cheklar mavjud?

Siz talabalarga folklor asarlarini o‘qitishning zamonaviy usulalarini tushuntirishni xohlaysiz? Bu maqsad juda aniq, chunki u Folklor asarlarini o‘qitishning zamonaviy usullarini yoritib berish vazifasiga qaratilgan. Hyech qanday noaniqlik yo‘q; maqsad ochiq va aniq belgilangan. Misol uchun, darsingiz zamonaviy metodlar, uning folklor asarlarini o‘qitishga ta’sirini o‘rgatishga qaratilgan bo‘lishi mumkin, bu har bir bosqichning tafsilotlarini tushunishlariga qaratilgan.

O‘lchamga ega – Keyingi element o‘lchanadigan. Maqsad taraqqiyotni kuzatish va muvaffaqiyatni aniqlash uchun miqdoriy yoki o‘lchanadigan mezonlarga ega bo‘lishi kerak. U quyidagi savollarga javob berishi kerak: qancha? Necha dona? Qachon bajarilganini qanday bilsam bo‘ladi?

O‘quvchilar darsni tushunganligini bilish uchun, siz ularning bilimlarini qanday tekshirishingiz mumkin?. Siz onlayn testlar, shakllantiruvchi baholashlar yoki guruxdagi faoliyatlar orqali ularning bilimlarini baholashingiz mumkin. Misol uchun, siz o‘quvchilardan metod qismlarini belgilash yoki ta’lim jarayonini tasvirlashni so‘raydigan onlayn test tayyorlappingiz mumkin. Yoki guruxdagi faoliyatda talabalar o‘rgangan bilimlaridan foydalanib folklor asarlarini o‘qitish tizimini modellashtirishlari mumkin, bu ularning tushunishini o‘lhashning bir ko‘rsatkichi bo‘ladi.

Erishsa bo‘ladigan - Erishish mumkin bo‘lganlik - uchinchi komponentdir. Maqsad real va vaqt, resurslar va ko‘nikmalar kabi cheklovlar doirasida erishish mumkin bo‘lishi kerak. Qanday amallar qilinishi zarur? Maqsadga erishish shartlari qanday?

Dars maqsadlari realistik va sinf muhitining cheklovlari doirasida amalga oshirilishi kerak. Bu mavjud yoki oson yaratiladigan materiallardan foydalanishni anglatadi. Misol uchun, siz yurakning funksiyalarini tushuntirish uchun diagrammalar, modellardan yoki onlayn interaktiv simulyasiyalardan foydalanishingiz mumkin. O‘quvchilar haqiqatdan ham tushunishi mumkin bo‘lgan maqsadlarni belgilash muhimdir, masalan, yurakning asosiy ishlash mexanizmini tushunish yurak hujayralarining biokimyoiy jarayonlari kabi murakkab mavzulardan ko‘ra osonroqdir.

Dolzarb -to‘rtinchi element dolzarblikdir. Maqsad tashkilot yoki loyihaning umumiy maqsadlari va strategiyalariga mos kelishi kerak.

Bu foydali bo‘lishi va kerakli natijalarga hissa qo‘shishi kerak.

Dars maqsadi o‘quv dasturi va o‘quvchilar ehtiyojlariga muvofiq mazmunli bo‘lishi kerak. Folklor asarlarining funksiyasini tushunish juda muhim, chunki u inson ma’naviy olamining muhim qismidir. Bu bilim nafaqat folklorshunoslik uchun, balki umumiy o‘zbek adabiyoti uchun ham dolzarbdir. Misol uchun, folklor asarlarini o‘qitish usulini tushunish talabalarga zamonaviy ta’lim metodlari va funksiyasi haqida ongli qarorlar qabul qilishga yordam beradi, shuning uchun darsning haqiqiy hayotdagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

Vaqt bilan chegaralangan - Oxirgi element vaqt bilan chegaralanganlikni anglatadi, ya’ni dars maqsadlarini amalga oshirish uchun aniq muddat belgilanishi kerak. Maqsad muayyan muddat yoki yakunlash muddatiga ega bo‘lishi kerak. Bu shoshilinchlik tuyg‘usini yaratishga yordam beradi va harakatlarni bиринчи o‘ringa qo‘yadi. Masalan, folklor asarlarini o‘qitish mavzusini batafsil yoritish uchun ikki hafta yetarli bo‘lishi mumkin deb qaror qilishingiz mumkin. Bu davr bir nechta darslar, testlar va ko‘rib chiqish seanslarini o‘tkazishga imkon beradi, bu esa to‘liq tushunishni ta’minlaydi. Aniq vaqt oralig‘ini belgilash dars tuzilishini rejalashtirishda yordam beradi va maqsadlar belgilangan muddat ichida bajarilishini ta’minlaydi.

SMART o‘quv maqsadlarining uchta elementi bor:

1. Namoyish - o‘quvchi nima qila olishi va tayyorlay olishi kutilmoqda?
2. (Muvaffaqiyat) mezonlar - maqbul ishslash mezonlari qanday?
3. Shartlar - qanday sharoitlarda ishslash sodir bo‘ladi.

SMART o‘quv maqsadlaridan foydalanilganda uning har bir o‘rganish aspekti hisobga olinishi lozim.

1. Folklor asarlarini o‘qitishning dasturiy ta’mintonini takomillashtirishda folklor asarlariga oid mustaqil ta’lim ishlarini tashkil qilishda madaniy intervyu metodidian foydalanish talabalarning o‘zлари ustida ishslash va darsning samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi. Talabalr o‘rganilgan mavzular yuzasidan o‘zларining taqdimotlarini ko‘rsatib bergen holda himoya qilishlari tavsiya etiladi.

2. Folklor asarlarini o‘qitishning zamonaviy innovasion va interaktiv metodlardan foydalanish orqali talabalarning ijodiy faoliyatini yanada rivojlantirish mumkin.

3. Zamonaviy ta’lim modellarini orqali dars tashkil etilgan aniq maqsadi va vaqtning tanlab olinishi samaradorlikni oshirish imkoniyatini beradi.

4. Zamonaviy ta’lim modellaridan 5 Ye, GRASPS, VHYeRTO, SMART ta’lim modellaridan foydlangan holda darslarni tashkil qilish orqali folklor asarlarining o‘qitish tizimiga kiritilgan yangiliklar tufayli talabalarining o‘z ustida ishlash hamda o‘zlarining baholash kabi ta’lim komponentlarini yanada rivojlantirish mumkin.

5. Folklor asarlarini o‘qitishning dasturiy ta’minotini yanada oshirish maqsadida multimedia mahsulotlarilan foydalanish o‘rganilgan folklor asarlarini davomiyligini saqlash va kelajak avlodga yetkazib berishni imkoniyatlarini kengaytiradi.

6. Folklor asarlarini o‘qitishda ta’limning samaradorligini oshirishda metodlarni tanlashda mavzuga mos metodni to‘g‘ri tanlay olish samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Aksincha bo‘lgan hollarda esa natijadorlik foizining pasayishiga olib keladi. Tabalarning zerikib qolishi va ta’lim sifatining tushishiga turtki bo‘ladi.

XULOSA

Yangi O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimida folklor asarlarini o‘qitishning dasturiy ta’minotini takomillashtirish metodologiyasi mavzusida dissertatsiya ishimiz yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. O‘tkazilgan tadqiqot yuzasidan ko‘rishimiz mumkinki oliy ta’lim muassasalaridan folklor asarlarini o‘qitishning dasturiy ta’minotini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan;
2. Oliy ta’lim tizimida folklor asarlarini o‘qitishning dasturiy ta’minotini takomillashtirish interfaol usullar asosida yangi bilimlarni o‘zlashtirish, fikrlash mantig‘ini yanada rivojlantirish, nutq madaniyatni va aqlning yuksalishiga olib keladi. Shuningdek, Vatanga muhabbat, mehnatga, tarxiy xotiraga hurmat hissini shakllantirishga turtki beradi.
3. Oliy ta’lim tizimida folklor asarlarini o‘qitishning dasturiy ta’minotini takomillashtirish va amalga oshirish, rivojlantirish ko‘p hollarda pedagoglarning o‘ziga bog‘liq bo‘lib, ko‘proq talabalarini o‘z ustida ishslash va kreativ fikrlashga undovchi metodlardan darsda keng qo‘llash talab etiladi;
4. Bugungi kunda folklor asarlarini o‘qitishda zamonaviy ta’lim metodlari SQ3R, interaktiv virtualizatsiya, iskala skaf olding, adabiyot to‘garaklaridan foydalanish ushbu metodlar samaradorlikka erishishning muhim shartlaridandir.
5. Folklor asarlarini o‘qitishda darslarni ta’lim modellaridan kengroq foydalanish orqali natijadorlikka erishish mumkinligini inobatga olgan holda tashkillashtirish lozimdir. Asosan WHERTO, GRASPS, 5E kabi modellardan talabalar habardorlik darajasi past ekanligini inobatga olgan holda kengroq foydalanish lozim;
6. Folklor asarlarini o‘qitish orqali jamiyatning madaniy qadriyatlarini saqlab qolish imkoniyati mavjudligidan kelib chiqqan holda uning rivojiga kengroq e’tibor qaratish va zamon talablariga moslashtiris, zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalangan holda komikslar yaratish lozim;
7. Folklor asarlarini o‘qitishning dasturiy ta’minotini takomillashtirishga bag‘ishlangan mavzularning katta hayotiy

mushohadalarni ilgari suruvchi xalq eposlarini o‘qitishga bo‘lgan yondashuvlarni tubdan yangilash, asar mazmunini tushunish, badiiyatni his qilish vositasi sifatida qarab, mantiqiy izchillik asosida o‘qitishga e’tibor berish lozim;

8. Folklor asarlarini o‘qitish orqali talabalarda miyaning og‘zaki va visual tasvir o‘rtasidagi aloqa qobiliyatini rivojlantiruvchi multimedia texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning muammoni hal etish, hamkorlik qilish va kognitiv fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish orqali kelajakka tayyorlash;

9. Talabalarda multimedia mahsulotlarini mustaqil izlay olish ko‘nikmasini shakllantirish, kerakli ma’lumotlarni turli gadgetlar orqali toppish, o‘zaro axborot almashish, debatlarda faol ishtirok etish orqali shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish;

10. Oliy ta’lim tizimida folklor asarlarini dasturiy ta’minotini takomillashtirishda zamonaviy inetfaol metodlarning integratsiyasini ta’minlashda mos mavzu va muhitni tanlay olish qobiliyatini rivojlantirish orqali samaradorlikka erishish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risi”da 2022 yil 29 yanvardagi PF-60-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.
2. “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисидаги 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сонли Фармони
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Халқаро бахшичилик санъати фестивалини ўтказиш тўғрисида”ги 2018-йил 1-ноябрдаги ПҚ-3990-сон Қарори
4. “Бахшичилик санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисидаги” 2019-йил 14-майдаги ПҚ-4320-сон Қарори
5. “II халқаро бахшичилик санъати фестивалига тайёргарлик кўриш ва бахшичилик санъатини ривожлантириш учун кулагай шарт-шароитлар яратишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2021- йил 10-апрелдаги ПҚ-5070-сон қарори
6. Адилова С.А. Ўзбек тили машғулотларини компьютер технологиялари воситасида ташкил этиш (олий таълим муассасаларининг русийзабон гурухларида): Пед.фан.ном.дисс... – Т.: 2004. – 160 - б.
7. Азизходжаев Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Учебное пособие для магистратуры всех специальностей. -Ташкент 2003. С 194.
8. Алиев А, Зуннунов А. Адабиётни бошқа гуманитар фанлар билан боғлаб ўрганиш. Ўқитувчилар учун қашланма. –Т.; Ўқитувчи, 1982. 72-б
9. Аҳмедов С. Адабиёт дарсларида эпик жанрларни ўрганиш. – Т.: Ўқитувчи 1986. – 92 - б
10. Бегимқулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларни жорий этишнингилмий-назарий асослари. – Тошкент: Фан, 2007. –143 б.
11. Болтаева Ш.Т. Бошлангич таълимда ўқувчилар ижодий фаолиятини ривожлантиришнинг ташкилий-педагогик асосларини такомиллаштириш. Самарқанд, 2019. -168 б.
12. Гулямов А.К. Методика развития учебно-познавательной активности учащихся в процессе преподавания родного /

узб/ языка: Дисс.докт.пед.наук. – Т.: 1991. – 335 - с

13. Жирмунский В.М. Узбекский народный героический эпос. М., 1947

14. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т., Узбекский народный героический эпос. М., 1947, с.303.

15. Ибрагимов Х. И., Зарипов К.З. Узлуксиз таълим: бошқариш, ички назорат назарий асослари, шакл, методлари ва технологияси. – Тошкент: Фан, 2004. –130 б

16. Матвеев С.А. Английские легенды (English folktalesand legends). –М., 2014. – 130 с.

17. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методологик асослари. Пед.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. -Тошкент 2007 й. 316-б.

18. Мирсолиева М. Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларнинг касбий компотентлигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш. П.ф.д. (DSc) илмий дараҷасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. Тошкент 2019.

19. Сабитова Т. Халқ оғзаки поэтик ижоди (Республика академик лицейлар учун дарслар) Шарқ. -Тошкент. -2001, 2003,2010,2011.

20. Сабитова Т. Халқ оғзаки ижодиёти (ўқув қўлланма) Университет. -Тошкент. -2007

21. Сабитова Т. Халқ ижоди сабоқлари Мумтоз сўз. -Тошкент.-2011

22. Сабитова Т. Адабий эртаклар (ўқув қўлланма) Мумтоз сўз.-Тошкент.-2012

23. Sabitova T. “O’zbek folklori” nomli darslik Zebo print. - Toshkent. -2022

24. Sabitova T. O’zbek xalq dostonlarining nazariy asoslari va badiiyati. Monografiya Firdavs shox.-Toshkent, 2022

25. Sabitova T . “O’zbek folklori” darslik Yakka muallif. Sarbon LLS-Toshkent 2024

26. Сабитова Т. Фольклорда янга образининг тарихий асослари. Ўзбекистон Миллий Ахборот Агентлиги-Ўз А илмфан бўлими.2022 йил апрель. Б.220-224.

27. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. –Т:. “Алишев

Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси., 2010. 111-б

28. Tursunova G. Qiyo'slab o'rganishda integrativ yondashuv // Til va adabiyot ta'lifi. –Toshkent, 2018. – № 9. – 44-45-b.
29. Тўлаганова С.П. Ижодкор шахси ва адабий қаҳрамон муаммоси (Абдулла Қодирий ижоди мисолида). Фил. фан. док. (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 70 б.
30. Шарафутдинова М.О., Сайдов А.Х., Мирза-Ахмедова П.М. Бадиий ва танқидий тафаккур миллий ва жаҳон анъанаси контекстида. Жамоавий монография. – Тошкент: Фан, 2009. – 254-б.
31. Qozoqboy Yo'ldosh. Qiyo'slash – tahlil samaradorligini oshirish usuli //Global ta'lif va milliy metodika taraqqiyoti. IV an'anaviy Respublika ilmiyamaliy anjumani materiallari. –Toshkent, ToshDO'TAU, 2020. – 29-b.
32. Қозоқбай Йўлдош, Мухайё Йўлдош. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. – 306 б
33. Хусанбоева Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси ва муаммоли таълим. –Т:. Инновация-Зиё, 2022. 401-б.

SABITOVA TADJIXON

OLIY TA'LIM TIZIMIDA FOLKLOR ASARLARINI O'QITISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Monografiya

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliqo'ziyeva

Musaxhish: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Muxammadiyev

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.

Bosishga ruxsat etildi 17.02.2025 y.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozni.

“Times New Roman” garniturasi.

Xisob-nashr tabogi. 8.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 1.

«Sarbon LLS» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

**Nashriyot tel. raqami +998 (97) 017-01-01
+998 (94) 673-66-56**

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN